

8-bob
Janjal Ninaning oldi ochiq kechki ko'ylagini kiyib, oyna oldida sochini odatdagidan ko'proq taraganidan boshlandi.
Tabiatan ziyrak Kasya buni darhol payqadi.
- Ballarda kiyadigan ko'ylagingni kiymabsan-da, - dedi u go'yo beg'araz gapirganday qilib.
- Kasya!
- Xo'sh!
- Zaharxanda qilishing mutlaqo o'rinsiz.
- Nimaga qaytadan kiyinding bo'lmasa?
- Shunchaki shu ko'ylakni kiygim keldi. Uni anchadan beri kiymagan edim.
- Uni o'zingga yarashishini juda yaxshi bilasan! - deya qichqirdi Kasya.
- Ha, bilaman, - dedi jilmayib Nina va Kasyaga suzilib qarab qo'ydi.
- Nina

Nina hamon jilmayardi.
- Nina! Bas qil! - Kasya hozirgina o'qib o'tirgan kitobini bir chetga qarab uloqtirdi-da, xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.
So'ngra u Ninaning oldiga kelib to'xtadi va jahl bilan dedi:

- Men nafratlanaman - tushunyapsanmi? - erkakka yoqish uchun o'zini... - u kuchliroq ibora qidirib bir zum jimib qoldi, - o'zini fohisha qilib ko'rsatadigan ayollardan nafratlanaman, - dedi u nihoyat og'ziga kelganini qaytarmay.

Ninaning rangi oqarib ketdi.

- Kasya, sen meni haqorat qilyapsan!

- Erkakka yoqish uchun o'zini turli ko'ylaga soladigan ayol menga - ochig'ini aytganim uchun kechirasanu - qanjiqqa o'xshab ko'rinadi... Ha, ha, qanjiqqa o'xshab ko'rinadi.

Ninaning ko'zlarida yosh miltiradi. U bir zum Kasyaga tikilib turdi-da, so'ng qo'llari bilan boshini changallaganicha yig'lab yubordi. Ho'ngrashdan uning bo'yni qizarib, ikki yelkasi silkinardi.

Kasya mushtini qisdi, biroq u g'oyat g'azabi qaynab ketganidan o'zini tutolmay qolgandi.

- Balki, peshinda undan telegramma kelganidan beri kayfiyating o'zgarib qolganini ham inkor etarsan? Balkim, Digma uchun qayta kiyinmadim ham dersan? Uni maftun qilish uchun bir soatdan beri o'zingni oynaga solayotganingni ham tan olmassan?

- Ey xudoyim, ey xudoyim! - deya ho'ngrardi Nina.

- Bu ishingdan jirkanaman, tushudingmi?

Nina sapchib o'rnidan turdi. Uning jiqqa yoshga to'la ko'zlari isyonkorlik bilan chaqna ketdi.

- Mayli, mayli! - dedi u g'azab bilan shivirlab. - To'g'ri! Rost aytding! Uni maftun qilmoqchiman! Unga yoqishni istayman!.. Sen bundan jirkanyapsan... Lekin bir o'yab ko'r, balki, sen bilan ikkovimiz bundan ham jirkanchliroqdirmiz?

Kasya ikki qo'lini biqiniga tirab, xaxolab kulib yubordi:

- Topgan odamingni qara-yu!

U istehzo bilan Ninani mag'lub qilmoqchi edi, biroq Kunitskaya xonim sira tap tortmay boshini ko'tardi-da:

- Ha, topdim! - dedi.

- Axir u betamiz maxluq-ku! - dedi g'azab bilan Kasya. - Maymun!.. Gorilla!

- Ha, ha! Xo'sh, nima qilibdi? - deya qizarib qichqira boshladi qizishib ketgan Nina. - U qo'polmi? Mayli. Zamonaviy erkakning timsoli u! Kuchli odam. Bildingmi? U hayotni zabt etuvchi g'olib!.. Nega o'zing doim menga haqiqiy ayol ekanligimni uqtirib kelding?.. Men senga ishonдим, mana endi yo'limda haqiqiy erkakni uchratganimda...

- Nar maxluqni uchratganimda deyavir, - ilondek vishilladi Kasya.

Nina nafasn ichiga tushib, labini tishladi.

- Nima deding?.. Yaxshi. Nar ham bo'la qolsin. Lekin o'zim moda emasmanmi?

- Mahluqning modasidan.

- Bekor aytibsan! Pan Nikodim maxluq emas. Uning mehribon odam ekanligiga menda yetarli dalillar bor. Qo'rslikni esa pan Nikodim ataylab qiladi. Uning o'zini tutish uslubi shunaqa. Qaytangga men senga achinishim kerak ekan. Tabiat senga ayollik tuyg'usini ravo ko'rmabdi, sen bu ajoyib kuchning hayotbaxsh lazzatini, erkaklarga xos qudratiing dastlabki nishonasini butun vujuding bilan his etish qobiliyatidan mahrum ekansan... Ha, ha-, xuddi ibtidosini aytyapman...

- Bu deymen, sen sharm-hayoni ham unutib qo'yganga o'xshaysan.

- Yolg'on, yolg'on jo'rttaga yolg'on gapiryapsan: sharm-hayoni yig'ishtirib qo'yib, ochiqchasiga gaplashish kerak, deb o'zing aytgan eding-ku, axir...

- Bunaqa tumtaroqli gapning nima keragi bor? - deya sovuq istehzo bilan uning so'zini bo'ldi Kasya. - Undan ko'ra, qani endi tezroq qo'ynimga kira qolsa, birga yotishga yuragim to'kilib turibdi, deb qo'ya qol.

U gapni davom etmoqchi edi, lekin Nina yuzini dastro'moli bilan yopganicha yana yig'lab yuborganini ko'rib, jimib qoldi.

- Qanday berahm... qanday shafqatsiz ekansan! - dedi Nina ho'ng-ho'ng yig'lar ekan.

Kasyaning ko'zlarida o't chaqna ketdi.

- Men-a? Men berahmmanmi? Shu gapni menga aytyapsanmi, Nina? Nina!

- Endi faqat o'zimni o'zim o'ldirishim qoldi... yo tangrim, yo parvardigor, qanday yolg'izman-a!..

Kasya stakanga suv quyib, Ninaga uzatdi:

- Manovini ich, Nina, o'zingni bos, icha qol, jonginam!

- Yo'q, ichmayman... Meni tinch qo'y, tinch qo'y meni...

- Icha qol, Nina.

- Ichmayman, ket bu yerdan, senda shafqat degan narsa yo'q ekan...

Ninaning barmoqlari orasidan ko'z yoshlari oqib tushmoqda edi. Kasya uni quchoqlab shirin so'zlar bilan yupata boshladi. Shu payt Iina birdan seskanib tushdi. Uzoqdan avtomobil' gudogi eshitilgan edi.

Oradan bir minut o'tar-o'tmas mashina chirog'i g'ira-shira xonani yoritib yubordi.

- Bo'ldi, Nina, ko'p yig'layverma, ko'zlaring qizarib ketdi.

- Baribir ovqatlangani tushmayman, - dedi Nina va yana o'pkasi to'lib yig'lab yubordi.

Kasya uning yoshdan ho'l bo'lib ketgan yuzi, ko'zlari, titrayotgan lablari va sochlaridan o'pa boshladi.

- Bo'ldi, bo'ldi, yig'lama, Ninochka. O'zing bilasan, qo'polman, fe'lim yomon, kechir meni, jonginam....

U go'yo Ninaning titrab-qaqshashini bosmoqchi bo'lganday, uni qattiqroq quchoqladi.

- Ninochka, jonginam Ninochka!

Eshikda oqsoch xotin paydo bo'lib, ovqat tayyor ekanligini xabar qildi.

- Xo'jayinga bekaning boshlari og'rib turganini ayt... Biz ovqatlangani tushmaymiz...

Oqsoch xotin chiqib ketgach, Nina Kasyadan uni yolg'iz qoldirib, pastga tushib ketaverishini iltimos qildi. Biroq Kasya bu haqda eshitishni ham istamadi. Eshik yana taqillaganida, Nina hamon piqillab, dastro'moli bilan ko'zlarini artmoqda edi.

Xonaga Kunitskiy yugurib kirdi. Uning og'zi qulog'ida edi.

- Tezroq pastga tushinglar, - dedi u shushulab, - Dizma qaytib keldi. Uning qanday ishlar qilib kelgani tushingizga ham kirmagan! Tilla odam ekan! Men aytgan narsalarning hammasini bajo qilibdi! Tusha qolinglar! Men undan sizlar tushmaguningizcha indamay turishini iltimos qildim.

Kunitskiy xursand bo'lib ketganidan ayollarning adi-badi aytishib qolganini endigina fahmladi.

- Nima gap bo'ldi o'zi? Pastga tusha qolsalaring-chi! Qo'yinglar o'sha...

U yana nimadir demoqchi edi, biroq Kasya o'rnidan sapchib turib, eshikni ko'rsatganicha qichqirdi:

- Jo'nang bu yerdan!..

- Axir...

- Hozir jo'nang, deyapman!

Kunitskiy dong qotib qoldi. Uning mitti ko'zlarida nafrat uchqunladi. Chol qo'pol qilib so'kindi-da, tashqariga chiqib, eshikni sharaqlatib yopdi. Uni vestibyulda kutib o'tirgan Nikodim divanda bir sapchib tushdi.

- Nima bo'ldi? - deya so'radi u xizmatkordan.

Xizmatkor ma'nodor jilmayib, tushuntirdi:

- Chamasi, qizlari pan janobi oliylarini quvib chiqargan bo'lsa kerak.

So'nggi so'zlarni xizmatkor shivirlab aytdi, chunki zinapoyada Kunitskiy ko'rinib qolgan edi. Uning chehrasi yorishib turardi.

- Attang, azizim pan Nikodim! Buni qarangki, xotinimning boshi qattiq og'rib qolibdi, shu boisdan u ovqatlangani tusholmas ekan. Kasya esa boyoqishni yolg'iz qoldirgisi kelmeyapti. Na chora, xe-xe-xe, xonimlarsiz ovqatlanamiz shekilli.

U Dizmaning qo'ltag'idan olib, yemakxonaga boshladi. Xizmatkorlar u yerda xonimlarning keraksiz bo'lib qolgan idish-tovoqlarini allaqachon yig'ishtirib qo'yishgan ekan.

Kunitskiy Dizmadan Varshava hamda Grodnoda qilgan ishlarinng tafsilotlarini surishtira boshladi. Har bir javobdan so'ng u stuldan sapchib turardi-da, soniga urardi, labidan bol tomib, Nikodimni maqtardi.

- Bilasizmi, azizim pan Nikodim, - deya xitob qildi u nihoyat, - bu ishingiz natijasida Koborovoning daromadi yiliga yuz-yuz qirq ming zlotiyga ko'payadi. Bu sizning tant'emangiz, kelishuvimizga binoan, yiliga qirq mingdan oshib ketdi, degani bo'ladi. Qalay? Harakatlaringiz zoye ketmabdimi?

- Shunday bo'lsa kerak.

- "Bo'lsa ko'rak" deganingiz nimasi?

- Ko'p pul sarflashga to'g'ri keldi. Men maoshimni oshirarsiz, deb umid qiluvdim.

- Xo'p, yaxshi, - deya sovuqqina javob qildi Kunitskiy, - besh yuz zlotiy qo'shaman. Shunda roppa-raso uch ming bo'ladi.

Dizma rahmat demoqchi bo'ldi-yu, biroq Kunitskiy unga bezovtalanib qarab turganini sezgach, stulda tebranib:

- Bu kam. Uch ming besh yuz zlotiy, - dedi.

- Ko'plik qilmasmikini?

- Ko'plik qilmasmikini? Siz shunday deb o'ylaysizmi? Bo'пти, agar sizga uch ming besh yuz ko'plik qilsa, u holda to'rt ming.

Kunitskiy junjikib, gapni hazilga aylantirmoqchi bo'lgan edi, biroq Dizma:

- To'rt ming! - deya takrorladi.

Kunitskiy juda ilojini topolmagandan keyin Dizmaning har qanday qiyin ishni osongina bajarib kelganini pardalab maqtadi-da, nihoyat rozilik bildirishga majbur bo'ldi.

- Ishimizning yurishib ketgani oqibati baxayr bo'lishidan dalolat beryapti, shuning uchun ham bajonu dil roziman.

- Bu nima deganingiz? - ajablandi Dizma. - Ish hali tugagani yo'qmi?

- Yog'och olish ishi tugadi, albatta, Lekin, pan Nikodim, siz yuz-yuz ellik ming zlotiylik tant'emani rad etmassiz? A?

- Xo'sh?

- Buning chorasi bor, to'g'rirog'i, bunga siz chora topishingiz mumkin.

- Men-a?

- Ha, albatta, siz, azizim pan Nikodim. Rost, ancha yelib-yugurishga to'g'ri keladi. Temir yo'l ministrligida tanishlaringiz yo'qmi mabodo?

- Temir yo'l ministrligidami? Hm... Topilishi mumkin.

- Ana ko'rdingizmi, - dedi xursand bo'lib Kunitskiy. - U yerda temir yo'l qurilishiga shpal yetkazib berishni pudratga ololmaysizmi? A? Buni ish desa bo'ladi. Ancha pul ishlab olish mumkin!

- Shpal sotib, pul ishlab oldingiz shekilli, - dedi Dizma.

Kunitskiy xijolat tortdi.

- Siz anovi protsessni aytyapsizmi? Ont ichib aytaman, dushmanlarimni hiylasi edi bu. Ulardan qutulib bo'lmas ekan... Ha, ha, hiyla edi! Sud'yalar meni oqlashga majbur bo'lishdi. Qo'limda rad qilib bo'lmaydigan dalillar bor edi.

Kunitskiy suhbatdoshini diqqat bilan kuzatardi, lekin Dizma indamasdi. Chol bundan bezovta bo'la boshladi.

- O'sha protsess pudrat olishimizga xalal berishi mumkin, deb o'ylayapsizmi?

- Harqalay, yordam bermasa kerak.

- Lekin biror chora topishingiz mumkindir? A? Bilib qo'ying, qo'limda hujjatlarim bor; zarurat tug'ilsa, aybsizligimni ikkinchi marta isbotlashim mumkin.

Kunitskiy bu ishning tafsilotlari haqida yana uzoq gap sotib, suddagi nutqidan ba'zi joylarini aytib berdi.

U suhbatdoshining mudrab o'tirganini sezganida vaqt yarim kecha bo'lib qolgan edi.

- Charchabsiz. Endi yotib uxlang. Sizdan iltimos qilaman, azizim pan Nikodim, o'zingizni charchatmang. Xo'jalikka nazar tashlab tursangiz, sizdan miniatdor bo'laman, albatta. Axir ikki yorti bir butun deganlar, lekin hozircha, xudoga shukur, sog'lig'im yaxshi,

shu boisdan sizga ko'p ish yuklamoqchi emasman. Dam oling, o'z uyingizdagidek yuravering.

- Rahmat, - dedi Dizma esnab.

- Ha, yana bir iltimosim bor. Agar vaqtingiz, istagingiz bo'lsa, mening xonimlarim bilan shug'ullansangiz. Kasya-ku otda sayr qilib, bir oz sport bilan shug'ullanadi-ya, lekin boyoqish xotinim uzzukun uyda siqilib o'tiradi. Gaplashadigap odam yo'q, bosh og'rig'i ham, xafaqonlik ham ana shundan. Doim faqat Kasya bilan munosabatda bo'lish uning asablariga yomon ta'sir qilsa kerak. Shu boisdan bir oz vaqtingizni ayamay, ular bilan shug'ullansangiz, g'oyat xursand bo'lardim.

Dizma Ninaning ko'nglini ochishga va'da qildi va to'shakka cho'zilar ekan, xayolidan o'tkazdi:

"Bu qari tullak o'lguday sodda ekan. Xotini shundoq ham menga oshiqu beqaror bo'lib yuribdi-yu, u bo'lsa, ko'nglini ochgin, deydi-ya".

Dizma yostiqa suyanib o'tirdi-da, karmonidan pulini olib sanab chiqdi, so'ng bir varaq qog'ozda yillik daromadini hisoblay boshladi va tant'emasi qancha bo'lishini chamalab ko'rди. Shu payt birdan qo'shni xonada ohista qadam tovushi eshitildi. Kimdir stullarga turtilib-surtilganicha, qorong'ida paypaslanib kelmoqda edi. Soat birdan oshgandi. Qiziqib qolgan Nikodim qo'shni xonaga qarash uchun o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, tungi mehmon birdan uning xonasi oldida to'xtadi. Tutqich sekin buralib, eshik ochila boshladi.

Ostonada Kasya paydo bo'ldi.

Dizma ko'zlarini ishqab, hayratdan og'zi ochilib qoldi.

Qiz egniga qizil yoqa tutilgan qora shoyi pijama kiyib olgandi. U kipriklari ostidan to'shakda o'tirgan Nikodimga bir qarab qo'ydi-da, eshikni asta yopib, unga yaqinlashib keldi. Qizning yuzida xijolat degan narsadan asar ham ko'rmagan Dizma Kasyaga borgan sayin hayratlanib qarab turardi.

- Xalal bermadimmi? - so'radi Kasya sira tap tortmay.

- Mengami?.. Yo'g'-e, nimalar deyapsiz.

- Papirosim tugab qolipti, - dedi qiz beparvogina.

- Men o'ylabmanki...

- Nima deb o'yladingiz?.. - deya hayosizlik bilan so'radi Kasya.

Nikodim xijolat tortdi.

- Men... menda biror ishingiz bor ekanmi, deb o'ylabman.

Kasya papiros tutatib, bosh irg'adi:

- Ha, ishim ham bor.

U stulni yaqiroq surdi-da, oyog'ini chalishtirib o'tirdi. Uning qizil atlas tuflisi bilan shimining pochasi orasidan oftobda qoraygan ingichka oyog'i ko'rinib ketdi. Nikodim ilgari ayol kishining shim kiyganini sira ko'rmagan edi, shuning uchun ham Kasyaning bu ko'rinishi unga o'taketgan odobsizlik bo'lib tuyuldi. O'rtadagi sukutni Kasyaning past ovozi buzdi:

- Siz bilan ochiqchasiga gaplashmoqchiman. Ninaga nisbatan qanday niyatingiz bor?

- Menimi?

- Gapni aylantirishga urinmang. Savolimni erkakchasiga aniq javob berishingiz kerak. Uni o'zingizga moyil qilishga harakat qilayotganingizni inkor etmassiz axir. Xo'sh, nima maqsadda shunday qilyapsiz.

Dizma yelkasini qisdi.

- Sizni deb erini tashlashiga umid qilmayotgandirsiz, axir. Agar unga yoqib qolgan bo'lsangiz, bu hali hech nimadan dalolat bermaydi.

- Unga yoqib qolganimni qayoqdan bilasiz? - so'radi qiziqib Nikodim.

- Buning ahamiyati yo'q. Men sizning kimligingizni - jentl'menmisiz yoki vijdonli ayolning zaifligidan foydalanadigan odammisiz - shuni bilgani keldim. Agar Ninani o'zingizga o'ynash qilib olsangiz, sizni ablah deyman.

Kasya qizishib ketganidan deyarli xirillab gapirmoqda edi. Uning ko'zlari g'azab bilan yonib turardi.

- Nega menga yopishib oldingiz? - deya javob qildi Nikodim zardasi qaynab. - Nima, men sizning ishlaringizga tumshug'imni tiqyapmanmi?

- E, shunaqa deng! Bu gapingiz bilan, razillik qilish niyatim bor, demoqchimisiz? Qani, endi basharangizga qamchin bilan tushirib bir huzur qilsam!

- Nima? - o'shqirdi Dizma. - Kimni? Meni-ya?

- Ha, Sizni! Sizni! - deya nafrat bilan pishilladi Kasya kichik mushtchalarini qisib.

Dizmaning jahli chiqib ketdi. Bu mishiqlik qizcha nima deb o'ylayapti o'zi! Tunda kelib yana...

Kasya birdan sapchib turdi-da, uning qo'lidan ushladi.

- Unga tegmang! Eshityapsizmi! Unga tega ko'rmang.

Kasyaning lablari titrab turardi. Nikodim qo'lini tortib oldi.

- Nima istasam, shuni qilaman! Bildingizmi? Gapingizga quloq solishni ham istamayman!

Kasya labini tishlab, deraza oldiga bordi.

- Uni qarangu... - dedi qizning ortidan Dizma. Nikodim vaziyatni tushunolmay qolgandi. To'g'ri, Nina uni yoqtirib qolganligi, haqidagi xabar unga moyday yoqdi, biroq u nega bu narsadan Kasyaning shu qadar g'azablanayotgani, qiz nega o'z shubhasini otasiga borib aytish o'rniga, tunda uning oldiga kirib kelganini tushunolmay garang edi. U Kasyaning Kunitskiyni yomon ko'rinishini bilardi, lekin u holda qiz nega o'gay onasining eriga sadoqatli bo'lishi uchun o'lib-tirilyapti? Bu boyonlarning hammasi telva-teskari bo'ladi...

Bu orada Kasya yana unga o'girilgan edi, Nikodim battar ajablanib qoldi. Qiz unga nozu karashma bilan jilmayib qarab turardi.

- Siz mendan xafamisiz? - deya so'radi ochiqdan-ochiq tegishib Kasya. - Juda xafamisiz?

- Juda xafaman, albatta.

- Lekin meni bu yerdan quvib chiqarmassiz axir? O'tirsam maylimi?

- Uxlash kerak, - deya to'ng'illadya Nikodim.

Qiz sho'xlik bilan kuldi-da, to'shakning chetiga o'tirdi.

- Nima, siz tunlarni doim shunaqa tizzangizni qo'ltiqlab yotib o'tkazasizmi? Bir o'zingiz-a?

Nikodim unga taajjublanib qaradi. Mana, qiz asta unga engashdi. Uning to'q qizil lablari ochilib, sadafdek tishlari ko'rinib ketdi.

Qizning oftobda qoraygan yuzlariga qon yugurib, burun parragi titrardi. Nikodim Kasyaning bunday jozibali ekanligini birinchi

bor ko'rishi edi. Faqat uning ko'zlaridagi ifoda o'zgartirildi. U Nikodimga payvasta qoshlari ostidan sinchkovlik bilan sovuq tikilib turardi.

- Siz, ehtimol, Varshavann sog'inayotgandirsiz, axir u yerda erkaklar bu yerdagiday, Koborovodagiday tunlarni yolg'iz o'tkazishmaydi-da. O, sizni tushunaman...

- Nimani tushunasiz? - ikkilanib so'radi Nikodim.

- Nega Ninaning boshini aylantirmoqchi ekanligingizni-da.

- Men sirayam uning boshini aylantirmoqchi emasman. - dedi rostiga ko'chib Nikodim.

Kasya kulib yubordi va birdan boshini egib yuzini uning lablariga surtdi.

"Gap, bu yoqda ekan-da, - deya xayolidan o'tkazdi Nikodim. - Rashk qilibdi. Bunisi ham meni yaxshi ko'rib qolibdi-yu!"

- Pan Nikodim, - deya noz bilan gap boshladi Kasya, - tushunaman, siz bu yerda ham ayolsiz turolmaysiz, lekin nega bu ayol xuddi Nina bo'lishi kerak? Nahot men sizga sira yoqmasam?

Ko'rpa juda yupqa bo'lib, Nikodim qizning haroratini aniq sezib turardi.

- Nega endi, siz ham menga yoqasiz...

- Men Ninadan yoshroqman... Keyin undan sira qolishmayman. Mana qarang!

U sakrab turib, vyuklyuchatel' oldiga yugurib bordi. Chiroq yonib, xona ichi yorishib ketdi.

- Mana, bir qarang-a, bir qarang-a...

Qiz ikki-uch harakat bilan pijamasining tugmalarini yechib tashladi. Qora shoyi xushbichim qomatdan sirg'alib asta yerga tushdi.

Nikodim butunlay dovdirab qoldi. U hayosizlik bilan qip-yalang'och bo'lib olgan bu g'alati qizga baqrayib qarab turardi. Qiz shu qadar yaqin turardiki, Nikodim qo'lini cho'zib, bemalol uning qoramag'iz badanidan ushlashi mumkin edi.

- Xo'sh, qalay? Sizga yoqamanmi?

Kasya asta kulib qo'ydi.

Nikodim to'shakda angrayib o'tiraverdi.

- Men juda chiroyliman.. - Kasya noz bilan boshini yuqori ko'tardi. - Ehtimol, sizni badanimning silliqligi-yu, tarangligi qiziqtirayotgandir? Marhamat, tortinmang!..

Kasya kulganicha to'shak chetiga yaqinlashdi.

- Qani!

Uning kulgusida qandaydir kishini cho'chitadigan bir narsa bor edi. Nikodim qimir etmay o'tiraverdi.

- Balki, meni buzuq deb o'ylayotgandirsiz?.. A? Yo'q, go'zal pan Nikodim, men iffatimni saqlab qolganman. Agar Ninadan meni afzal ko'rsangiz, bunga hoziroq ishonch hosil qilishingiz mumkin... Qani!.. Buncha tortinasiz!..

U to'shakka cho'kkaladi-da, Nikodimning boshini ko'kragiga bosdi. Dizma yuziga uning nokdek dirkillab turgan siynasi tekkanini his etdi, dimog'iga yosh badanniig kishini mast qiluvchi o'tkir hidi urildi.

- Qani!..

- He, jin ursin! - tishlarini qisib dedi Dizma, Kasyani mahkam quchoqlar ekan.

Kasya yuziga uning haroratli nafasi urilganini his etdi. Chetlarida qattiq tuk o'sgan lablar qizning labini izlay boshladi. Kasyaning qo'li terlagan jundor gavdaga tegib ketdi. Azbaroyi jirkanganidan uning tomog'i bo'g'ila boshladi.

- Qo'yvor, qo'yvor, qo'yvor meni... Jirkanyapman! Yo'qol!

Nozik gavda qo'pol qo'llardan silkinib chiqishga harakat qildi. Biroq qutulolmadi.

Kasya Ninaga bo'lgan muhabbatiga ortiqcha baho berib yuborgani, manovi qurbonlik unga og'irlik qilishi, bu quchoqlarga kirishdan ko'ra o'lgani yaxshiligini endi tushundi.

Ammo u kechikkan edi.

Qiz qo'llari titrab pijamasini tugmasini qadar ekan, Nikodim kulib dedi:

- O'zing ham zo'r qiz ekansan-da.

Kasya unga nafrat bilan qarab qo'ydi, biroq Dizma buni tushunmay qo'shimcha qildi:

- Yaxshi bo'ldi-a?

- To'ng'iz! - dedi tishlarini qisib Kasya va xonadan yugurib chiqib ketdi.

Dizma bu qizga aslida nima kerakligini yana tushunolmay qoldi. O'zi keldi, o'zi shuni istadi, keyin bo'lsa...

U anchagacha uxlayolmay yotdi. U bu voqeani o'ylab, Kasya chindan ham mendan nafratlanar ekan, endi u bilan oshiq-ma'shuqlik qilib bo'lmaydi, degan xulosaga keldi.

"Ularning hammasi aqldan ozgan ekan" - degan xulosaga keldi Nikodim Ponimirskiyni eslab.

Ertasiga nonushta qilgani faqat Nina keldi. Uning aytishicha, Kasyaning tobi qochib qolganmish.

Nikodim Ninani kuzatar ekan, tungi voqeadan uning xabari yo'qligiga ishonch hosil qildi.

Kechqurun Kunitskiy qaytib keldi va allamahalgacha Dizmaning boshini qotirib o'tirdi.

Nikodim Kasyani faqat ertasiga ertalab, yemakxonaga ketayotganidagina uchratdi. Uning ta'zimiga javoban Kasya dimog'dorlik bilan bosh iring'ab qo'ya qoldi. Nina allaqachon pastga tushib o'tirgan ekan. Ikkovi ham indamasdi. O'rtadagi og'ir jimlikni buzish uchun biror narsa deyish lozim edi. Dizma yaxshi havo haqida og'iz ochgan ham ediki, Kasya istehzo bilan dedi:

- Voy-bo'y, demak, siz, buni g'ayri tabiiy hodisa, deb o'ylagan ekansiz-da a?

Nikodim tarelkasiga ozgina cho'chqa go'shtidan solish uchun qo'lini cho'zganida yengi moyga tegib ketdi. Kasya ichqoralik bilan kulib yubordi:

- Shunday ajoyib kostyum bulg'andi-ya! Afsus! Shunday chiroyli, shunday did bilan tikilgan kostyum-a! Siz kiyimni Londonda tiktirsangiz kerak-a?

- Yo'q, men tayyorini sotib olaman, - deya soddalik bilan javob berdi Nikodim.

U kesatichni tushunmay, kostyumining qizga yoqishi mumkinligidan ajablandi. Dizma Ninaning bu pichinglardan so'ng Kasyaga ta'na bilan qarab-qarab qo'yishi sababini ham tushunmadi.

- Endi nima deysan, - deya gap qotdi Nina, - pan Nikodim ta'ziringni berdi-ku. Uddaburon bo'lgani uchun ham u oliftagarchilikni bilmaydi, deb aytuvdimu senga, - Kasya qo'l sochiqni g'ijimlab tashladi-da, o'rnidan turdi.

- Bu bilan mening nima ishim bor! Yaxshi qolinglar.

- Sen Krupovga ketyapsanmi?

- Ha.

- Tushgacha qaytasanmi?

- Bilmadim. Ko'raman.

Qiz chiqib ketgach, Dizma ehtiyotkorlik bilan so'radi:

- Kasya nega achchig'lanyapti?

Nina bosh iring'adi:

- Rost aytdingiz. U achchig'lanyapti... Ehtimol... Bo'sh vaqtingiz bormi?

- Bor, albatta.

- Qayiqda sayr qilmaymizmi?

- Bo'пти.

Nina ro'moli bilan zontigini oldi, chunki quyosh ayovsiz olov purkamoqda edi.

Ular ang'iz oralab ketgan torgina so'qmoqdan sokin ko'l tomon borishardi. Nina egniga yengilgina, deyarli shaffof oq ko'ylak kiyib olgandi. Juvonning ortidan borar ekan, Nikodim uning kelishgan oyoqlari tarxini yaqqol ko'rib turardi. Qayiqqlar yoniga borish uchun zovur ustidagi ko'prikchadan o'tish lozim edi. Nina taraddudga tushib qoldi.

- Keling, yaxshisi aylanib o'tamiz.

- Ko'prikdan qo'rqupsizmi?

- Ha, bir oz.

- Qo'rqmang. U mustahkam,

- Mening boshim aylanib ketadi, muvozanatni yo'qotib qo'yaman.

- Hm... Aylanib o'tish shartmi? Men sizni ko'tarib o'tkazib qo'ya qolay.

- Qo'ying-e, noqulay bo'ladi, - dedi Nina quvlik bilan jilmayib.

Dizma ham jilmayib qo'ydi. U engashib, juvonn dast ko'tarib oldi. Nina qarshilik ko'rsatmadi, Nikodim ko'prik ustiga chiqqach:

- Voy, ehtiyot bo'ling... - deya uning bo'ynidan quchoqlab, pinjiga tiqildi.

Dizma ataylab qadamini sekinlatdi va ayolni ko'prikdan ancha nariga eltib yerga qo'ydi. U garchi charchamagan bo'lsa-da, hansiray boshladi. Shunda Nina:

- Og'ir ekanmanmi? Meni uzoq ko'tarib borolarmidingiz? - deya so'radi.

- Uch... besh milyaga bemalol ko'tarib borardim...

Ayol tez-tez yurib ketdi, ular to suv bo'yiga yetib borguncha ham so'zlashmadi.

- Gapimni yomonlikka yo'yangu, - dedi Nina, ular qirg'oqdan ancha nari suzib ketishgach, - lekin menimcha, ayol kishi uni qo'lida ko'tarib yuradigan odami bo'lmasa, o'zini baxtliman deyolmaydi. Ma'juziy ma'noda emas, yo'q, meni chinakamiga qo'lda ko'tarib yurishni aytyaman.

Dizma eshkakni qo'yib yubordi. U kichkina va semiz Boçek bilan uning xotinini esladi. Boçekning xotini, o'ldim deganda, yuz kilo kelardi. Boçek uni qo'lida ko'tarib yurolmasdi, albatta, lekin ular baxtli edilar. Shuni eslar ekan, Dizma jilmayib qo'ydi.

- Hamma ayollar ham shunaqa emas, - deya e'tiroz bildirdi u.

- To'g'ri, ammo shunaqa bo'lmagan ayollar o'z mohiyatlarining ma'lum bir qismini yo'qotib, ayollik latofatidan mahrum bo'lganlar va erkaklarga o'xshab qolganlar. Masalan... Kasya.

Uning tovushida bir oz adovat ohanglari sezilmoqda edi.

- Nima, Kasya bilan janjallashib qoldinglarmi?

- Yo'q, - deya javob qildi Nina, - u shunchaki mendan achchig'lanib yuribdi.

- Nega endi?

Nina ikkilanib qoldi.

- Nega deysizmi? Aytish qiyin... Ehtimol, sizni yoqtirib qolganim uchundir.

- Kasya meni yomon ko'radimi?

- Gap unda emas.

- Yo'q, yomon ko'radi. Bugun nonushta mahali rosa piching qildi-yu menga...

- Lekin bu sizga ta'sir qilmas ekan. Qoyillatib adabini berdingiz-da, o'ziniyam. Siz ikki-uch so'z bilan kishining tanobini tortib qo'ya olar ekansiz.

Dizma kulib yubordi. Shu payt u Varedaning Ulyanitskiy qilgan hazil haqidagi hikoyasini esladi.

- Ba'zan so'zsiz ham shunday qilish mumkin. Shu yili may oyida Krinitsada yashaganimda men bilan pansionda bir mahmadona yashagan edi. Vaysaqi oliftalar bo'ladi-ku, shunaqalardan. Ovqat payti u mening qarshimda o'tirib olib, obdon suxandonlik qilardi. Nimalar haqida gapirmasdi deysiz! Tag'in chet tillarda gapirganiga o'lasizmi! Barcha uning og'ziga tikilib o'tirardi. Ayollar-ku, unga oshiq beqaror bo'lib qolishgandi. U bo'lsa hammani o'ziga shaydo qilishga urinardi.

- Men bunaqa ko'ngil ochuvchilarni yaxshi bilaman, - deya gap qotdi Nina. - Ularni ko'rgani ko'zim yo'q.

- Mening ham. Shunday qilib, bir kuni chidab turolmadim. O'sha olifta yarim soatga tinimsiz gapirganidan so'ng engashdim-da: "U-u-u-u!.." - dsb bir o'shqirib berdim.

Nina xaxolab kulib yubordi.

- Shunda u nima qildi? - deya so'radi.

- Darhol nafasi ichiga tushib ketdi. O'sha-o'sha qorasini ko'rsatmay qo'ydi. Jo'nab qolgan bo'lsa kerak.

- Eh, qanday ajoyib-a! Qilig'ingiz shundoq sezilib turibdi. Agar bu ishni kim qilganini aytmagan taqdiringizda ham, men baribir, bu siz ekanligingizni topgan bo'lardim. Ajoyib!

Dizma ayolni qoyil qoldirganidan g'oyat xursand edi.

- Bilasizmi, - deya davom etdi Nina. - Men sizdaka erkakni ilgari sira uchratmagan edim. Menimcha, siz bilan biz go'yo juda ko'pdan beri tanishdekmiz. Go'yo men u yoki bu holda siz o'zingizni qanday tutishingiz, nima deyishingizni oldindan biladigandekman. Lekin eng ajablanarlisi shuki, men har gal sizning biron-bir boshqa fazilatingizni payqab qolaman. Ammo baribir siz tosh-metinsiz.

- Nima?

- Tosh-metin. Ish tutishlaringiz rejali, hisob-kitobli. Masalan, ayollar bilan gaplashishingizni olaylik! Siz ularni soddaligingiz bilan maftun etasiz. To'g'ri, siz bir oz dag'alsiz, hatto qo'polsiz ham deyishim mumkin. Ammo bunda fikrning teranligi seziladi. Faqat uddaburon odam, haqiqiy intellektualgina o'zini shunday tutishi mumkin. Bunday odam hissiyotga bsrilib, vertercha yig'loqilik

qilmaydi, o'ziga zeb bermaydi. O, siz magazinchiga o'xshaydigan odamlar sirasiga kirmaysiz. Chunki ular butun fazilatlarini vitrinaga tsrib qo'yadilar. Bu metafora uchun meni kechiring. Siz metaforani yoqtirmasangiz kerak-a?

Nikodim bu so'zning ma'nosini tushunmasdi, lekin u har ehtimolga qarshi dedi: - Nega endi... aksincha.

- Nazokat yuzasidan shunday deysiz. Lekin bu sizning ruhingizga to'g'ri kelmas ekan. Barokko sizga mutlaqo begona. Men to'g'ri topdimmi?

Dizmaning zardasi qaynay boshladi. "Ona tilingda aytilayotgan gapni eshitsu, bironta so'zni tushunolmasang!" - deya xunob bo'lardi dilida Nikodim.

- To'g'ri topdingiz, albatta, - to'ng'illadi u javoban.

- E, siz o'zingiz haqida gapirishni yomon ko'rar ekansiz!

- Ha. Innaykeyin o'zim haqimda nimaniyam gapirardim.

U bir oz sukut qilib o'tirdi-da, so'ng boshqacha ohangda:

- Balki, huv anavi o'rmonga suzib borarmiz? - deb so'radi va qarag'aylar ko'rinib turgan qirg'oqqa ishora qildi.

- Yaxshi. Lekin endi eshkakni men eshaman, siz esa rulga o'tirasiz.

- Charchab qolmaysizmi?

- Yo'q. Bir oz gimnastika qilsam yomon bo'lmaydi.

Qayiq juda tor ekan: ular joy almashishayotganida muvozanatini yo'qotmaslik uchun bir-birlarini ushlab o'tishlariga to'g'ri keldi.

- Siz suzishni bilasizmi? - so'radi Nina.

- To'nkaning o'zginasiman, - deya javob qildi Dizma va kulib yubordi.

- Men ham suzishni bilmayman. Shuning uchun ehtiyot bo'lishimiz kerak.

Ular o'rmonga yaqinlashib borishdi. Oftobda qizigan qarag'aylarning hidi havoni tutib ketgandi.

- Chiqamizmi? - so'radi juvon.

- Mayli. Birpas soyada o'tiramiz.

Qayiqning tumshug'i qumloq sohilga sirg'alib chiqdi. Nariroqda, daraxtlar boshlangan joyda yer qalin va yumshoq yo'sin bilan qoplangan edi.

- Bu yer chiroyli-ya, to'g'rimi? - deya so'radi Nina.

- Ha, yomon emas.

Ular yo'sin ustiga o'tirishgach, Nikodim papiros tutatdi.

- Xatimni olganingizda juda ajablangedirsiz-a?

- Nega endi? Uni olganimda juda xursand bo'ldim, - dedi javoban Dizma, cho'ntagidan ensiz konvertni olar ekan, - ko'z qorachig'iday asrab yuribman.

Nina xatni yoqib yuborishni iltimos qila boshladi: axir u birovning qo'lga tushib qolishi mumkin.

- Erim borligini unutmang. Iltimos qilaman.

- Yo'q, uni sirayam yoqmayman, - deya e'tiroz bildirdi Dizma.

- Meni qo'rqq deb o'ylamang. Shunchaki ko'ngilsizlik bo'lmasin deyapman.

Nina qo'lini cho'zdi, biroq Nikodim xatni tepasiga ko'targan edi, ayolning bo'yi yetmay qoldi.

- Iltimos qilaman, bera qoling.

- Bermayman, - deya javob qildi Nikodim va kulib yubordi.

Dizmaning hazillashayotganini ko'rib, Nina ham jilmaydi. U fursat poylab turdi-da, xatni yulib olmoqchi bo'lib, Nikodimning yelkasiga tayandi. Shunda Dizma uni quchoqlab, o'pa boshladi. Ayol avvaliga qarshilik ko'rsatmoqchi bo'ldi, biroq uning bu harakati uzoqqa cho'zilmadi.

Yiroqdan, narigi sohildan Kunitskiyga qarashli taxta zavodining taqa-tuqi elas-elas eshilib turardi.

Dizma qo'llarini boshi ostiga qo'yib, yo'sin ustiga cho'zildi. Nina uning yonida g'ujanak bo'lib o'tirardi. U Nikodim tomon egilib, shivirlay boshladi:

- Nega, nega shunday qilding? Endi men seni sirayam unutmayman... Endi ilgarigiga qaraganda yuz karra baxtsizroq bo'laman...

Yo parvardigor, yo tangrim! Bu mudhish hayotda qanday yashayman endi... Sensiz yashayolmayman...

- Mensiz yashamaysan haliyam!

- Yo'q, yo'q, unday dema! Qari erini aldab yashaydigan xotinlar xilidan emasman. Axir bu razillik-ku.

- Lekin uni yaxshi ko'rmaysan-ku...

- Undan nafratlanaman!

- Xo'sh, gap nimadaa bo'lmasa? .

- O'zingni tushunmaganga solasan-a. Men riyokorlik bilan yashayolmayman. Bunga qurbim yetmaydi. Bu narsa sen bilan o'tkazgan har bir daqiqamni zaharlab turadi... Ey, xudoyim! Qani endi bu kishandan qutula olsam!..

- Buning nimasi qiyin ekan? - Dizma yelkasini qisdi. - Eru xotinlar har qadamda ajralishyapti-ku.

Nina lablarini tishladi.

- Men tentak, razil ayolman. Meni qoralab to'g'ri qilasan, lekin men zeb-ziynatsiz, boyliksiz yashayolmayman. Bundan o'zim ham uyalaman... Sen badavlat bo'lganingda edi!

- Hali boyib ham ketarman! Kim biladi, deysan!

- Jonginam! - Nina, go'yo ibodat qilayotgan odamdek, qo'llarini ko'ksiga qo'ydi. - Jonginam! Axir sen juda baquvvat, juda aqlli odamsan. Agar istasang, har narsaga erishishing mumkin! Shunday emasmi?

- Ha, shunday, - deb javob qildi Nikodim taraddudlanib.

- Ana, ko'rdingmi? Meni bu yerdan olib ket! Qutqar meni!

Shunday deya Nina yig'lab yubordi. Dizma uni quchoqlab, bag'riga bosdi. U juvonni qanday yupatishni bilmas va shu boisdan indamas edi.

- Qanday yaxshi, qanday mehribon odamsan-a! Seni qanday sevishimni bilsang edi... Sendan yashirishni istamayman, yashirolmayman... Mendan nafratlanishing mumkin, lekin senga hammasini aytaman. Kechiraman, deb va'da ber! Eshityapsanmi, va'da ber! Qanday baxtsiz, qanday zaifligimni o'zing ko'rib turibsan. Ochig'ini aytam, unga qarshilik ko'rsata olmadim. U g'ayri tabiiy bir holda kishini o'ziga qaratib olish qobiliyatiga ega.

- Kimni aytyapsan?

- Kasyani-da. Lekin ont ichaman, bu narsa ikkinchi qaytarilmaydi, Ont ichaman! Menga ishonasanmi?
Nikodim uning nima haqida gapirayotganini sira tushuna olmasa-da, ishonaman, degandek bosh irg'adi. Nina uning qo'lidan tutib o'pa boshladi.

- Qanday mehribonsan-a! Qanday mehriboisan-a! Darvoqe, Kasya Shveysariyaga jo'nab ketyapti.

- Qachon.

- Kelasi haftada. Bir yilga ketyapti.

- Bir yilga, deysanmi? Uning bu safari eringga rosa qimmatga tushsa kerak?

- Erim bir tiyin ham bermaydi. Kasya undan sariq chaqa ham olmasa kerak.

- Bo'lmasam u yerda Kasya nima bilan tirikchilik qiladi?

- Bankada uning onasidan qolgan puli bor.

- Shunaqami? Bilmagan ekanmap. Pan Kunitskiy bu to'g'rida menga hech nima aytmagan edi.

- Eh, nega uni eslaysan! Kel, o'zimiz haqimizda gaplashaylik.

Nina ko'ngli buzilib, hayajonlanib ketgan edi.

Ular uyga indamay qaytishdi.

Nikodim bilan Nina ayvonda Qunitskiyga duch kelib qolishdi. Chol odati bo'yicha iljayib, mitti qo'llarini bir-biriga ishqardi. Chol ularning kayfiyatlarini, qanday sayr qilishganini so'rab-surishtirar ekan, go'yo o'z xushchaqchaliqligini ataylab namoyish qilayotgandek tuyulardi. Gap uning og'zidan shalola kabi oqib chiqar va ular javob berishni istagan taqdirlarida ham cholning gapi orasiga bir og'iz ham so'z qistira olmagan bo'lardilar.

- Xo'sh, yuqori doiralarda qanday yangiliklar bor?

- Ya'ni Varshavada demoqchimisiz? Hech gap yo'q. Biz Yashunskiy va Ulyanitskiy bilan mening g'alla sotib olish borasidagi loyiham haqida gaplashdik.

- Shunaqa deng! Xo'sh, xo'sh? Qaiday xulosaga keldinglar? Ish yurishyaptimi?

- Yurishyapti shekilli, lekin aytib qo'yay; bu gaplar mutlaqo sir saqlanishi kerak.

Kunitskiy barmog'ini labiga qo'yib, shivirladi:

- Tushunaman! Jimm... Ana, xotinim kelyapti, balki tushki ovqatdan keyin gapirib berarsiz, Tezroq aytmasangiz, yorilib ketaman.

- Hoziroq gapirib berishim mumkin, - deya javob qildi Nikodim, - axir pani Nina bu gapni hech kimga aytmaydilar-ku. U kishining oldilarida aytaversa bo'ladi.

- Nimani gapiryapsizlar? - deya so'radi Nina ularga qaramasdan.

- Nina, bilib qo'y, - ogahlantirdi Kunitskiy, - bu davlat siri. Pan Dizma hukumat bilan hamkorlikda mamlakatni iqtisodiy krizisdan xalos etish planini tayyorlayapti. Bu loyiha uchun ular pan Dizmaning boshidan zar to'kishlari kerak! Xo'sh, u yog'i nima bo'ldi, azizim pan Nikodim?

Dizma g'alla obligatsiyalari haqidagi bor gapni qisqacha so'zlab berdi. Qunitskiy mitti qo'llarini bir-biriga ishqaganicha nuqul:

- Ofarin, genial ish! - deya takrorlardi.

Nina esa loyihaning genial muallifiga hayratdan ko'zlarini katta ochib, tikilib turardi.

- Faqat bitta qiyinchilik bor, - dedi gapining oxirida Dizma. - Sotib olinadigan g'allani saqlash uchun joy topilmayapti. Yangi omborlar qurish uchun esa pul yo'q.

- Ha, chindan ham jiddiy masala! - deya xitob qildi Kunitskiy. - Shoshmang-chi... Pan Nikodim, mana bunday qilinsa nima deysiz: aytaylik, davlat g'allani sotib oladi-yu, lekin uni sotgan odam g'allani o'zida saqlaydi, deb shart qo'yadi. Ko'pchilikning g'alla saqlaydigan joyi yo'q albatta, ammo pomeschchik uchun sotilmagan g'allasini chiritib, xonavayron bo'lishdan ko'ra, yangi ombor qurib, sotilgan g'allani saqlash foydaliroq, menimcha, shunday qilsa bo'ladi. Siz nima deysiz?

Dizma hang-mang bo'lib qoldi.

"Bu qari tullakning xo'p kallasi bor-da!" - deya dilidan o'tkazdi u ajablanib va yolg'ondan yo'tala boshladi.

- Biz bu haqdayam gaplashgan edik, - dedi u so'ngra har ehtimolga qarshi. - Ehtimol shunday qilarmiz ham.

Kunitskiy o'z fikrini kengaytirib, davom eta boshlagan edi, Nikodim birona ham so'zni unutmaslikka harakat qilib, diqqat bilan quloq soldi. Shu payt xizmatkor paydo bo'ldi.

- Pan janobi oliylarini telefonga chaqirishyapti. Yangi taxta tilish zavodingizda uzatma qayish chiqib ketib, qandaydir falokat sodir bo'lipti.

- Nima? Nima deding? Tezroq avtomobilni chaqir! Kechirasiz!

Shunday deya Kunitskiy xonadan yugurib chiqib ketdi. Ular ikkovlari o'tirib ovqatlanishdi.

- Siz ko'zga ko'rmngan ekonomist ekansiz, - dedi Nina ko'zini dasturxonadan uzmay. - Chet elda o'qiganmisiz?

- Ha, Odsfordda, - deb darrov javob berdp Nikodim.

Ninaning yuziga qon yugurdi.

- Oksfordda deysizmi? - Siz... Siz... u yerda Ponimirskiyni tanimasidingiz?..

Nikodim qovun tushirib qo'rganini faqat endi tushundi: axir Nina istagan paytida akasidan so'rab, uning misini chiqarishi mumkir edi-da. Lekin yolg'on gapirishdan bo'lak chora qolmagandi.

- Tanirdim, albatta. U mening yaxshi oshnam edi.

Nina jim bo'lib qoldi.

- Uning boshiga qanday baxtsizlik tushganidan xabaringiz yo'qmi? - deya so'radi u bir oz sukut qilib turgach.

- Yo'q.

- U qandaydir og'ir asabiy kasallikka chalingan. U juda rasvo ishlar qildi: ko'p ichardi, tinmay to'polon qilardi. Oxiri aqldan ozdi. Bechora Jorj!.. Ikki yil jinnixonada yotdi. Uni bir oz davolashdi. Endi tutqanog'i tutmaydi, lekin, afsus, butunlay tuzalib ketmadi. Bechora Jorj. Uni deb qanchalar iztirob chekkanimni bilsangiz edi... Buning ustiga kasali zo'riqqanidan so'ng u meni yoqtirmaydigan bo'lib qoldi. Ilgari biz bir-birimizni juda yaxshi ko'rardik. Bilasizmi, Jorj shu yerda, Koborovoda...

- Rostdan-a?

- Ha, u parkdagi pavil'onda yashaydi. Yonida doim sanitar yuradi. Siz uni uchratmaganligingizning boisi bor. Vrachlar uiga odamlar bilan muomalada bo'lishii taqiqlab qo'yishgan: bu narsa unga yomon ta'sir qilar ekan. Lekin kim bilsin, balki, eski do'sti bilan uchrashsa zarar qilmas. U bilan munosabatingiz yaxshi edimi?

- Bo'lmasam-chi.

Nina buni eshitib, xursand bo'lib ketdi. Juvon ularni bir-biri bilan uchrashtirish fikriga yopishib oldi va bu gaplarni Kunitskiydan sir tutishni iltimos qilib, tushlikdan so'ng pavil'onga borajaklarini aytdi. Nikodim avvaliga chap berishta urinib ko'rdi, biroq keyin shubha tug'dirishdan cho'chib, rozi bo'ldi.

Parkda, daraxtlar orasida Nina uning bo'ynidan quchib, pinjiga tiqildi. Nikodim istar-istamas uni ikki marta o'pdi. U yosh graf bilan uchrashganida chuvi chiqishidan xavfsirayotgan edi.

Nina Nikodimning qo'ltig'idan oldi.

- Siz yonimda bo'lganingizda o'zimni juda yaxshi his etaman, - deya gap boshladi u. - G'oyat osoyishta sezaman o'zimni... Ayol kishi pechakka o'xshaydi... U yer bag'irlab o'saveradi, lekin yo'lida biron daraxt tanasini uchratan zahoti unga chirmashib, quyosh sari bo'y cho'zadi...

Dizma, bu juda o'tkir o'xshatish ekan, uni eslab qolish lozim, deya dilidan o'tkazdi.

Pavil'on Uyg'onish davri uslubida qurilgan kichkina villa ekan. Uning atrofida yovvoyi uzum o'sgan bo'lib, novdalar orasidan orachora oppoq devor ko'rinib turardi. Villa oldidagi maysazar o'rtasiga buklama kreslo qo'yilgan bo'lib, unda graf mudrab o'tirardi.

Ularni xuddi odamning yo'talishiga o'xshash g'alati kovillagan laycha kutib oldi.

Ponimirskiy erinchoqlik bilan boshini o'girdi-da, oftobdan ko'zini qisganicha birpas yaqinlashib kelayotgan Nikodim bilai Ninaga tikilib turdi. So'ng o'rnidan sapchib turib, kostyumini to'g'riladi va monoklini ko'ziga qistirdi.

- Salom, Jorj, - deya unga qo'lini cho'zdi Nina, - Oldinga Oksfordda birga o'qigan oshnangni boshlab keldim. Taniyapsanmi? Ponimirskiy ularga ishonqiramay qarab qo'ydi-da, so'ng shoshilmaygina singlisining qo'lini o'pdi. Uning basharasidan kirdikori ochilib qolishidan cho'chiyotganligi sezilib turardi. Keyin u xo'mrayganicha Dizmaga qo'l uzatdi.

- Taniyapman, albatta. Meni ko'rgani kelganingizdan xursandman, kasbdosh.

So'ngra u shartta singlisi tomon o'girildi.

- Kechirasanu, lekin bizni yolg'iz qoldirolmaysanmi? Uzoq ayriqliqdan so'ng gaplashadigan gapimiz ko'p. Balki, sen shu yerda o'tirib tursang, biz aylanib kelarmiz?

Nina e'tiroz bildirmadi. U Nikodimga ma'nodor qarab qo'ydi-da, pavil'on ichiga kirib ketdi.

Ponimirskiy atrofga alanglab, Dizmani nariroqdagi xiyobonga boshladi.

- Bu nimasi? - deya jahl bilan so'radi u bashorat barmog'ini Nikodimning ko'ksiga niqtab, - Ablah, sen meni Ninaga sotibsan-da? Ehtimol, bor gapni muttahaam Kunikka ham aytib bergandirsan?

- Xudo saqlasin, hech kimga hech nima aytganim yo'q.

- Seni Pshelenskaya xolamga, Oksford universitetida birga o'qigan oshnam, deb tanishtirganimni singlim qayoqdan bildi bo'lmasam?

- Buni u bilmaydi. Oksford masalasiga kelsak, o'sha yerda o'qiganman, deb o'zim aytdim. Gap kelib qolgan edi, og'zimdan chiqib ketdi.

- Sen muttahaamgina emas, ahmoq ham ekansan: axir inglizchadan baloniyam bilmaysan-ku?

- Ha, bilmayman.

Ponimirskiy kursiga o'tirib kulib yubordi. Laychasi uning kulgisini eshitib, egasining yuziga diqqat bilan tikilib qoldi.

- Xo'sh, Pshelenskaya xolam bilan anovi Kshepitskiy sizni qanday kutib olishdi? Oldilariga solib quvishmadim-i?

Dizma grafning yoniga o'tirmoqchi edi, biroq Ponimirskiy uni imo bilan to'xtatdi:

- Sizdaqa kishilarning huzurimda o'tirishlarini yoqtirmayman. Qani, lo'nda-lo'nda gapiring, lekin yolg'on ishlatmang.

Nikodim telba odam bilan gaplashayotganini bilsa-da, lekin negadir yuragi po'killardi. U ministrdan ham, generallardan ham, Varshavadagi bo'lak nufuzli amaldorlardan ham bunchalik cho'chimagan edi.

Dizma, Pshelenskaya uni yaxshi qabul qilgani, lekin xonim bilan Kshepitskiy hozir hech nima qilib bo'lmasligi sababli bu ishni bir necha yil qo'yib turish lozimligini aytishgani haqida hikoya qila boshladi.

U gapini tugatgach, Ponimirskiy pishillab so'radi:

- Jin ursin! Yolg'on gapirmayapsizmi?

- Yo'q.

- Bilasizmi, umrim bino bo'lib, shunday siyqa, ahmoqona hikoyani eshitmagandim. Biror maktabni tugatganmisiz o'zi?

Dizma indamay turaverdi.

- Ish masalasiga kelsak, undan voz kechadigan ahmoq emasman. Tez kunda yana xat yozaman, siz uni Varshavaga olib borasiz.

Xayr. Ketaverishingiz mumkin! Brut, bu yoqqa!

- Pani Nina-chi? - hayiqib eslatdi Dizma.

- Nina deysizmi?.. Ha, aytganday. Uni unutibman. U holda yuring, birga boramiz. Ninani olib ketasiz. U mening asabimga tegadi. Nina ularni xiyobon muyulishida kutib oldi.

- Xo'sh, yoshligingizni esladingizmi? - so'radi u jilmayib.

- Albatta, - javob qildi Dizma.

- Azizim, - dedi ensasi qotibgina Ponimirskiy monoklini to'g'rilar ekan, - yosh va badavlat bo'lgan paytimizdan qolgan o'sha xotiralar doim qalbimizni xushnud etadi. Shunday emasmi, qadrli kasbdosh?

Graf so'nggi so'zlarni ta'kidlab ayti-da, xaxolab kulib yubordi.

- Ha, albatta, kasbdosh, - deya tasdiqladi taraddudlanib Dizma. Buni eshitib, Ponimirskiyning yanada vaqti chog' bo'lib ketdi.

- Biz faqat Oksford va London haqida gaplashdik, - dedi u kulishda davom etib. - U yerda rosa sho'xlik qilardik-da, o'ziyam.

Oradan shuncha yil o'tgach, sof ingliz nutqini eshitish menga qanchalik lazzat bag'ishlaganini tasavvur ham qilolmaysan, jonginam...

U barmoqlarining uchini Nikodimning yelkasiga tekkizib so'radi:

- Isn't it? Old boy?

Dizmaning chakka tomirlari o'ynab ketdi. U o'ylana-o'ylana, - xudoga ming qatla shukur! - nihoyat ba'zan notarius Vinderning o'g'li Liskov kiborlari orasida ishlatadigan yagona inglizcha so'zni esladi:

- Yes!

Bu javobdan Ponimirskiyning boshi osmonga yetdi. Shu payt Nina Nikodimning sarosimaga tushganini sezib, qaytish vaqti bo'lganini aytdi. Unga Nikodim do'stining ahvolini ko'rib ezilib ketgandek tuyuldi. Uning baxtiga, akasi Dizmani ortiq tutib turmadi va boshqa tentaklik qilmay xayrlasha qoldi.

- Boyoqish Jorj! U juda o'zgarib ketibdimi? - deya so'radi Nina ular xiyobondan ketishar ekan.
- Yo'q, unchalik emas. Ehtimol, hali tuzalib ketar...
- Qoshkiydi... uning kasali sizga qanday yomon ta'sir qilganini sezdim. Sizni uni oldiga boshlab borib bekor qildim shekilli.
- Nega endi?
- Bilasizmi, pan Nikodim, yaxshisi, uning oldiga boshqa bormang... balki, bu narsa unga zarar qilar. Vrachlar, odamlar bilan uchrashsa; asabiylashadi, shu boisdan hayajonlanmagani ma'qul, deyishgan edi.
- Siz nimani istasangiz, shu-da.
- Men hech pnmani istamayman, - deya Nikodimning yelkasiga suykaldi Nina. - Sizga aytdim-qo'ydim. Siz esa, imonim komilki, qanday yo'l ma'qul bo'lsa, shunday yo'l tutasiz.
So'ngra u o'z qalbida gul ochgan bahor haqida, hozirgi voqeadan ko'z yumib, uni tezda unutiladigan qisqa tush deb hisoblash lozimligi to'g'risida gap ochdi. Shundan keyin Dizmadan o'z fikriga qo'shilishni talab qildi. Nikodim ham o'ylab o'tirmay uning gapiga qo'shilib qo'ya qoldi.

9-bob

Kunlar ketidan kunlar bir zaylda o'tib borardi, Koborovoda o'rmashib olgan Dizma xuddi o'z uyidagidek yallo qilib yurardi. To'g'ri, u Ninaning eridan ajralmaguncha unga sodiq qolajagini aytib sarkashlik qilishidan bir oz xafa edi. Biroq Nikodim bundan aziyat chekmasdi. Dizma bir narsaga jon-jahdi bilan yopishish u yoqda tursin, hatto hafsalasiz bir odam edi. Dizmaning ishtahasi yaxshi bo'lib, har kuni to'yib uxlardi. U kunlarini bekorchilikda o'tkazar va bundan dimog'i chog' bo'lib, ancha to'lishgan, tez-tez tevarak-atrofdan sayr qilib yurganidan oftobda qoraygan edi. Avvaliga u ot minib yurdi, ammo otda silkinib yurish joniga tekkach, piyoda sayr qila boshladi. U yana bir bor taxta tilish zavodi, qog'oz fabrikasi va tegirmonga borib, xo'jalikni ko'zdan kechirib chiqdi. U o'zi qiziqqan barcha narsalarni xizmatchilardan bilib olardi; ular Dizmaning kichkina odam emasligini yaxshi bilganlaridai uni ko'rishgan zahoti boshdaridan shapkalarini olib ta'zim qilishardi. Dizmani hamma izzat-hurmat qilardi, siylardi.

Uiing tinchligini faqat Kasyagina buzib turardi.

To'g'ri, Nikodimdan ham ko'proq Ninaning jig'iga tegish uchun janjal chiqarardi. Bir kuni nonushta mahali u Dizmaning har bir so'zini masxara qilaverib haddidan oshgan edi, Nikodim chidab turlolmay to'ng'illadp:

- Siz knm bilan gaplashayotganingizni unutib qo'yayapsiz!

- Menga barnbir, - deya yelkasini qisdi Kasya. - Axir siz Eron shohi emassiz-ku. yoki mania grandiosa ga muftalo bo'lganmisiz? Dizma qiziing gapini tushunmadi-yu, biroq Niianing yuzi o'zgarib ketganligidan, buning haqorat ekanini payqadi. U qip-qizarib, bor kuchi bilan stolga musht tushirdi.

- O'chir ovozingni, mishiqi! - deya o'shqirdi u.

Stol ustidagi idish-tozoqlar jaranglab, ikkala xonim taxta bo'lib qoldi.

Bir zumdan so'ng dokaday oqarib ketgan Kasya chapchib o'rnidan turdi-da, xonadan yugurib chiqib ketdi. Nina bir og'iz ham gapirmadi, lekin uning yuzidan ham qo'rqqani, ham ma'qullagani sezilib turardi.

Bu keskin chora vaqtincha o'z kuchini ko'rsatdi. Shu kundan boshlab Kasya Nikodimga piching qilmay qo'ydi, biroq uning ko'zlarida doim nafrat uchqunlanib turardi. Bu uchqun kundan-kun kuchayib bir kun emas, bir kun alangaga aylanishi muqarrar edi.

Yakshanba kunlaridan birida, ertalab ularning ikkovi ham kutmagan bir paytda shu alanga gurilladi.

Kunitskiy o'z kabinetida lshlab o'tirardi. Nina kostelga ibodat qilgani ketgan edi. Nikodim uning buduari da o'rnashib olib, fotosuratlar yopishtirilgan al'bomni tomosha qila boshladi.

Shu payt buduarga Kasya kirib qoldi. U bir qarashdayoq Nikodim uning ataylab Nina uchun olgan rasmlari qo'yilgan al'bomni ushlab o'tirganini nayqadi.

- Bering bu yoqqa, bu mening suratlarim! - deya qichqirdi u va al'bomni tortib olmoqchi bo'ldi.

- Sekinroq gapirishning iloji yo'qmi?! - dedi jerkib Dizma.

Chiqib ketmoqchi bo'lib turgan Kasya Nikodimning gapini eshitib, taqqa to'xtadi. U Dizma tomon o'girildi-da, bir zum indamay turdi. Qizning vajohatini ko'rib Nikodim, hozir ura boshlasa kerak, deb o'yladi va hatto qo'llari bilan yuzini yashirmoqchi ham bo'ldi. Shu bilan birga u bu qaltirab turgan qizni mahkam quchoqlab, uning yonib turgan ko'zlaridan, titrayotgan lablaridan o'pmoqchi ham bo'ldi. Biroq shu payt bu lablardan uzib, o'yib oluvchi zaharli so'zlar otilib chiqa boshladi:

- Bu razillik! Razillik! Siz ablah ekansiz! Uning nomusini bulg'absiz! Siz otamning oilasiga suv ilondek kirib, keyin xotinini yo'ldan urdingiz. Agar darhol bu yerdan jo'namasangiz, men sizni qamchi bilan itdek savalayman. Sizning jamiyatdagi mavqeingiz, aloqalaringizga tupurdim! Tushundingizmi? Ehtimol, bu narsalar otamga yoqar, lekin menga emas! Yaxshilikcha, tezroq jo'nang bu yerdan!

Kasya borgan sayin qattiqroq baqirardi. Uydagi barcha xonalarning eshigi ochiq bo'lib, chamasi, uning tovushi Kunitskiyning ham qulog'iga yetib borgan edi. G'azabdan o'zini yo'qotib qo'ygan Kasya uning tez-tez tashlangan mayda qadamlarini eshitmay qoldi. Ko'rinishidan juda xotirjam bo'lgan bu qizning bunday jo'sh-xurujga kelishidan dovdirab qolgan Nikodim ham cholning qanday yetib kelganini payqamadi.

- Kasya, marhamat qilib, bu yerdan chiqib ket, - dedi u sekingina.

Qosya joyidan qo'zg'almay turaverdi.

- Chkqib ket deyapman senga, - deya takrorladi chol yanada pastroq tovush bilan, - kabinetimga borgin-da, meni kutib tur.

Qunitskiy xotirjamlik bilan gapirar, biroq uning' so'zlarida qandaydir e'tiroz bildirib bo'lmaydigan kuch sezilardi. Kasya yelkasini qisdi-yu, lekin buyruqii bajarishga majbur bo'ldi.

- Nima gap o'zi? - so'radi Kunitskiy Dizmadan.

- Nima gap o'zi? - xuddi aks sadoday takrorladi Dizma. - Qizingiz menga uyingizdan jo'nab qolishni buyurdi, eng yomon so'zlar bilan hakorat qildi. U mendan nima istayapti, buni bir xudoning o'zi biladi, lekin meni haydasanglar, men ketaman, ammo qaytib kelmayman. Anovi... yog'och, shpallaringiz esa... Ulardan umidingizni uzishingiz mumkin, chunki men...

Kunitskiy uning qo'lidan ushladi.

- Pan Nikodim, qizim uchun meni kechiring. Hammasini unuting. Shu bugunoq Kasya chet elga jo'naydi. Shu yetarlimi sizga?

- Yetarlimi... Bekordan bekorga haqorat qilgani-chi?

- Sizga so'z beraman, azizim pan Nikodim, shu bugunoq uni uydan quvib chiqaraman.

Chol ichida zardasi qaynagani sari, sirtida xotirjamroq ko'rinardi. Qunitskiy Dizmaga qo'lini uzatib, so'radi:

- Demak, yarashdik-a?

Nikodim ham uning qo'lini qisib qo'ydi.

Kasya o'sha kuni kechqurunoq jo'nab ketdi. Otasi kabinet eshigini yopib, u bilan nima haqda gaplashganini hech kim bilmadi.

Kunitskiy ham, qizi ham bu haqda hech kimga og'iz ochishmadi. Kasya hatto Nina bilan ham xayrlashmay jo'nadi. U

Koborovodan jo'nashdan avval gaplashgan yagona odam xonimlarning garderobiga qarab yuradigan yoshgina oqsoch qiz Irenka bo'ldi. Biroq u ham, Kasya juda darg'azab edi, u seni Shveysariyaga chaqirtirib olaman deya va'da qildi, bo'lak hech nimadan xabarim yo'q dedi.

O'sha sermashmasha yakshanbadan so'ng Nikodim Dizmaning osoyishtaligini hech nima buzmadi. Kunitskiy o'lib-tirilib uning ko'nglini olishga harakat qilardi. Nina Kasyani sira eslamasdi. U ham endi o'zini ancha yengil va xotirjam seza boshlagan edi.

Ular Nikodim bilan birga avtomobilda sayr qilishar, qayiqda suzishardi. Biroq Nina sira bo'sh kelmasdi, ularning oshiq-ma'shuqligi quruq suhbat, to'g'rirog'i, juvonning monologi-yu, bir lahzalik bo'salardan nborat bo'lib qolardi. Nikodimning barcha urinishlari zoye ketardi.

U bunday o'jarlikning sababini sira tushunolmasdi. Xizmatkorlardan Ninaning to'y kunidan boshlaboq har kuni eshigini qulflab yotishini eshitgach, u battar ajablandi. Buni unga xabar qilgan xizmatkor hatto, xo'jayin, chamasi, qiziga sovg'a qilish uchungina grafinyaga o'ylangan bo'lsalar kerak, deya Kunitskiyni mazah qilishga ham borib yetdi. Bu gaplarning bari Dizmaga juda sirli bo'lib tuyulardi. U bir kun emas, bkr kun, o'rni kelganida Ninani qisti-bastiga olib, undan bor haqiqatni surishtirib bilishga ahd qilib qo'ydi. Hozircha esa u asta-sekin juvondan turli ma'lumotlarni o'smoqchilab so'rab yurdi. Erining ishlari xaqida gap ochilganida, Nina ulardan mutlaqo behabarligini sezdirib qo'yardi.

- Darvoqe, bu bilan mening ishim yo'q, - derdi u nuqul, - bu erkaklarning ishi.

U faqat bir narsani - bu yerda o'zining hech narsasi yo'qligini bilardi, bundan buyon ularning kelajagi faqat Dizmaga bog'liq bo'lib qolganini takrorlardi. Bu gapdan Nikodim ancha tashvishga tushib qoldi, chunki u Ninaning ehtiyojlarini qondira olish darajasida boylik orttirishga sira ham umid qilmasdi.

Ochig'ini aytganda, u uylanishga ham uncha harakat qilmasdi. To'g'ri, Nina unga juda yoqardi. Axir u haqiqiy xonim bo'lib, kimsan, grafinya Ponimirskeya edi-da... Biroq Nikodim ishlarining kelajakda ham shunday muvaffaqiyatli ketaverishiga ishonmagani kabi, unga uylanishiga ham ko'zi yetmasdi.

Lekin u Ninaning sevgisiga sira shubhalanmasdi. Juvon har bir harakati, har bir nigohi va har bir so'zida unga bo'lgan sevgisini izhor etardi.

Kunitskiy esa, Dizmaning fahmlashicha, ishga juda berilgani va xotini bilan kam gaplashgani sababli buni sezmasdi. Darvoqe, ularga birgalashib sayr qilishni uning o'zi maslahat bergandi.

Bir kuni ana shunday sayrdan so'ng vestibyulda Nikodimga telegramma uzatishdi. Dizma bu Yashunskiydan ekanligiga imoni komil edi..Biroq qisqagina tekst ostidagi "Terkovskiy" imzosini ko'rib, u qattiq hayratga tushdi.

Nikodim telegrammani o'qir ekan, Nina uning yelkasidan qog'ozga ko'z yugurtirardi.

Telegrammada qo'yidagilar yozilgan ekan.

"Ministrlar Sovetining raisi ertaga, juma kuni, kech soat yettida, o'zingizga ma'lum ish bo'yicha, Ministrlar Sovetining iqtisodiy komiteti majlisiga yetib kelishingizni iltimos qiladi.

Terkovskiy".

Shu payt Kunitskiy kelib qolgan edi. Dizma unga telegrammani uzatdi. Chol uni bir zumda o'qib chiqdi-da, juda hayratlanib, xitob qildi.

- Qoyil! G'alla haqida bo'lsa kerak?

- Ha, - deya tasdiqladi Nikodim.

- Demak, ish yurishib ketibdi-da?

- Ko'rib turibsiz-ku.

- Yo qudratingdan, - dedi qo'llarini yozib Kunitskiy, - yo qudratingdan! Bu aloqalaringiz bilan odamlarga qanchadan-qancha yaxshiliklar qilishingiz mumkin, azizim pan Nikodim!

- Ha, - deya jilmaydi Nina, - agar bu yaxshilik jamiyat manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, agar o'sha jamiyat ehtiyojlari to'g'ri hisobga olinsa, albatta, foydasi katta.

- Meni kechiru jonginam, - e'tiroz bildirdi Kunitskiy, - faqat jamiyatgagina emas... Ayrim kishilarga yordam berish mumkin emasmi axir? He-he... Iqtisodiy komitetga temir yo'l ministri ham a'zo bo'lsa kerak, albatta. O'rni kelib qolsa, u bilan shpallar haqida gaplashishingiz mumkin. A, labbay?

Nikodim qo'llarini cho'ntagiga tiqib, qovog'ini soldi.

- Men boshqa safar gaplashsak degan edim: noqulay axir.

- Nimayam derdim!.. Qistamayman. O'zingiz bilasiz. Shunchaki eslatdim-qo'ydim-da, chunki shpal yetkazib berish hazilakam ish emas, uni unutib bo'lmaydi, xe-xe!

Tushki ovqatni yeb bo'lishgani zahoti Kunitskiy Nikodimni o'z kabinetiga surgab kirdi-da, bo'lajak ishning tafsilotlari haqida uzundan-uzoq leksiya boshlab yubordi. Nikodim unga yana sud protsessi haqida eslatgan edi, chol o'rnidan sapchib turib, cho'ntagidan kalitlarini oldi.

- Hozir hujjatlarni ko'rsataman. O'ylashimcha, mening aybsizligimni isbotlash uchun shuning o'zi ham kifoya qilsa kerak.

U og'ir duxoba pardani bir chetga surgan edi, Dizmaning ko'zi katta po'lat sandiqqa tushdi. Kunitskiy sandiq eshikchasini shosha-pisha ochdi-da, u yerdan yashil papka chiqarib, dasta-dasta kvitansiyalar, blankalar va mashinkada yozilgan qog'ozlarni olib ko'rsatdi. Chol ba'zi narsalarni o'zi o'qib berar, ba'zi qog'ozlarni esa Dizmaga uzatardi. Shunda Nikodim go'yo hujjatlarni diqqat bilan o'qiyotgandek, ularga ko'z yugurtira boshlardi.

U Kunitskiyniig oldidan faqat kechqurun qutulib chiqdi. Nina uni ayvonda kutib turgan ekan. Ular sayr qilgani jo'nashdi. Nina g'amgin va ma'yus edi. Nikodimning kutilmaganda jo'nab ketishi ularning tinch va osoyishta hayotiii buzib yuborib, ayol qalbiga cheksiz qayg'u solgan edi. Daraxtlar soyasiga kirishgach, Nina uning pinjiga kirib shivirladi:

- Jonim, Varshavaga anchaga ketyapsanmi? Nina sensiz juda zerikib qoladi. Nima qilay - senga juda o'rganib qolibman, bu yerda seni har kuni ko'rishim, sen bilan gaplashishim, ko'zlaringga tikilishim mumkin...

Nikodim tezda qaytishini, u yerda bir-ikki kundan ortiq turmasligini aytib, uni yupata boshladi.

Kechki ovqat paytida Nina juda ochilib o'tirdi: Kunitskiy unga qadrlı pan Nikodimni stansiyagacha birga kuzatib qo'yishni taklif qilgandi. Bu gal Dizma poyezdda ketadigan bo'ldi, chunki mashina remontga muhtoj edi.

Nina hayajondan titrab turardi. To'g'ri, u Nikodim bilan o'zi istagancha xayrlasha olmasdi, biroq uning ko'zlari eng ehtirosli bo'salardan ham ko'proq narsalarni aytib turardi.

Birinchi klass kupesida Dizma yolg'iz o'zi ketdi. Kunitskiy provodnikka choychaqa berib, juda katta odam, ministrnlarning shaxsiy do'sti pan Dizmani bezovta qilishning hojati yo'q, deya bu kupega boshqa hech kimni kiritmaslikni buyurgan edi.

Ular molday ichishdi. Nikodimni mehmonxonaga g'irt mast holda olib kelib, nomerga ko'tarib kirishdi.

Bunday ichishlarining sababi bor edi, albatta. Hatto endi, rosa uxlab, kayfi tarqalganidan keyin ham u kecha miyasiga o'rnashib qolgan g'aroyib voqealar taassurotidan o'ziga kelmagan edi.

Masalan, katta zaldagi majlisni olaylik. Dizma u yerda bosh ministr va ministrlar bilan yonma-yon o'tirdi.

Qandaydir raqamlar keltirib, qandaydir hisobotlarni o'qishdi. Keyin esa he-he, qo'yaverasiz! Barcha uning qo'lini qisib, g'alla sotib olish haqidagi Kunitskiyning gaplarini takrorlagani uchun minnatdorchilik bildira boshladi... Ular buni nima deb atashdi-ya? E-ha, lombard! Qiziq. Shu paytgacha Nikodim lombard deganda - soati yoki kostyumini garovga qo'yishni tushunardi... Keyin esa bosh ministr shunday deb savol berdi:

- Muhtaram pan Dizma davlatimizda g'alla siyosatiga rahbarlik qilishni o'z zimmangizga ololmaysizmi?

Avvaliga u, bu ishni uddalay ololmasam kerak, deya bosh ministrning taklifini rad qildi. Biroq boshqa ministrlar uni ko'ndirishga urinavergach, Nikodim noiloj rozi bo'ldi.

U xaxolab kulib yubordi.

- Obbo shayton-ey! Odam o'saversa shunaqa bo'lar ekan-da! Davlat g'alla bankasining raisi! Kimsan, rais-a!

So'ngra u o'zini savollarga ko'mib tashlagan jurnalistlar va fotoapparatlarning tinimsiz chiq-chiqini esladi. E-ha, bir o'qib ko'rish kerak, qani, nimalar yozishganiykin?

Nikodim qo'ng'iroq qilib, koridor navbatchisiga barcha gazetalardan sotib olib kelishni buyurdi. Keyin turib kiyindi. Gazetalarni keltirishgach, u birinchisini ochgan zahoti yuziga qon yugurdi.

Birinchi sahifada uning surati manaman deb turardi.

Nikodim suratda qo'llarini cho'ntagiga tiqqanicha xayolga cho'mib turardi. Suratda u juda salobatli ko'rinardi. Suratning tagiga:

"Yangi agrar siyosatning tashabbuskori d-r Nikodim Dizma hukumatdan Davlat g'alla bankasini tashkil etish haqida topshiriq oldi; u shu bankaning pravleniyasiga rais qilib tayinlandi", - deb yozib qo'yilgandi.

Suratning yonida, vahimali sarlavha tagida katta maqola bosilgan bo'lib, maqolada hukumatning rasmiy bayonoti, Dizmaning tarjimai holi va interv'yu berilgan edi.

Bayonotda Ministrlar Soveti Yashunskiyning taklifiga binoan g'alla bozorida keskin choralar ko'rish yo'li bilan iqtisodiy krizisga qarshi kurash boshlashni qaror qilgani to'g'risida gapirilgan edi. So'ngrda loyiha mufassal bayon etilib, kerakli ko'rsatmalar to'g'risida axborot berilgandi. Qonun seym tomonidan qabul qilingach, kerakli ko'rsatmalar kuchga kirishi xabar qilingandi.

Dizma o'zining tarjiman holini o'qib og'zi ochilib qoldi. Gazetaning yozishicha, u ota-onasining Kurlyandiyadagi mulkida tug'ilgan bo'lib, gimnaziya Rigada, iqtisod fanlarining oliy kursini Oksfordda tugatgan ekan; so'ngra u kavaleriya ofitseri sifatida bol'sheviklarga qarshi mardona jang qilibdi, yarador bo'libdi va "Virtuti Militari" ordeni hamda Jasorat Kresti bilan mukofotlanibdi. So'nggi paytlarda u siyosat maydonidan ketib, Belostotskiy voyevodligida qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan ekan.

Tarjimai hol "ajoyib", "mashhur", "ijodiy" kabi epitetlarga to'lib ketgan edi... Oxirida rais Nikodim Dizmaning qattiq qo'l, kuchli iroda sohibi ekanligi va tashkilotchilik qobiliyati bilan mashhurligi qayd etilgandi.

Lekin Nikodimni hammasidan ham interv'yu hayratga soldi. U interv'yuni o'qirdi-yu, o'z ko'zlariga ishonmasdi. To'g'ri, u kecha kechqurun g'irt mast edi, ammo muxbirlar bilan suhbatlashganida hali ichmagan edi-ku. Nikodim, interv'yuda yozilgan gaplardan birontasini ham aytmagan edi. Unda Dizma o'lsayam tushunmaydigan iboralar, u zarracha ham tasavvur qilolmaydigan masalalar yuzasidan fikrlar bayon etilgandi.

Nikodim shunchaki so'kinib qo'ydi. Balki u xursand bo'lishi kerakdir: axir bu interv'yuni o'qigan kishi, banka pravleniyasining raisi pan Dizmani g'oyat aqlli odam ekan, deb o'ylasa kerak.

Deyarli barcha gazetalar taxminan bir xil gaplarni yozib, uning turli vaziyatlarda tushgan rasmlarini bosishgan edi. Hammasidan ham Nikodimga bosh ministr bilan ministr Yashunskiy o'rtasida o'tirib tushgan surati yoqdi. Unga yoqqan yana bir suratda

Nikodim boshiga shlyapasini qo'ndirib zinapoyadan tushib kelayotgani tasvirlangan edi. Suratda uning ortidan shlyapasini qo'lida to'tganicha oppoq mo'ylovli keksa bir janob ham tushib kelardi. Suratning tagiga:

"Nikodim Dizma o'zining bo'lajak yordamchisi, g'alla bankiga direktor qilib tayindangan sobiq moliya vitse-ministri Vladislav Vandrishvskiy hamrohligida Ministrlar Soveti saroyini tark etyapti", - deb yozilgan edi.

"Mana, - deya xayolidan o'tkazdi Dizma, - endi meni butun Pol'sha taniydi". U shuni o'yladi-yu, birdan qo'rqib ketdi. Gazetalar Liskovga yetib borgach, pan Bochek ham, Yurchak ham va umuman Nikodimni yaxshi taniydigan barcha kishilar Kurlyandiya, gimnaziya va Oksfrod haqidagi gaplarning hammasi g'irt yolg'onligini darhol bilib qolishadi-ku!

Jin ursin!

Ulardan birontasi gazetaga butun haqiqatni yozib yuborsa-ya?

Nikodimning eti jimirlab ketdi. U so'kina-so'kina xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi, so'ng yana gazetalarni bir bor ko'zdan kechirib chiqdi-da, sobiq tanishlarimning fosh qilishi ehtimoldan uzoq, degan qarorga keldi: uning martabasi, uniig aloqalarini ko'rib, jur'at etishmaydi. Faqat yumaloq xat yozishlari mumkin... Biroq imzosiz xatlarga jiddiy e'tibor berishmaydi. Shularni o'ylar ekan, Dizmaning ko'ngli bir oz joyiga tushdi. Ammo o'z qobiliyati to'g'risidagi gaplarni qayta-qayta o'qir ekan, birdan bu ishni uddalay olmasam-a? - deya shubhalanib qoldi.

Ishning katta qismini anovi Vandrishvskiy bajaradi deylik, ammo Dizma ham nimadir qilishi - gapirishi, hal etishi, imzo chekishi kerak-ku... O'zi mutlaqo tushunmaydigan ishlar bilan shug'ullanish! Faqat bir yo'li bor: bironta uddaburon odam topish kerak...

Koshkiydi Kunitskiy rozi bo'lsa! Rozi bo'lmaydi... Koborovodagi boshqaruvchilik ishidan ham voz kechishga to'g'ri keladi. Dizma Ninadan judo bo'lishini o'ylab ma'yus tortdi-yu, biroq darhol o'zini yupatdi.

"Nimayam qilardim: shunday bo'lgandan keyin, voz kechamiz-da. Axir dunyoda boshqa xotinlar ham bor-ku".

Hammasidan ham o'zining o'rniga ishlaydigan odamni topish qiyin. Agar shunday odam topilsa, uni o'ziga sekretar' qilib tayinlashi mumkin...

Nikodim birdan peshanasiga urdi:

- Kshepitskiy!

U quvonganidan hatto sakrab tushdi: Kshepitskiy o'taketgan tullak, tegirmondan butun chiqadi, yerning tagida ilon qimirlasa biladi. Unga pand berib bo'lmaydi, buning ustiga o'zimizning odam. U bilan kelishib olinsa bas, ikki kishining o'rniga bir o'zi ishlayveradi.

Bu fikrdan Dizma shunchalik xursand bo'ldiki, u darhol Kshepitskiy qidirib topishga jazm qildi.

Nikodim shosha-pisha kiyindi-da, chorak soat o'tar-o'tmas pani Pshelenskayanikiga yetib borib, eshik qo'ng'irog'ining tugmasini bosdi. Uyda bu mahal tushki ovqat tutay deb qolgan ekan. Kshepitskiy ham shu yerda ekan. Dizmani ozg'ingina sepkildor qiz - panna Xul'chinskaya bilan tanishtirishdi.

Ular biri olib, biri qo'yib Dizmani tabriklashdi. Papi Pshelenskaya uni pomeshchiklar xaloskori deb atasa, Kshepitskiy uni qishloq xo'jaligining Napoleoni derdi, panna Xul'chinskaya esa angrayganicha uning og'ziga tikilib o'tirardi.

Koborovo haqida gap ochilib, hammasi Dizmaning endi Jorj Ponimirskiyning ishi bilan shug'ullanishga vaqti yetishmasligidan xafa bo'lishdi.

- Buning ustiga, - deya gap qotdi Nikodim, - uning miyasi shu qadar aynib qolibdiki, baribir, hech nima qilib bo'lmaydi.

Zizya so'kinib qo'ydi, sepkildor qiz ma'yus tortdi, pani Pshelenskaya esa, noumid bo'lmaslik haqida gapirdi.

Nihoyat, Nikodim chashkadagi kofedan ho'plab, maqsadga ko'chdi:

- Men bu yerga bir taklif bilan kelgan edim. Pan Kshepitskiy, siz hozir biron joyda ishlaysizmi?

- Yo'q.

- Ishlashni istarmidingiz?

- Bo'lmasam-chi! - deya xitob qildi momiq qo'llari bilan chapak chalib Pshelenskaya.

- Bilasizmi, - davom etdi Nikodim, - menga sekretar' kerak. Banka pravleniyasi raisining sekretari bo'lish hazilakam ish emas. U aqlli, uddaburon odam bo'lishi lozim! U ish uchun javob berishi kerak. Tushunyapsizmi?

Kshepitskiy lablarini yalab, o'zini loqayd ko'rsatishga urindi.

- Minnatdorman, pan rais, bilmadim, uddalay olarmikinman. Keyin... hm.... ochig'ini aytay: chamasi, men chinovniklikka yaramasam kerak. Ishga vaqtida borish, har kuni erta turish... Meni kechirasiz.

Dizma Kshepitskiyning tizzasiga urib qo'ydi:

- Hechqisi yo'q! Qo'rqmang. Men qancha ishlasam, siz ham shuncha ishlaysiz. Rais doim qoqqan qoziqday bir joyda o'tiraveradi, deb o'ylamasangiz kerak axir? Buning uchun bizda direktor bor. Biz esa faqat eng muhim, eng muhim ishlar bilan shug'ullanamiz.

Qani, qo'liigizni bering!

Pshelenskaya juda xursand bo'lib ketdi. Hayajonlanganidan u Kshepitskiy "sen" lab, rozi bo'la qol, deb yalina boshladi.

Kshepitskiy jilmayib, Dizmaga qo'l uzatdi.

- Rahmat, pan rais. Lekin siz menga qanday maosh belgilamoqchi ekanligingizni bilishni istardim.

Nikodimga "pan rais" juda yoqib tushdi. U qo'llarini beliga tirab so'radi:

- Xo'sh, qancha istaysiz?

- Aytish qiyin...

- Tortinmasdan aytavering.

- O'zingizga havola qilaman, pan rais.

Dizma oq ko'ngillik bilan iljaydi.

- Pan rais pan sekretar' o'z maoshini o'zi belgilashi kerak, deb hisoblaydi.

Hammalari muloyimgina kulib qo'yishdi.

- Ey xudoyim-ey, menimcha, biror ming zlotiy bo'lsa... - deya gap boshladi Pshelenskaya.

- Bir ming ikki yuz! - d.edi shoshilib Kshepitskiy.

- Nima? Bir mnng ikki yuz? Men sizga bir ming besh yuz beraman.

Dizma shunday dedi-da, ularga kerilib ko'z yugurtirib chiqdi. Kshepitskiy stuldan sapchib turib, ta'zim qilganicha pan raisga minnatdorchilik bildira boshladi.

Pshelenskaya bu ishni yuvish kerak deb, xizmatkorga bir shisha shampanskoye keltirishni buyurdi.

- Xo'sh, Kshepitskiy, - dedi Dizma qadahni ko'tarib, - faqat bitta shartim bor: bir-birimizga kafil bo'lishimiz kerak. Tushunarlimi?

Bu doim bir-birimizni yoqlaymiz degani bo'ladi. Ikkovimiz oramizda bo'ladigan maslahatlar birovga aytilmasligi kerak.

- Tushunaman, pan rais.

- Men esa, o'z navbatimda, agar ishingizdan mamnun bo'lsam, har bayramda ikki-uch ming zlotiy mukofot berishni va'da qilaman.

Kshepitskiy Dizmani mehmonxonaga kuzatib qo'ydi. Yo'lda ular banka haqida gaplashdi. Nikodim ertagayoq Kshepitskiy Vandrishovski bilan tanishtiradigan bo'ldi.

- Vaqtim juda ziq - yana ba'zi ishlarni hal qilishim kerak. Shu boisdan kelishib olaylik: tashkiliy ishlar bilan Vandrishovski shug'ullanadi, U menga emas, sizga hisobot beradi. Tushunyapsizmi? Siz esa uning gaplarini menga aytib, men bilan maslahatlashasiz va mening buyruqlarimni unga yetkazib turasiz.

- Shunday qilsak yaxshi bo'ladi, - deya shosha-pisha unng fikriga qo'shildi Kshepitskiy.

- Boshqarish san'ati, pan Kshepitskiy, masalani tez hal qilishdan iborat. Shuni yodingizda tuting.

Mehmonxonada Dizmani Ulyanitskiy kutib turgan ekan. U guldiragan ovozda do'sti bilan salomlashdi.

- Bilasanmi, Nikus', kechagi ichkilikdan haliyam boshim g'uwillab turibdi. Xo'sh, qalaysan? Tashrif buyurdingmi?

- Qanaqa tashrif?

- Lozim bo'lgan joylarga-da. Bosh ministrnikiga, Yashunskiy, Brojinskiy va yana ba'zi birovlarinikiga... Terkovskiyning oldiga bormasang kerak, albatta? Unday desam, Terkovskiy sendan xafa emas shekilli.

- Seningcha, borish shartmi?

- Bo'lmasam-chi!

- Hm... - deya to'ng'illadi sarosimaga tushib Dizma. - Bilasanmi, bir o'zim... Agar sen men bilan borganingda edi.

- Bo'пти, boraveramiz.

Ular kerakli odamlarnikiga ertaga borishga kelishib olishdi, chunki bugun kechqurun ikkovi ham bankaning ochilish muhlati belgilanishi va bo'lak rasmiy masalalar muhokama qilinishi lozim bo'lgan majlisda ishtirok etishlari kerak edi.

Oradan ikki hafta o'tmasdanoq tashkiliy ishlar juda yurishib ketdi. Banka uchun Vspul'naya ko'chasidagi yangi bir imoratni ajratib berishdi. Bu imoratning ikki qavatida bankaning o'zi bilan raisning sakkiz xonali kvartirasi joylashgan edi.

To'g'ri, qonun hali seym komissiyalarida ishlab chiqilayotgandi, biroq ikkala palata ham hukumat loyihasini so'zsiz tasdiqlashiga hech qanday shubha yo'q edi.

Bularning hammasi Dizmani uncha tashvishga solmasdi, chunki barcha ishlarni Vandrishevskiy bilan Kshepitskiy bajarishmoqda edi.

Kshepitskiy bahosi yo'q xodim chiqib qoldi. U yengini shimarib ishga kirishib ketdi, zehni o'tkir odam sifatida hammaga o'z aytganini qildiradi boshladi. Har gal u bir jumlani aytib, qat'iy ohangda:

- Pan rais shuni istayaptilar, - derdi.

Avvaliga V.andrishevskiy hamda Kshepitskiyning har bir ishga tumshug'ini tiqaverganidan norozi bo'lgan boshqa amaldorlar Dizmadan, chindan ham sizning fikringiz shunaqami, deya so'rab-surishtirishdi. Ammo Dizma ko'pincha gap nima haqida borayotganini tushunmasa-da, har gal:

- Rost, Kshepitskiy shunday degan ekan, demak, men shunday qilinglar, deb aytgan bo'laman - ortiqcha so'rab-surishtirishga hojat yo'q, - deya bir xil javob qilardi.

Shu boisdan ham xodimlarning bari tez orada Kshepitskiyning xiraligiga ko'nikib ketishdi. Darvoqe, bu odam tezda rais bilan do'stlashib ketdi. U har kuni Dizma bilan gaplashar ekan, tezda xo'jayinining zaif tomonlarini bilib oldi va bundan shu qadar ustalik bilan foydalandiki, Nikodim endi usiz biror ish qilolmaydigan bo'lib qoldi. Lekin shunga qaramay Dizma Kshepitskiy bilan doim ehtiyot bo'lib gaplashardi. Nikodimning kundan-kun obro'si oshib, yuqori doiralarda tanish-bilishlari ko'payib borardi. Kshepitskiy Dizmani qandaydir sehrli bir kuchga ega, g'oyat dono odam, deb o'ylar va shuning uchun undan bir oz cho'chib yurar edi.

To'g'ri, Kshepitskiy ba'zan Nikodimning aqli xiralashib qolib, juda oson masalalarni ham tushunolmasligidan hayratga tushardi. Biroq keyin sekretar', xodimlari biror nayrang ishlatgudek bo'lsa, ularni osongina fosh qilish uchun rais o'zini jo'rttaga go'llikka solyapti; degan fikrga keldi. Boz ustiga Kshepitskiy taqdiri Dizmaning qo'lidaligini, agar u ishdan ketgudek bo'lsa, o'zining ham omon qolmasligini, boshlig'ining obro'sini oshirish o'zi uchun foydali ekanligini yaxshi tushunardi. Shu boisdan ham u Dizmani ulug' odam sifatida ko'rsatishga, uning shuhratini oshirishga qo'lidan kelgan hamma ishni qildi. Bu esa, o'z navbatida, Nikodimning niyatiga juda mos tushardi.

Dizma so'nggi paytlarda o'ziga ko'rsatilayotgan izzat-ehtiromlarni ko'rib, nimalarga qodir ekanligini shu paytgacha bilmay yurganiga ishonib qoldi. Biroq u ehtiyotkorligini qo'ymadi. U aqli o'tkir emasligini, odamlar oldida o'zini tuta bilmasligini, ma'lumotining juda pastligini yaxshi sezardi. Nikodim faqat Kshepitskiy bilan erkin gaplashardi, biroq uning oldida ham o'zini sirli qilib ko'rsatishga harakat qilardi.

Ko'p o'tmay u butun Pol'shada eng kamgap odam sifatida shuhrat qozondi. Ba'zilar buni inglizlarning ta'siri deyishsa, boshqalar, bir kuni bosh ministrnikidagi qabul marosimida xonimlaruni gapga solishmoqchi bo'lishganida, Dizma:

- Mening gapiradigan gapim yo'q, - deya javob qilganini eslashardi.

To'g'ri-da, ko'p o'ylaydigan odam, odatda kam gapiradi.

Garchi Nikodim sir boy bermasa-da, u kiborlarning rasm-rusmini bilmasligi, ko'p so'zlarni tushunmasligidan juda siqilardi. Shu boisdan u kamchiliklarini tuzatishga ahd qildi.

Shu maqsadda Nikodim Sventokshiskaya ko'chasidagi kitob magazinlaridan biriga kirib, "Xorijiy so'zlar lug'ati", "Ensiklopediya" va "Bonton" jildlarini sotib oldi.

Unga ayniqsa "Bonton" asqatdi. Birinchi kuniyoq bu kitob yordamida u Ulyanitskiyning nima sababdai bosh ministrning pochta qutisiga bir emas, ikkita tashrifnoma tashlashni buyurganini tushunib oldi.

"Lug'atdan" esa u muntazam foydalanardi. U o'zi tushunmagan har bir so'zni eslab qolishga harakat qilardi va uyga qaytgach, lug'atdan uning ma'nisini bilib olardi.

"Ensiklopediyani" Nikodim muttasil ravishda sinchiklab o'qiy boshladi. U bu kitobni boshidan o'qib, Koborovoga jo'naguniga qadar "D" harfiga yetib bordi. "Ensiklopediya" Dizmaga uncha yoqmadi, biroq Nikodim uning foydasi tegayotganini sezib qoldi va kitobni oxirigacha o'qib chiqishga jazm qildi. Agar Ninadan kelayotgan xatlarni o'qishinn hisobga olmasa, Nikodimning shundan bo'lak ishi yo'q edi. Har kuni u juvondan loqaqal bitta xat olardi. Xatlar juda uzun bo'lib, Dizma ularning chiroyli uslubda yozilganini tan olsa-da, oxiri joniga tegib, ularni o'qimay qo'ydi. Odatda u xatlarning oxirini - so'nggi yangiliklar xabar qilinadigan joyini o'qib qo'ya qolardi. Maktublardan Nikodim, Kunitskiyning genial boshqaruvchisidan voz kechmoqchi emasligini, Dizma banka raisligi mansabini Koborovo amlokining muxtor vakili lavozimi bilan qo'shib bajarishi mumkin, deyayotganini bilib oldi. Axir unga butunlay erkinlik berib, biror vazifa bajarishni talab qilishmas ekan-da.

Nina bundan g'oyat xursand bo'lib, Dizmadan rozi bo'lishni iltimos kildirdi. Nikodim anchagacha ikkilanib yurib, Kshepitskiy komil ishonch bilan, ortiqcha davlat bosh og'ritmaydi, deganidan keyingina bu taklifni qabul qildi.

U bu qarori haqida Ninaga xabar qilmadi, chunki yuvonning iltimosiga binoan unga umuman xat yozmas edi. Koborovoda barcha yozishmalar Kunitskiyning qo'lidan o'tardi, shu boisdan Nina erining, bundan ikki yil muqaddam Kasyaning maktubini o'qib chiqqani kabi, bu xatlarni ham ochib o'qishi mumkinligidan cho'chirdi.

Rais kvartirasini jihozlash ishlari bilan Kshepitskiy shug'ullandi. U shu qadar g'ayrat qildiki, ikki hafta ichida hammasi taxt bo'lib, Nikodim mehmonxonadan Vspul'nayadagi o'z kvartirasiga ko'chib o'tdi.

Ertasiga u narsalarini olib kelish va bir yo'la Kunitskiy bilan gaplashib olish uchun Koborovoga ravona bo'ldi. Yakshanba kuni edi. Nikodim telegramma berishni unutmagan uchun unga izvosh yuborishmabdi. Shu boisdan ikki kilometr piyoda yurishga to'g'ri keldi. Ertalabki havo juda ajoyib bo'lib, Nikodim bunday sayrdan hatto huzur ham qildi.

Taxta tilish zavodining yaqinida unga qog'oz fabrikasining masteri duch kelib qoldi. Master Dizmaga ehtirom bilan ta'zim qildi.

- Xo'sh, Koborovoda ishlar qalay? - so'radi Dizma to'xtab.

Xudoga shukur, hammasi joyida, pan boshqaruvchi.

- Men endi boshqaruvchi emas, banka raisiman. Gazeta o'qimadinglarmi?

- Bo'lmasam-chi, o'qidik... G'oyat xursandmiz...

- O'qidinglarmi? U holda menga, pan rais, deb murojaat qilish kerak. Tushundingizmi?

- Tushundim, pan rais.

Dizma qo'llarini cho'ntagiga tiqib, bosh iring'adi-da, yo'lida davom etdi. Lekin u uch-to'rt qadam yurgach, orqasiga o'girilib, qichqirdi:

- Hoy menga qarang!

- Eshitaman, pan rais.

- Pan Kunitskiy uydami?

- Yo'q, pan rais, u kishi hozir Sivaya Vorkada bo'lsalar kerak. Bugun u yerda tor izli temir yo'l qurilishi boshlanadi!

- Biroq bugun yakshanba, bayram-ku axir.

- E, pan pomeshchik faqat ishlari bo'lmagan kunlardagina bayram qiladilar, pan rais, - deya javob qildi master istehzo aralash.

Dizma qovog'ini soldi,

- Aslida ham shunday bo'lishi kerak. Eng muhimi - ish. Sizlarga qo'yib bersa, doim bayram qilardingiz. Tabiatigingiz shunaqa o'zi.

U qo'llarini orqaga qilib; uy tomon yurib ketdi.

Katta eshik qulfog'liq ekan, xizmatkor kelib, uni ochguniga qadar Dizma anchagacha qo'ng'iroq qilib turishga majbur bo'ldi.

Xizmatkor Nikodimning qovog'idan qor yog'ib turganini ko'rib, qo'rqib ketdi.

- Nima balo o'lganmisan hammang? Qo'ng'iroqni eshitmaysanlar-a!

- Meni kechiring, bufetda edim...

- Bufetda bo'lsang nima qilibdi? Ahmoq! Men yarim soatdan beri eshikda tursamu, bu kishi bufetda yursa-ya. He, tumshug'ing qursin! Qani, yech pal'tomni! Muncha cho'chqaga o'xshab angrayasan? Beka qayerda?

- U kishi uyda yo'qlar, pan boshqaruvchi. Beka kostelga ibodat qilgani ketganlar.

- Birinchidan, men senga pan boshqaruvchi emas, pan rais bo'laman. Ikkinchidan, esa xo'jayinlar uyda yo'q paytda bekor o'tirishga nima haqlaring bor? Tekinxo'rlar! Bugun bayram emas! Bayram ish yo'q paytda bo'ladi. Tushundingmi? Senlarning boshingda yong'oq chaqib turshp kerak. Xo'sh, nega serrayib turibsan?

Xizmatkor ta'zim qildi-da, vestibyl' tomon jo'nab qoldi.

- Bu juldurvoqilarning boshida yong'oq chaqib turish kerak, - deya to'ng'illadi o'zicha Dizma, - bo'lmasam boshingga chiqib olishadi.

O' qo'llarini cho'ntagiga tiqib, uyni aylanib chiqdi. Barcha xonalar saranjom-sarishta qilingan edi. Faqat Kunitskiyning yotoqxonasidagina xizmatkorlardan biri polni supurganida, shcheyotkani unutib qoldiribdi. Dizma qo'ng'iroq chaldi-da, yugurib kelgan xizmatkorga indamay shchetkani ko'rsatdi.

- He, iflos! - deya to'ng'illadi u xizmatkor g'oyib bo'lgach.

Dizma birinchi qavatni aylanib chiqqach, yuqoriga ko'tarildi. Ninaning buduarida derazalar lang ochiq edi. Nnkodim u yerdagi mebel', kartina va fotografiyalarni qiziqib tomosha qila boshladi.

Ayniqsa, yozuv stolida rasmlar ko'p edi. Nikodim kichkina kresloga o'tirib, ularni tomosha qilar ekan, chetdagi qutining dastasini tortdi. Biroq u qulflog'liq ekan. O'rtasidagina tortib ko'rgan edi, u osongina ochila qoldi.

"Bu yerda nima bor ekan?" - deb o'yladi Nikodim va qutini yarmisigacha tortib chiqardi.

Quti ham yozuv stoli kabi batartib edi. Yashil va havo rang iplar bilan bog'langan dasta-dasta xatlar qator qilib taxlab qo'yilgandi, Xatlarning ko'pi Ninaning monastir' pansionida birga yashagan dugonalaridan kelgan ekan; Nikodim ularni ko'zdan kechira boshladi, ba'zi xatlar fransuz tilida yozilgan edi.

Xatlarning yonida polotno muqovali bir daftar turardi. Dizma uni ochib ko'rdi: Ninaning yozuvi. Daftarning yarmidan ko'pi hali yozilmagan edi.

"Xotira daftari", - fahmladi Nikodim va uni qiziqib varaqlay boshladi.

So'ng u daftarni qo'lga olib, izvoshning kelishidan bexabar qolmaslik uchun deraza tagiga borib o'tirdi.

Birinchi sahifaga:

"Tushunmoq - bu kechirmoq demakdir", - degan aforizm yozilgan edi. Ikkinchi sahifadan xotiranoma boshlanardi.

"Bugun men ko'p odamlar tomonidan mazax qilingan ishga jazm etdim - xotiranoma yoza boshladim.

Yo'q, bu mening xotira daftaram bo'lmaydi. Pitigrilli, xotira daftari tutadigan odam burnini qoqib, so'ng dastro'molini tomosha qiladigan kishiga o'xshaydi, degan ekan. U nohaq, axir bu voqealar yoki taassurotlarni yozib qo'yishdangina iborat emas-ku! Men, masalan, faqat o'z fikrlarimning konkret ifodasini ko'rish uchungina xotira daftari tutaman. Menimcha, og'zaki yoki yozma ravishda ifoda etilmagan fikrni shakllangan, yuzaga chiqqan fikr deb bo'lmaydi.

Xotira daftari haqida yana bir yolg'on gap: chamasi, Oskar Uayl'd bo'lsa kerak, xotira daftari odam keyinchalik biror kishi o'qib chiqishi uchun yozadi, degan edi. Uningcha, odam buni ataylab, yoki juda bo'lmagan-da - beixtiyor kilar emish.

Yo tangrim! Menimcha, u dunyoda hech kimi, mutlaqo hech kimi bo'lmagan odamlar ham bor ekanligini xayoliga keltirmagan bo'lsa kerak!

Xo'sh, men kim uchun yozay? Erim uchunmi? Axir u meni o'rab turgan mudhish bo'shliq bilan barobar-ku. Bolalarim uchunmi? Mening bolalarim yo'q, afsus, hech qachon bo'lmaydi ham. Mendan yuz o'girgan qarindoshlarim yoki telba akam Jorj uchun yozaymi?

Kasya uchunmi?.. Hech qachon. Biz turli qutblardamiz, u meni hech qachon tushunmaydi. U meni sevishidan nima foyda?

Umuman, tushunmay turib sevib bo'larmishmi? Menimcha, sevib bo'lmasa kerak. Darvoqe, shu ham sevgi bo'libdimi? Agar bu sevgi bo'lgan taqdirda ham, juda ibtidoiy darajada. Bir necha bor: agar biror baxtsizlik sodir bo'lib, chandiqlardan badbashara bo'lib qolsam-a, deb o'yladim... Kasya... U menga kim bo'ladi o'zi? Nega men kunduzi kechagi tunga la'nat o'qib, bo'lajak tundan o'zimni himoya qilolmayman, boshqacha qilib aytganda - o'z zaifligimdan qutulolmayman?.."

Nikodim yelkasini qisib qo'ydi.

- Obbo! Buncha g'inshiydi bu xotin. Bu gapi bilan nima demoqchi o'zi?

U yana bir necha sahifani ochdi.

Xotira daftari sanalar qo'yilmagan edi. Sahifalardan birida Nikodim chet elga qilingan safar haqidagi qisqagina yozuvni o'qidi. Keyin muzika haqida mulohazalar boshlanib, so'ngra qandaydir Bilitis va Mnazidika haqida, chamasi, Ninaning xolavachchalari yoki dugonalari to'g'risida gap ketadi.

Nikodim o'zi to'g'risida biror gap o'qigisi keldi. Chindan ham u taxminan o'n betlardan so'ng o'z ismini ko'rib qoldi.

"Qani, ko'raylik-chi", - dedi u va qiziqib o'qiy boshladi.

"Bugun men yangi odam bilan tanishdim. Uning ismi juda g'alati ekan: Nikodim Dizma. Bu ismda qandaydir sirli, kishini hayajonga soladigan bir narsa bor. U kuchli odam sifatida nom chiqargan ekan. Nazarimda, bu gapda jon borga o'xshaydi... Unga Nitsshe tasvirlagan qudratli odamning qamchini juda yarashsa kerak. Undan erkaklik kuchi yog'ilib turibdi. Ehtimol, bu qo'pol, ibtidoiy kuchdir, lekin u shu qadar qudratliki, unga bo'ysunmay iloj yo'q. Kasyaning fikricha, qo'pol, dag'al, orsiz emish. Birinchi gapi to'g'ri. Ikkinchisiga kelsak, men hali bu haqda biror fikrga kelganim yo'q. Menga u yoqyapti".

Nikodim jilmaydi-da, cho'ntagidan yon daftarini olib, o'zi tushunmagan so'zlarni yozib oldi.

- Xo'sh, bu yog'ida nimalarni yozibdiykin?

Bu yog'ida tush ko'rgani va Kasya bilan arazlashib qolgani haqida bir necha sahifa yozilgan edi. Nikodim yana o'zining ismi tilga olingan joyini o'qidi:

"Kasya buni tushunmaydi. U Nikodimni yomon ko'radi, chunki o'zining hayotga munosabatai juda g'ayri tabiiy. Agar ayolligimni bir chelta surib qo'yilsa, men kimman o'zi? Axir mening butun mohiyatim ayolligimda-ku. Aqlim, estetik qarashlarim - hammasi faqat ayollik mohiyatimga xizmat qiladi. Erkak kishi menga faqat ruhan emas, balkim jisman ham ta'sir qilsa, buning nimasi ajablanarli ekan? Kim bilsin, uning o'rnida boshqa shunday sog'lom va baquvvat erkak bo'lsa, u ham, ehtimol, menga xuddi shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin edi".

- Buni qarang-a! - deya bosh chayqadi Nikodim. - U kishiga erkak bo'lsa kifoya ekan-da.

U derazadan tashqariga ko'z tashlab, qo'rqmay o'qiyverishi mumkinligiga ishonch hosil qildi. Keyingi sahifalardagi yozuv yangi bo'lib, hali siyohining rangi o'chmagan edi.

"Bugun u Varshavaga jo'nab ketdi. Bosh ministr chaqirtiribdi. G'ussa chekish - juda g'alati tuyg'u. U ruhiy osoyishtalikka rahna soladi. Nikodim Varshavada menga xiyonat qilarmikin? Biron narsa deyish qiyin, uni hali yaxshi bilmayman. Nikodim to'g'risida o'ylaganim sayin, uning qandaydir siri borligiga, u shu sirni o'ziga qalqon qilib olganiga ishonyapman. Kim bilsin, bu qalqon muhabbatning g'olibona, kuchli ta'sirida biror kun ochilarmikin? Ochilganidan so'ng dilimga g'ulg'ula solmasmikin?"

Bilmayman. Aslini olganida u haqida hech nima bilmayman, menga faqat bir narsa ayon: doim fikri yodim o'shanda, asabimning har bir tori o'sha bilan bo'lishni istaydi. U juda kam gapiradi, shu qadar kam va sodda gapiradiki, agar har kuni peshanasi tor bu odamning tiyrak aqli tinimsiz ishlashiga shohid bo'lmaganimda uni cheklangan odam deb o'ylashim mumkin edi. Kasya uni madaniyatsiz deyapti, yolg'on. Ehtimol, unga sirtqi jilo yetishmas, ehtimol, uning tarbiyasida kamchiliklar bordir. To'g'ri, uning Oksford universitetida o'qiganini nazarda tutganda bu hol bir oz ajablanarli tuyuladi. Biroq boshqa tomonini olganda, balki, u ataylab shunday qilar. U hayotning mohiyatigagina e'tibor berishini ta'kidlash uchun ham uning taomillariga beparvo qaraydi. Bu narsa uning kiyinishida ham seziladi. Uning qomati kelishgan, bunga shubham yo'q. Faqat kostyumi uni bir oz beso'naqay qilib ko'rsatadi. Uning chiroyli yoki xunukligi haqida ham ko'p o'yladim. Nikodim chiroyli emas. Lekin menga husn kerakmi? U meni o'zining erkaklik mohiyati bilan shaydo qilyapti. Men uning qo'llari chiroylikroq bo'lishini istardim. Bugun unga kattagina xat yozib yubordim. Uni juda sog'inganman".

Keyingi sahifa fransuzcha gap bilan boshlangan bo'lib, so'ng quyidagilar yozilgan edi.

"Falokat ro'y berdi. Gazetalarni o'qiganimda hushumdan ketib yiqilayozdim. Uning Koborovoga qaytmasligi mumkin degan fikrning o'zidanoq a'zoyi badanim titrab ketyapti".

- Obbo, rosa jigaridan uribman-ku! - deya to'ng'illadi Nikodim va bu narsa kishiga juda xush yoqsa-da, keyinchalik ko'p tashvish orttirishi mumkin, degan xayolga bordi.

"Leon unga tabrik telegrammasi yubordi. Yo tangrim, qani endi u Leonning taklifini qabul qilib, shu yerda qolsa! Men Varshavaga ko'chib borishni orzu qilyapman.

Yo'q, bu mumkin emas. Pshelenskaya xolam yoki birorta tanish odamni uchratib qolishdan cho'chib, ko'chaga chiqolmayman bu yerda.

Men ularning ko'zlariga qarayolmayman, ammo shu bilan birga uni ko'rishdan voz kechishga qurbim ham yetmaydi".

Keyingi sahifadagi yozuv bundai ham qisqaroq edi.

"Kechasi bilan uxlayolmay chiqdim. Yo parvardigor! Ehtimol, u boyib ketar!!

U meni sevarmikini?

Bu to'g'rida undan so'raganimda Nikodim qisqagina qilib: "Ha", - deya javob qildi. Bu javob juda ko'p narsani bildirishi yoki dilida menga nisbatan hech ni-a yo'qligidan dalolat berishi mumkin".

Nikodim yangi sahifani ochdi-da, derazaga qaradi. Xiyobonning oxirida avtomobil ko'rindi. Kunitskiy qaytib kelmoqda edi. Dizma shoshilib o'rnidan turdi-da, xotiranomani joyiga qo'ydi va sekingina koridorga chiqib, yugurganicha zinapoyadan pastga tushdi. U juda vaqtda tushgan ekan - katta eshik ochilib, ostonada Kunitskiy paydo bo'ldi. Chol quchoq ochib, Dizmani bag'riga bosa ketdi.

- Azizim, pan Nikodim! Yashang-e! Chin qalbidap tabriklayman! Telegrammamni oldingizmi? Xo'sh, qalay? Ishni keng ko'lamda tashkil etyapsiz. Gazetalarda sizni juda maqtashyapti... Sizni chin ko'nglimdan tabriklayman. Darvoqe, sizga faqat yaxshilik tilashimni o'zingiz ham bilasiz.

- Rahmat.

- Qani, qani, o'tiring, azizim pan Nikodim, qadrli pan rais. Sizga bir narsa taklif qilmokchiman.

U Dizmani kresloga o'tkazdi-da, keyin birdan shoshilganini payqab qoldi:

- Balki, dam olishni istarsiz?

- Yuq, charchaganim yo'q.

- Xudoga shukur. U holda, marhamat qilib, gapimni tinglasangiz. Agar taklifimni rad etgudek bo'lsangiz, darhol javob bermang. Maylimi?

Nikodim jilmayib, ko'zlarini qisdi:

- Siz nima taklif qilmoqchi ekanligingizni o'zim topsam-chi?

- Topa olarmikinsiz? - deya ajablendi Qunitskiy.

- Siz boshqaruvchi bo'lib qolishimni istaysiz? Shunday emasmi?

Qunitskiy o'rnidan sapchib turib, yana Nikodimni bag'riga bosdi. U turli dalillar keltirib, tezda Nikodimning boshqaruvchilik lavozimida qolishi kerakligini ikki karra ikki to'rtdek isbotlab berdi.

- Banka pravleniyesining raisi, azizim pan Nikodim, davlat amaldori emas-ku axir. U korxonada boshlig'i, xolos, shu boisdan ham barcha vaqtini bankaga sarflashi shart emas.

Nikodim avvaliga o'zini bir oz ikkilanayotgandek ko'rsatib turdi-da, so'ng Qunitskiyga, agar g'alla bankasining raisi mening boshqaruvchim bo'ladi, deb hech kimga aytmasangiz, mayli, dedi.

Turgan gap, Kunitskiy bu shartni bajonu dil qabul qildi.

Bu orada Nina qaytib keldi. U Nikodimning ta'zimiga javob bermadi, biroq juvonning porlab turgan ko'zlari shu qadar ko'p narsani aytmoqchi ediki, agar Kunitskiy sezgirroq bo'lganida darhol hammasini bilib olgan bo'lardi.

Nikodimning roziligidan quvonib ketgani uchunmi, harqalay chol bu holni payqamay qoldi. U vag'illab xotiniga, pan Nikodim Koborovoni o'z holiga tashlab ketmayotgani va ularga g'amxo'rlik qilib, bu yerga tez-tez kelib turajagidan qanchalik xursand ekanligini tushuntira boshladi.

- Men ham g'oyat xursandman, - dedi Nina va kechirim so'rab, kiyimini almashtirgani chiqib ketdi, chunki Koborovoda yakshakba kunlari soat ikkida ovqatlanishardi.

Kunni uchovlon o'tkazishdi. Bundan Ninaning noroziligi yaqqol ko'rinib turardi: Kunitskiy bankaning ishlari va uning ochilish muhlati bilan qiziqar, umumiy krizis haqida gap sotar, soliqlar hamda ijtimoiy talablarni kondirish uchun bo'layotgan xarajatlarning og'irligi to'g'risida mulohaza yuritardi. Biroq endi u hosilning mo'lligidan shikoyat qilmay qo'ygandi.

Kechki ovqatdan so'ng ular avtomobilda sayr qilishga qaror qilishdi. Oqshom havosi g'oyat ajoyib edi. Yo'l o'rmon oralab ketgandi. Osmondan oy mo'ralardi, kumush yog'duga ko'milgan yo'l qandaydir sirli jozibasi bilan qishini o'zga maftun etardi. Xayol daryosiga g'arq bo'lgan Nina avtomobilning yumshoq o'rindig'iga suyandi. Bu sayrning g'aroyibligini hatto Nikodim ham his etib turardi. Yolg'iz Kunitskiyгина tinmay bidirlab borardi.

Ular soat o'ndan oshganida uyga qaytib kelishdi. Nina darhol tepadagi o'z bo'lmasiga chiqib ketdi. Kunitskiy esa Dizmani u yotadigan xonaning eshigiga qadar kuzatib bordi-da, yaxshi uyqu tilab, qaytib ketdi.

Nikodim yechina boshladi.

Endi u Ninaning xotira daftari to'g'risida bemaol o'ylab ko'rishi mumkin edi. Hali biror qat'iy fikrga kelib bo'lmasdi. Faqat bir narsa aniq edi: Nina uni benihoyat sevib qolgan bo'lib, Nikodimning bir kun emas, bir kun unga uylanishiga umid qilardi.

Dizmani hammasidan ham xursand qilgan narsa "B" Nina uning Oksfordda o'qigani va juda aqlli odam ekaniga ishonishi edi.

Chamasi, Nikodim juda to'g'ri yo'l tanlagandi. Uylanish masalasiga kelsak...

Ochig'ini aytganda, Dizma bu haqda birinchi marta jiddiy o'ylanib qoldi. Nina unga yoqardi, albatta, innaykeyin grafinyaga uylanish ham hazil gan emas: u taniydigan arkonni davlatlardan bironyasi ham haqiqiy zodagon xonimga uylanmagan edi... Lekin, boshqa jihatdan yondashganda, bisotida bir tiyini bo'lmasa-da, shunday katta talab qo'yadigan xotonga uylanish... Faqat ko'ylaklarining o'ziga qancha pul ketadi! Har kuni uch xil kiyinsa, chet elga sayohat qilsa, uzuk va bilaguzuklarni pista po'chog'idek bilsa! Axir ular ajralishgan taqdirda Kunitskiy unga sariq chaqa ham bermaydi-ku...

To'g'ri, Nikodimning bankadagi maoshi katta, ammo shuyam yetmaydi. Keyin, kim biladi, uni raislikdan bo'shatib yuborishlari mumkin - u holda Dizma yelkasida tirik tovon bilan boshini qayoqqa suqadi?... Qani endi, Kunitskiy xotinidan ajrashgandan keyin ham uni boshqaruvchilikdan bo'shatmasa!.. Lekin bu haqda so'z ham bo'lishi mumkin emas.

Yana bitta qiyinchilik bor: u Ninaning anovi aqlan ozgan akasini nima qiladi? Bir kami o'sha tentakni boqishi qoluvdi...

Nikodim chiroqni o'chirib, ko'rpani boshiga tortdi. Ponimirskiy haqidagi fikr masalani uzil-kesil hal qilgan edi.

"Ahmog'i yo'q", - dedi o'ziga o'zi Nikodim va boshqa yoniga o'girilib yotdi.

Uning endigina ko'zi ilina boshlagan ham ediki, birdan xiyobonga to'kilgan shag'al ustidan kimningdir shippilab yurib kelayotganini eshitib qoldi.

"Kim ekan kechasi bu yerda sanqib yurgan? "B B B" Nikodim boshini ko'tardi.

Birdan uning yuragi orqasiga tortib ketdi.

Daraxt shrxlarining sirli sharpalari bilan o'ynashib turgan oy shu'lasida u xonasining parkka qaragan oynaband zshigi oldida allakimning turganini ko'rib qoldi...

"O'g'ri" - deya dilidan kechirdi Nikodim.

Haligi odam bir zum qotib turdi-da, so'ng qo'lini ko'tarib, eshikni taqillatdi.

Nikodimning eti jimirlashib ketdi. Behosdan: "Ponimirskiy! Butunlay aqlan ozib, meni o'ldirgani kelibdi", - degan xayol kechdi dnlidan.

Eshik qattiqroq taqilladi. Dizmaning qo'rquvdan qimir etishga majoli qolmagan edi. U faqat dasta aylansa-da, eshik ochilmaganini ko'rgandan keyingina xiyol o'ziga keldi, demak, eshik qulflog'liq ekan.

Bu narsa unga bir oz dalda berdi. U sapchib o'rnidan turdi-da, devorni panalab, eshikka yaqinlashdi va eshik oynasidan mo'raladi.

Qaradi-yu, hayratdan qichqirib yuborishiga sal qoldi.

Eshik ortida Nina turardi.

Nikodim shosha-pisha shimini kiydi-da, eshikin ochdi. Nina xonaga sirg'alib kirib, uning bo'ynidan quchdi.

Dizma uni karavot tomon surgab qoldi.

- Yo'q, yo'q, - dedi juvon unamasdan, - o'tinaman sendan... Bu ishni qo'y... Mana bu yerga o'tiraylik... Meni hatto shu jihatdan tushunganing uchun ham seni shu qadar sevaman... Sen-chi? Sen meni sevasanmi?

- Sevaman.

- Jonginam...

U Dizmadan tez-tez bo'sa olar ekan, sog'inch, orzu-umid va quvonchlarini hikoya qilardi.

- Bilasanmi, agar bu yerga kelib, seni quchoqlamasam, sen yonimda bo'lsang, birorta boshqa ayol seni mendan tortib olmasligiga ishonsam, o'zimni qanday xotirjam va osoyishta his etishimni aytmasam, kechasi bilan uxlayolmay chiqqan bo'lardim. Ayt-chi, menga xiyonat qilganing yo'qmi?

- Yo'q.

- Rostdan-a?

- Shu paytga qadar xiyonat qilganim yo'q.

- Ochig'ini ayt, - qattiq turib oldi Nina, - Varshavada o'ynashing yo'qmi?

Nikodim uni o'ynashi yo'qligiga ishontirgan edi. Nina mukofotiga uning yuz-ko'zidan o'pdi.

Dizma jur'atsizlik qilganidan tajang bo'lib, hatto Nina bu yerdan chiqib ketgach, meni latta deb atamasa go'rgaydi, deya xavfsiray ham boshladi.

Bu orada Nina uning yangi martabasi va ehtimol, endi ular turmush qurishlari mumkinligi to'g'risida gap ochdi. Endi ustomonlik

qilishning vaqti kelgan edi. Nikodim xiyol o'ylanib turdi-da, bir oz kutish lozimligi, hali maoshi kamligini aytdi.

- Ikkinchidan, o'zing Varshavada yashashni istamayman, degan edi. Men esa o'sha yerda yashashga majburman.

Nina ma'yus tortdi. Ha. Rost... Balki, Barshava yaqinidagi biror joyga ko'chib borishi mumkindir. Nikodim ishga avtomobilda qatnayveradi... Shunday deya juvon kelajak rejalarini tuza boshladi.

Nikodimning uyqusi keldi. U mudrab qolmaslik uchun papiros tutatdi.

- Eh, - deya gap boshladi Nina, - bizning bolalarimpz bo'ladi. Bolalik bo'lish qanday baxt-a! Ayt-chi, jonim, sen bolalarni yaxshi ko'rasanmi?

Dizma bolalarni jinidan battar yomon ko'rar edi. Lekin u Ninaning ko'ngliga qarab:

- Juda yaxshi ko'raman, - deya javob qildi.

- Qanday ajoyib! Bizning ancha bolalarimiz bo'ladi...

- Menga qara, - deya uning gapini bo'ldi Nikodim, - yotoqxonangdan chiqib ketganingni ering sezgani yo'qmi?

Nina tashvishga tushib qoldi. Chindan ham u bu yerda ko'p o'tirib qolgan edi. Aslini olganda u hech nimadan qo'rqmasdi-yu, lekin har qalay janjal chiqmagani ma'qul edi.

Ular o'pishib xayrlanishgach, Nina chiqib ketdi.

Dizma karavotga yotib, ustiga ko'rpa tortdi-da:

- He, jin ursin bunaqa sevgini! - deya to'ng'illab qo'ydi.

10-bob

Davlat g'alla bankasida ish juda yurishib ketdi. Iqtisodiy eksperiment kutilganidan ham yaxshi natija berdi. Yevropadagi boshqa mamlakatlar Pol'shaga jiddiy e'tibor berib, ayniqsa agrar mamlakatlarning matbuoti o'z hukumatlaridan rais Dizmaning uslubini qo'llashni talab qila boshladi.

Raisning o'zi hukumat doiralariga yaqin odam bo'lib qoldi, hatto oppozitsiya ham uni hurmat qilib, ahyon-ahyonda uning nomiga maqtov gaplar aytib turardi. Buning hech ajablanarli joyi yo'q edi, albatta.

Uning metin irodasi tufayli davlat g'alla bankasi xo'jalik ishlari keng ko'lamda oqilona olib boriladigan, juda yaxshi tashkil qilingan korxonalar sifatida shuhrat qozondi.

Rais Dizma g'oyat mehnatsevar odam sifatida nom chiqardi: ha, ha, bu odam o'ta uddaburonligi bilan ham ajralib turardi. Uning kabineti mijozlar kamdan-kam paytdagina kiritiladigan muqaddas bir joyga aylanib qoldi. Faqat sekretar' Kshepitskiyгина u yerga istagan paytida kirishi mumkin edi. U har kuni raisning oldiga bo'lim boshliqlarining yozma axborotini olib kirar, bankaning adresiga kelgan xat va hujjatlarni ko'zdan kechirar, umuman, barcha kundalik ishlardan xabardor bo'lib turardi.

Har kuni soat o'n birda raisning huzuriga maslahatli ishlarni hal qilish uchun direktor Vandrishovski kirardi. U o'z fikricha, ancha mulohaza qilishni talab etadigan eng murakkab ishlarni bayon etardi, biroq rais har gal sira o'ylab o'tirmay:

- Bu taklif rad etilsin. Yoki:

- Ijobiy ma'noda hal qilinsin, - deb qo'ya qolardi.

Buni ko'rib direktor avvaliga shubhalanib qoldi, biroq vaqt o'tishi bilan raisning fikri doim to'g'ri chiqishiga u ishonch hosil qildi. Turgan gap, u mazkur ishda raisning sekretar' Kshepitskiy bilan qilgan suhbatlari muhim rol o'ynashini xayoliga ham keltirmas edi.

Bu orada raisning kvartirasidagi tashrifnomalar solinadigan vaza ancha to'lib qoldi. Unikiga faqat siyosiy arboblardan va korchalonlargina emas, balki aristokratlar ham qadam ranjida qilishmoqda edi. Har gal knyaz' Tomash Rostonkiyning tashrifnomasini birorta boshqa kartochka yopib qo'yganida Nikodim darhol uki eng yuqoriga olib qo'yardi.

Dizma ishi ko'pligini bahona qilib, mehmonlarni juda kam qabul qilardi. Ammo o'zi "Bonton" kitobidagi ko'rsatmalarga qat'iy amal qilar va aytilgan joydan qolmas edi.

Pani Pshelenskaya bilan tanishligi va sehrli "Oksford" so'zi Nikodimning oldida arkoni davlatlar va mashhur zodagonlar xonadonining eshigini lang ochib berdi. Knyaz' Tomash uni barchaning oldida hozirgi zamonning Vokul'skiysi der, mul'timillioner Zbigne'v Shversnagel' esa yigirmanchi asrning Nekkeri, deb atardi. Shu boisdan ham hukumat va neftchi magnatlar orasida jiddiy ixtilof tug'ilganida ikkala tomon rais Dizmadan hakamlilik qilishni iltimos qildi. Dizma Sulaymon payg'ambardek oqillik bilan hukm chiqardi: u avvaliga ishni paysalga solib, magnatlarning ko'nglini oldi. So'ngra mamlakatda chetdan neft keltirish uchun mukofot to'lash maqsadga muvofiq emas, deya hukumatni mamnun etdi.

Shu munosabat bilan matbuotda yana Nikodimning rasmi bosilib chiqdi. Shuhratining bunday keng tarqalishi natijasida tez kunda boshiga qanday g'avg'o tushishini bilganida Dizma bundan sirayam quvonmagan bo'lardi.

Bir kuni u gazetalardagi oldi-qochdi gaplarni o'qib o'tirgan edi, Kshepitskiyning kabineti - qo'shni xonadan vag'ir-vug'ur so'zlar eshitilib qoldi. Allakim raisning oldiga kirishga urinardi. Kshepitskiyning noroziligiga qaramay, to'polon ko'tarishga harakat qilardi.

Dizmaning g'azabi qaynab ketdi. U o'rnidan sapchib turib, eshikni ochdi:

- Jin ursin, nima to'polon o'zi?!

Eshikni himoya qilib turgan Kshepitskiy axborot berdi:

- Pan rais, bu yerda Boche'kmi yoki Boche'kmi degan qandaydir odam sizning oldingizga kirishga urinyapti...

Sekretar' og'zidan gapini aytib bo'lmasdanoq past bo'yli baqaloq odam oldinga o'tib vag'illay ketdi:

- Salom, pan Nikodim, bu menman!

Dizmaning yuziga qon yugurdi. Uning oldida panjalarini cho'zib, Liskovdagi pochta kontorasining noziri pan Boche'k turardi.

Nikodim darhol o'zini bosishga harakat qildn.

- Salomatmisiz, qani, marhamat...

Nikodim eshikni yopdi-da, Kshepitskiyning quloq solishidan cho'chib, Boche'kni kabinetning burchagiga boshlab bordi va o'zi divanga o'tirib, mehmonga stulni ko'rsatdi.

- Xo'sh, menda nima ishingiz bor, pan Boche'k?

Boche'k endi bir oz hadiksiray boshladi.

- Men, shunchaki, eski tanish bo'lganligim uchun oldingizga keldim, pan Nikodim.

- Pan Boche'k, - deya uning gapini bo'ldi Dizma, - Ministrlar Sovetining raisi meni "Pan Nikodim" deb chaqiradi, siz esa bir oz o'pkangizni bosib, menga "pak rais" deb murojaat qiling.

- Meni kechirasiz, eski tanish bo'lganimiz uchun og'zimdan chiqib ketdi... pan rais.
- Bu gaplarni unuting. Xo'sh, mendan nima istaysan, Bochek?
- Sizdai bir narsani iltimos qilmoqchiman, pan rais. Axir eski qadrdonimiz...
- Yaxshi, yaxshi, murodingizni ayting.
- O'tinaman, meni himoyangizga olsangiz. Bir oydan beri ishsizman. Xotin, bola-chaqa degandek...
- Ishdan haydashdimi?
- Bo'shatishdi, e-e-e... pan Nik... pan rais. G'animlar taftish komissiyasi yuborishdi. Komissiyada okrut boshqarmasida ishlaydigan Skvoronek degan odam ham bor edi. Odam emas, maxluq ekan u. O'sha Skvoronek qimmatbaho posilkalar qayd qilinadigan daftardan allaqanday xatolar topdi. O'sha daftarni bir vaqtlar o'zingiz yozib borguchi edingiz...
- Sekinroq, jin ursin seni, buncha baqirasan!
Bochekning yog' bosgan mitti ko'zlari taajjubdan olayib ketdi. Axir u sirayam baqirgani yo'q-ku... Sobiq xizmatchisi bu gaplarni bironta odam eshitib qolishidan cho'chimayapganmikin... Bochek apcha ziyrak odam edi.
- Xo'sh, mendan nima istaysan?
- Meni ishga olsangiz demoqchiydim. Chunki...
- Menda hech qanday ish yo'q. Hamma joy band.
- Hazillashayapsiz chog'i, pan rais. Bir imo qilsangiz bas-ku...
- Sirayam imo qilishni istamayman, eshitdingmi, Bochek? Istamayman! O'zing ayt-chi, nega endi imo qilishim kerak ekan, a? Bir vaqtlar qo'lingda ishlaganimda, azizim, sen menga baqirarding, odam o'rnida ko'rmasding, endi bo'lsa... Hali ko'p yalinasan... Ish u yoqda tursin, shimildiriq ham bermayman, bildingmi!
Bochek qovog'ini solib o'tirardi.
- Hech vaqo bermayman! U kishini qarangu! Bir vaqtlar osmondan kelardilar, endi tovonni o'pgudek bo'lyaptilar!
Qizishib ketgan Nikodim o'rnidan turib, depsindi.
- Kim bilan gaplashayotganingni bilasanmi?! Rais bilan ministrarning do'sti bilan gaplashyapsan! Ahmok! Tur o'rningdan!
Bochek shoshilmaygina o'rnidan turdi.
- Agar buyursam - zinapoyadan ketingga tepib tushirib qo'yishadi! Hech kim hech nima demaydi! Yaxshilikcha, bu yerdan jo'nagin-da, tilingni tiyib yur, tushundingmi? O'sha sassiq pochtaxonang to'g'risida, meni bilishing haqida bironta odamga aysang, ko'rasan. Og'zingni ocha ko'rma! Endi yo'qol!
Bochek joyidan qo'zg'almay bir oz jim turdi-da, so'ng yerga tikilganicha dedi:
- Yaxshi, ketaman. Lekin zinadan ketimga tepib tushirish uncha oson emas... Dunyoda adolat bor hali... Agar gazetalarda pan rais o'z sobiq boshlig'ini...
- Nima? - deya o'shqirdi Dizma.
- Buncha baqirasiz, pan rais? Og'zimga urmoqchimisiz? Hozircha sizning gapingiz gap, lekin ko'ramiz hali... Men ketdim... Yaxshi qoling...
Bochek ta'zim qilib, eshik tomon yo'naldi.
- Shoshma! - deya uni to'xtatdi Dizma.
Bochek to'xtab, xo'mrayganicha Nikodim tomon o'girildi.
- Nima deysiz?
- Xo'sh, nima qilmoqchisan o'zi?
- Nima qilmoqchisan deysizmi...
- Obbo... gazanda-ey! - Nikodim gilamga tupurdi. So'ng tupugini oyog'i bilan ezib stol yoniga borib o'tirdi-da, telefon trubkasini olib, allaqanday nomerni aytdi.
- Siz bilan g'alla bankasi pravleniyasining raisi gaplashyapti. Salom, pan direktor.
- Minnatdorman, yomon emas. Fabrikangizga bir odamni ishga ololmaysizmi?
- Ha, durust, ancha qobiliyatli... ha... Bochek. Yuzef Bochek.
- Demak, kelishdik-a? Katta rahmat... Ha, kerak bo'lib qoldi-da. Salomat bo'ling.
Dizma iljayib turgan Bochek tomon o'girildi.
- Hu, jin ursin seni. Mana, ish beryapman senga.
- G'oyat minnatdorman, pan rais.
- Faqat bilib qo'y, Bochek, - Dizma kattakon mushtini sobiq boshlig'ining tumshug'iga tiradi, - bilib qo'y: miq etmasliging kerak.
- Bo'lmasam-chi, pan rais, og'iz ham ochmayman! - Shunday deya Bochek Dizmaning mushtiga burni tekqudek engashib ta'zim qildi.
Nikodim yozuv stoli yoniga o'tirib, yon daftarining bir varag'iga adres yozdi.
- Ertaga kunduzi soat birda shu adresga borasan.
- Rahmat, pan rais.
Bochek xayrlashmoqchi bo'lgan edn, Nikodim qo'llarini cho'ntagiga tiqdi.
Bochek yana bir bor ta'zim qilib, chiqib ketdi.
- Ablah! - deya to'ng'illadi uning ortidan Dizma. U Bochekning ko'zlarida nafrat uchqunlarini sezib qoldi. Shu boisdan Nikodim, garchi sobiq boshlig'i endi uni "sotmasligiga" imoni komil bo'lsa-da, bo'lajak xavfning oldini olish uchun biror chora o'ylab topishga jazm qilib qo'ydi.
Bu orada kabinetga shu kuni kelgan xatlarni ko'tarib Kshepitskiy kirib keldi. U buxgalterlardan biri xatlar bo'limidagi mashinistka qizga ishqiy maktublar yozayotgani to'g'risida gap topib kelgan edi.
- Qaysi qiz ekan u? - surishtirdi Nikodim.
- Deraza oldida o'tiradigan ko'hlikkina qora soch qiz bor-ku, o'sha.
- Direktor nima deyapti?
- Uning hech nimadan xabari yo'q.
- Buxgalterni haydab yuborsammikin!
Kshepitskiy yelkasini qisdi.
- Jabr bo'lmasmikin? Xotnn, bola-chaqasi bor.

- Obbo to'ng'iz-ey! Unga hamma gapdan xabarim borligini aytib qo'ying, yig'ishtirsin o'sha oshiq-ma'shuqlikni.

Kshepitskiy bosh irg'adi-da, qog'ozlarini ochib, ish haqida gap boshladi.

Nikodim parishonlik bilan bir oz quloq solib turgach so'radi:

- U chiroylimi?

- Kim?

- O'sha qora soch qiz-da.

- Ancha ko'hlikkina.

Dizma og'zining tanobi qochpb jilmaydi, - Anovi masalada qandoq?

Kshepitskiy stolning chetiga o'tirdi.

- Pan rais, biror xotin haqida bu masalada qandoqligini aniq aytib bo'larmishmi? Xe-he-he!

Nikodim uning tizzasnga urib qo'ydi.

- Voy ovsar-ey! Agar mening qanday ayol bilan uchrashib turganimni bilganingizda esingiz og'ib qolardi.

- Pani Yashunskaya bilan emasmi, mabodo?

- Be, qurbaqa-ku!

- Men o'sha ayolni bilamanmi?

- Bilasiz. Aniqrog'i uni qizlik paytida tanir edingiz. Qani, toping-chi?..

- Sira eslolmayapman.

Nikodim barmog'ini yuqori ko'tardi-da, ma'nodor qilib dedi:

- Pani Kunitskaya.

- Nina?.. Nina?! Bo'lishi mumkin emas.

- Chin so'zim.

- Yo'g'e, ishonmayman...

Dizma kaftini kaftiga ishqadi.

- Ketvorgan ayol! Men sizga aytсам - naq ofati-jonning o'zi!

- Jahlingiz chiqmasin, pan rais, lekin men Ninaning duch kelgan odam bilan don olishishiga hech qachon ishonmayman.

- Duch kelgan odam bilan deb kim aytdi sizga? Men duch kelgan odam emasman-ku.

- Siz bilan bo'lgan taqdirda ham, ishonish qiyin, - dedi Kshepitskiy o'jarlik bilan, - bir vaqtlar men ham urinib ko'rgandim - qiyo boqmagan edi. Endi bo'lsa eri bor...

- He o'lgurdim o'sha eridan, - dedi zardasn qaynab Nikodim. - Munkillab qolgan chol-ku, erkaklik qolibdimi unda! Meni esa Nina sevadi, bildingizmi? Bir ko'rishda ishq tushib qolgan!

Kshepitskiy boshlig'iga ishoninqiramay qarab qo'ydi. U Ninaning didi qanchalik nozikligini yaxshi bilar va uning pan Dizma bilan oshiq-ma'shuqlik qilishini sira tasavvur qila olmasdi.

- Nima, gapimga ishonmayapsizmi?

- Ishonaman: ayollardan har narsani kutsa bo'ladi. Kshepitskiy aslida bu fakt yana bir bor Dizmaning qandaydir ohanrabosi borligidan dalolat beradi, deya xayolidan o'tkazdi. Sekretar' bu ohanraboning nimadan iboratligini bilmasdi, biroq har kuni uning quchini his etardi.

- Men uchun jonini berishga ham tayyor! - deya maqtanishda davom etdi Dizma.

- Unga uylanmoqchi emasmisiz, mabodo?

Nikodim yelkasini qisdi.

- Shir yalang'och-ku, nimasiga uylanaman?

- Koborovo-chi? Uning biror qismi Ninanikidir axir.

- Qog'ozda butun Korobovo uniki. Lekin faqat qog'ozda.

- Shoshmapg! Shoshmang... Eslayolmayapman...

Dizma sekretariga ahvolni qisqacha qilib tushuntirib berdi.

Kshepitskiy bosh chayqadi:

- Hm... qiziq...

Shu payt telefon jiringlab, ularning suhbat bo'-linib qoldi. Direktor Vandrishevskiy Kshepitskiydan zarur ish bo'yicha oldnga birrov kirib ketishni iltimos qilgan edi.

O'sha kuni kechqurun Dizma kkyaz' Rostotskiyning uyidagi qabul marosimida bo'ldi. Bu oila faqat poytaxtdagina emas, balki butun Pol'shada mo"tabar xonadon hisoblanardi. Chiroyliroq ko'rinish uchun Nikodim hatto frak kiyimoqchi ham bo'ldi. Biroq "Bonton" bunday hollarda smoking kiyishni joiz ko'rgani boisidan Nikodim Kshepitskiyga qo'ng'iroq qilib, uning maslahati bilan frak kiyish niyatidan qaytdi.

Bir vaqtning o'zida ham xat tashuvchi, ham raisning xizmatkori vazifasini o'taydigan Ignatiy Dizmaga eshikni ochib berar ekan:

- Bugun pan rais xuddi Valentinoning o'zi bo'libdilar-qo'yibdilar, - dedi.

- Zo'r kiyinibmanmi?

- Xotinlarning bari o'lib qolishadi! - deya Ignatiy ko'kragiga urib qo'ydi.

Bu gapdan so'ng Dizma o'zini birmuncha dadilroq his eta boshladi, ochig'ini aytganda, u bir oz qo'rqib turgan edi.

Ministrlar yoki anovi pani Pshelenskayaga qaraganda haqiqiy aristokratiyaning yo'rig'i boshqa edi-da, axir. Bir vaqtlar, hali Liskovda yashab yurgan kezlari, u knyaz' va graflarni dunyoda eng ajoyib qissa "Moxov" asarida hikoya qilingandek tasavvur etardi. Bir gal u hatto tush ham ko'rgan edi. Tushida u badavlat Mixorovski amlokining xo'jayini emish va anovi ablah Bocekning kichik qizi panna Bocekka oshiq bo'lib yurganmish. Biroq, Koborovoda telba graf bilan tanishgach, Dizma barcha zodagonlarning u bilan Ponimirskiya o'xshab gaplashishidan cho'chib qolgan edi.

Shu boisidan ham Nikodim anchaga do'vur uni taklif qilgan aristokratlar xonadoniga borishdan qo'rqib yurdi. Faqat tashrifnomasini yuborish bilan cheklanib yurgan Nikodim bugun birinchi marta jamoatga ko'rinishga jur'at etdi.

U knyaz' Rostotskiyning uyida Yashunskiy bilan Varedaning yonida bo'lishini o'ylab, o'ziga o'zi dalda berardi. Chindan ham u dahlizda Vareda bilan uchrashib qoldi. Polkovnik pal'tosini yechib, xizmatkorga uzatmoqda edi.

Salom-alikdan so'ng ular bir-birlarini qo'ltig'idan tutib, keng marmar zinapoyadan ikkinchi qavatga ko'tarilishdi. U yerdagi zalda yigirmaga yaqin mehmon bor ekan.

Zal eshigi oldida qora sochlariga oq oralagan, qaddi-qomati kelishgan knyaz' Tomash ikkita mehmon bilan nemischalab suhbatlashmoqda edi.

- E'tibor ber, Nikus', - dedi Vareda, - anovi pitrak baqaloq berlinlik diplomat - baron Reynits bo'ladi. U mashhur poygachi. Balki eshitgandirsan?

- Ha-ha... Boshqasi-chi?

- Graf Iyeronim Konespol'skiy. O'zi burlakka o'xshaydi; aytishlaricha, uning onasi...

Vareda gapini tugatmagan ham ediki, Dizmaga ko'zi tushib qolgan knyaz' Tomash suhbatdoshlaridan kechirim so'rab, ularning oldiga keldi. Nikodim bilan Vareda mezbonning ortidan yurib, mehmonxonaga kirishdi.

- Salom, salom. Nihoyat, pan rais ham biznikiga qadam ranjida qilar ekanlar-da. Bu deymen, polkovnik, sizni generallik epoetlarida ham ko'ramizmi, ishqilib? Marhamat, tanishinglar, - dedi knyaz' Dizmani ikki suhbatdoshiga tanishtirib. Polkovnik ular bilan anchadan beri tanish ekan.

Nemis tilida gaplasha boshlashdi. Knyaz' Dizmaning xo'jalikni boshqarish sohasidagi iste'dodini ko'klarga ko'tarib maqtay ketdi. U Nikodimni dam-badam ekonomikaning Napoleoni deb atardi. Diplomat odob bilan bosh irg'ar, graf Konespol'skiy esa nuqul knyazning gapini ma'qullardi.

Nogahon g'oyat ozg'in xonim divandan turdi.

- Sizni xotinim bilan tanishtirishga ruxsat etgaysiz. U anchadan beri siz bilan tanishishni orzu qilib yurardi, - dedi knyaz' va Dizmani o'sha ozg'in xonim tomon boshladi. Bu xonimni ko'rgan odam uning yoshini darhol aniqlayolmasdi. Harqalay unga yigirma besh ham, qirq ham berish mumkin edi. Xonim uzoqdan jilmayib keldi-da, knyaz' mehmonning familiyasini aytib ulgurmasdanoq, xitob qildi:

- Bplaman, bilaman, menga aytishdi. Salom, pan rais. Nihoyat, millatimiz asosi bo'lmish pomeschchiklarning joniga ora kirgan odamning qo'lini qisishga muyassar bo'lganimdan g'oyat xursandman!

Shunday deya u barmog'iga kichkinagina uzuk taqqan beso'naqay qo'lini Dizmaga uzatdi.

- Ziroatchilarni demochisan-da! - deya mayinlik bilan xotinining gapini tuzatdi knyaz'.

- Axir bular sinonim emasmi? - jilmaydi knyaginya Nikodimga qarab.

- Kechirasizlar, mezbonlik burchini ado etishim kerak, - dedi knyaz' ta'zim qilib, ularning yonidan nari ketar ekai.

- Grafinya Konespol'skaya bilan tanishishni istamaysizmi? U sizning muxlingiz. To'g'ri, u Venada tarbiya ko'rib, polyak tilida yaxshi gapirolmaydi, biroq sizning ishlaringizga juda qiziqadi. Apropos, siz nemis tilida gapirishni afzal ko'rasizmi yoki ingliz tilida?

- Menga polyak tili ma'qul.

- Eh, qanday vatanparvarlik! Sizni tushunaman. Chet ellar adabiyotini o'qish uchun xorijiy tillarni o'rganish mumkin, biroq hammasidan ham ona tilimiz afzal. Masalan, Jan Ogiyskiy... Siz Jan Oginskiyni taniysizmi?

- Uncha yaxshi tanimayman.

- Sizga aytsam, u bir oz g'alati odam, lekin kim bilsin, bunday uslubni qo'llash Vatanimiz oldida katta xizmat hisoblanar? U, chet ellik kishilar bilan faqat polyak tilida so'zlashaylik, degan shior tashlagan. Ajoyib-a, to'g'rimi? Rost-da, biz Parij yoki Londonga borganimizda ularning tilida gaplashamiz-ku axir! Shunday ekan, ular ham mamlakatimizga kelishganda bizning tilimizda gaplashishsin.

- To'g'ri, lekin ular tilimizni bilishmaydi-da.

- Ha, ha, tushunaman, nazariyot boshqa-yu, amaliyot boshqa. Siz haqsiz. Jan Oginskiy - g'alati odam, deb aytdim-ku axir.

Mehmonxonaning narigi burchagida asosan xonimlardan iborat sakkiz chog'lik kishi allanima to'g'risida qizg'in suhbatlashib o'tirishardi.

- Sizlarga rais Dizmani tanishtirishga ijozat etgaysizlar, - dedi ularga murojaat qilib fransuz tilida knyaginya.

Erkaklar o'rinaridan turib, o'zlarini tanitishdi-da, Nikodimning qo'lini qisishdi. Lyalya Konespol'skaya nemischalab allanimalarni bijilladi, ko'ziga monokl' taqqan chol takabburlik bilan ingliz tilida bpr narsa dedi. Bu gaplardan Dizma ikki marta o'z ismini tushundi, xolos.

U esankirab qolib, bir ko'ngli juftakni rostlamoqchi ham bo'ldi. Biroq knyaginya g'oyib bo'lgandi; unga stul surib qo'yishdi.

Dizmaning o'tirishdan bo'lak chorasi qolmagan edi. U noiloj jilmayib qo'pdi. Oraga jpmlik cho'kdi, shunda Nikodim biror gap aytishi lozimligini tushunib qoldi. Lekin miyasi g'ovlab ketgan edi. Nikodimning zardasi qaynay boshladi - nega bu odamlar u tushunmaydigan xorijiy tillarda gapirishadi, axir? U biror narsa deb javob bermoqchi bo'ldi, biroq tiliga hech nima kelmadi.

Shu payt grafinya Konespol'skayaning yonida o'tirgan siyqabosh va baqaloq odam uning joniga ora kirdi.

- Shunday qilib, - deya gap boshladi u, - pan raisning kamgaplgi haqidagi mish-mishlarning afsona emasligiga ishonch hosil qildik.

- Nihoyat. polyak tilida gapiradigan odam ham bor ekan-ku! - deb yubordi Nikodim chidab turolmay. U noqulay ahvolga tushib qolganidan shu qadar siqilib ketgan ediki, beixtiyor shu gap og'zidan chiqib ketdi. Shundai so'ng, u endi rasvo bo'ldim, deb o'ylay boshladi.

Barcha kulnb yubordi. Nikodim rasvo bo'lish u yoqda tursin, hatto o'tkir gap aytganini payqab, hayratga tushdi.

- Siz chet tillarga qarshimisiz? - deya so'radi qoshlari ingichka qilib terilgan, og'zi pistadek keladigan yoshgina qiz.

- Sira ham qarshi emasman! Lekin, menimcha, Oginskiy haq. - Nikodim ancha o'zini bosib olgan edi. - Adabiyotni o'qish va chet ellarga safar qilish uchun xorijiy tillarni bilish kerak, albatta. Ammo uyimizda polyak tilida gaplashishimiz lozim.

- Ah! O'jimijni tilni bilmashak-chi? - deya so'radi grafinya Konespol'skaya.

Dizma bir zum o'ylanib turdi-da, so'ng javob qildi.

- Bilmagan odam o'rgansin.

- Ofarin, ofarin! - degan tovushlar eshitildi.

- Chigal masalani hal qilish deb shuni aytsa bo'ladi, - dedi ishonch bilan oltin gardishli ko'zoynak taqqan, qora sochli barvasta kishi, - bu narsa davlatimizning obro'siga bog'liq.

Monokl' taqqan takabbur chol yonidagi keksagina ayol tomon egilib, asta dedi:

- Oliy hazratlarining kamergeri bizni yana buyuk davlat to'g'risidagi mulohazalari bilan siylaydigan bo'ldi. Bo'lajak valiahd getman!

Hamma jilmaydi, barvasta kishi esa e'tiroz bildirib boshladi:

- Hazilingizni qo'ying, ordinat . Men doim mamlakatimizni buyuk davlatga aylantirishning ikkita yo'li bor, deb aytib kelganman: boshqa xalqlar oldida obro'yimizni ko'tarishimiz va Yevropaning aristokrat xonadonlari bilai quda-andachilik qilishimiz lozim. Shu boisdan ham bugun oramizda mening fikrimni quvvatlab chiqqan davlat arbobi o'tirgaidan g'oyat xursandman. Chunki... U gapini davom etar ekan, Nikodim monokl' taqqan cholning o'ziga papiros uzatganidan foydalanib, so'radi:

- Nega siz uni bo'lajak getman deb atadingiz?..

- Iye! Hali bilmaysizmi? Axir u krakovlik pomeshchik, deputat Lyaskovnitkiy bo'ladi. Juda olifta lekin birovga zarari tegmaydi... Baronessa fon Lidemarkka uylangani boisdan o'zini magnat deb hisoblaydi.

- ...Alohida davlat tuzishni... - deya davom etdi Lyaskovnitkiy, - bizning tabaqamiz asrlar davomida orzu qilib kelgan. Charneskiy dengizni suzib o'tgani, Julkevskiy Moskvani ishg'ol qilgani, Yan Varnenchi esa Venani zabt etganini unutmasingiz lozim...

- To'g'ri aytayapsiz, - uning gapini bo'ldi boyagi baqaloq, - lekin, azizim, hozir zamon o'zgarib ketgan.

- Xo'sh, nima qilibdi? Ilgarilari polyak dvoryanlari chegaralarda qon to'kishardi, bugun esa biz Vatanimiz ichkarisida davlat g'oyasining himoyachisi sifatida ota-bobolarimiz ishini davom ettirayapmiz. Biz davlatning tayanchi, agar istasangiz - uning xazinasi erurmiz.

- Chamasi, bizning xazinamizda, - dedi sekingina boyagi keksagina ayol, - faqat shu fikr qoldi, xolos. Hozirgina ordinat deb atalgan monoklli chol Nikodim tomon ta'zim qilib dedi:

- Xazinamiz tez kunda konkret boylik bilan to'ldirilishiga umid qilamiz. Grafinya Konespol'skaya fusunkor tabassum bilan Dizmaga murojaat qildi.

- Ach, sagen Sie, bitte, Her Prasideut ... Ach, pardon . Grafinya so'zlarni juda buzib talaffuz qilarkan, polyak tilida so'zlay boshladi: - balkim, sizniki manga aytadi, bunday adjoyip fikr qaday miyaga keladi?

- Qanday fikrni aytayapsiz?

- G'alla obligatsiyasi haqidagi anov genial fikr-a? Meniki sira ham hal... haligi odamlar bor-ku...

- Topqir odamlar, demochimisiz? - deya unga yordam bermoqchi bo'ldi ordinat.

- Mais non Okonomi , por exemple muzikada Stravinskiy o'xshakan keshilar...

- E-ha, - izoh berdi siyqabosh baqaloq, - pani Lyalya, yangi oqim kashfiyotchilari demochilar.

- Ha, ha, - deya tasdiqlari grafinya, - meniki buday genial fikrlar qaday uylab chiqorilishga juda kizikadi. Nikodim yelkasini qisib qo'ydi.

- Bu juda oson narsa: odam kresloga o'tirib, bir oz xayol suradi-da, yangi fikr o'ylab chiqaradi. Nikodim boshini qo'lga tirab qanday o'tirish lozimligini ko'rsatib ham berdi. Buni ko'rib hamma kulib yubordi. Boyadan beri Dizmani lornet orqali kuzatib turgan kul rang ko'ylakli xonim bosh irg'ab dedi:

- Pan rais, siz tengi yo'q ekansiz. Bunday yumor menga Bester Kitonni eslatadi: u ham biror kulgili gap aytganda o'zini doim beparvo ko'rsatardi.

- Siz badjahil odam ekan, - dedi Lyalya ranjigan bo'lib. - Meniki, buday fikrni uylab topish kiyinmi, deb suragan edi.

- Sira ham qiyin emas, - deya javob qildi Dizma, - juda oson. Faqat bir oz...

U xorijiy so'zlar lug'atida bu so'z qanday yozilgani u intuitsimi yoki inflyatsiyami ekanligini eslayolmadi va shu boisdan tavakkal qilib dedi:

- ...Intuitsiya kerak.

Yana kulgi ko'tarildi. Shu payt uy bekasiga ko'zi tushib qolgan keksa xonim xitob qildi:

- Janet! Raising juda dilbar odam ekan-da!

- Qanday ajoyib espret d'a propos , - deya qo'shimcha qildi qoshi terilgan qiz.

Knyaginya behad xursand edi. To'g'ri, Dizma bundan oldingi yig'inga kelgan Adlen Jerboning amakivachchasi kabi shov-shuvga sabab bo'lmadi, ammo bugun ham barcha "yig'in yulduzi"dan mamnun edi. Dizmaning atrofiga borgan sayin ko'proq mehmonlar yig'ila boshlashdi. Nikodim ozg'ingina baronessa Lesner bilan salomlashdi. Dizma bu xonimni Pshelenskayanikidagi bridj o'yinida uchratgan edi. Chamasi, pani Pshelenskaya baronessadan sir saqlamas ekan, chunki xonim Nikodimdan darhol "anovi boyaqish Jorj Ponimirskiy" yaxshi yuribdimi, deb so'radi.

- Rahmat, yomon emas.

- Siz Ponimirskiy bilan tanishmisiz? - deya so'radi qoshi terilgan qiz.

- Bo'lmasam-chi! - dedi javoban Nikodim. - U bilan Oksfordda birga o'qiganmiz. Ponimirskiylar oilasi haqida gap boshlandi, bu yerdagilar ularni yaxshi bilarkan. Payt poylab turib gapga deputat Lyaskovnitkiy aralashdi:

- Bu oila fojiasi naqadar mudhish-a! Qizlarini sudxo'rga erga berishibdi. Uning familiyasi nima edi?

- Kunitskiy, - deya eslatdi Nikodim.

- Tengsiz nikohlar, - gapida davom etdi deputat, - bizning tabaqamiz sha'niga dog' tushirib qo'yishi mumkin va...

- Pan deputat, - deya uni to'xtatdi knyaginya, - gapingizni bo'lganim uchun kechirasiz, lekin sizdan bir narsani so'ramoqchiman... Lyaskovnitkiy uning oldiga kelgach, grafinya shivirlab dedi:

- Yodingizda bo'lsin: rais, menimcha, Ponimirskiylarning qarindoshi bo'ladi. Bu orada Pshelenskaya haqida gap ochildi. Baronessa, pani Pshelenskayaning yoshi ellikdan oshdi, derdi, biroq ordinat, u hali qirq beshga ham bormagan, deya e'tiroz bildirardi. Nikodim jamoatni xabardor qilib qo'yishni lozim topdi:

- Pani Pshelenskaya endi o'ttiz ikkiga to'ldi. Barcha unga ajablanib tikilib qoldi, shunda siyqabosh baqaloq so'radi:

- Buni qayoqdan bilasiz, pan rais? Balki, yoshi kattaroqdir?

- Nega bilmas ekanman, - dedi qat'iy ohangda Dizma, - aniq bilaman: menga buni pani Pshelenskayaning o'zlari aytganlar. Bu gapni mutlaqo jiddiy gapirgan Nikodim umumiy qaxqaha ko'tarilganidan og'zi ochilib qoldi. Konespol'skaya nuqul unga, tilingiz zahar ekan, derdi.

Dizma garchi bu jamoaga ancha ko'nikib qolgan bo'lsa-da, Yashunskiy ko'rib, ancha yengil tortdi. Nikodim atrofida gilaridan kechirim so'rab, ministrning yoniga bordi. Ular deraza oldiga borib turishgach, Yashunskiy unga allaqanday latifani aytib bera boshladi.

- Ajoyib odam, - dedi Dizmaning ortidan deputat Lyaskovnitkiy.

- U kim bilan gaplashyapti, - deya qiziqsindi yoshi o'tib qolgai xonim.

- Ha... Rais Dizma... Hatto oddiy suhbat paytida ham muhim ishlar haqida o'ylayotgani shundoq sezilib turibdi. Juda qiziq odam ekan.

- Davlat arboblari odatda shunaqa bo'ladi, - dedi komil ishonch bilan deputat.

- Juda dilbar odam ekan, - deya gap qotdi qoshi terilgan qiz.

- U chindan ham kurlyandiyalik baronlardanmi? - so'radi yoshi o'tib qolgan xonim.

- O, bo'lmasam-chi, - deya tasdiqladi o'zini shajara bobida juda bilimdon deb hisoblaydigan Lyaskovnitkiy. - Shubhasiz.

- Juda Commeit faut odam ekan, - deya xulosa qildi knyaginya.

Nikodim uyiga barvaqt qaytdi-da, knyaz' Rostotskiyning mehmonxonasida o'zini odamshavandalarcha tutib, obro' orttirishini bir oz o'ylab ko'rgach, uxlagani yotdi.

Shunday qilib, u oliy tabaqa kibarlar bilan ham tanishdi va ular Nikodimning hurmatini joyiga qo'yishdi. Uni turli kunlarda o'tadigan bir necha yig'inga taklif qilishdi. Nikodim yig'in kunlarini yon daftariga yozib qo'ydi. U iloji boricha ko'proq xonadonlarga borishga ahd qildi: buning foydasi tegsa tegardiki, zarari tegmasdi.

Aslida u kibarlar haqida unchalik yaxshi fikrda emasdi.

"Ahmoqlar, - deya o'ylardi Nikodim, - bir og'iz so'z aytsang, bas, go'yo sen Amerikani kashf etgandek, voh-voh qilishadi".

Biroq uning g'oyat kamgap odam deb nom chiqarishiga sabab bo'lgan yo'lidan voz kechish niyati yo'q edi.

Nikodimning uyqusi qochib ketdi. U anchagacha ketma-ket papiros chekib, u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib yotdi-da, nihoyat, o'rnidan turib chiroqni yoqdi.

Uning miyasiga: Ninadan kelgan xatlarni o'qisammikin? - degan xayol keldi. Xatlar ancha yig'ilib qolgan bo'lib, birontasi ham hali ochib o'qilmagan edi. Dizma yana to'shakka cho'zilib, xatlarni o'qiy boshladi. Barcha maktublar bir xil yozilgan bo'lib, ularda muhabbat, sog'inch, umid haqidagi gaplar takrorlanar va turli mavzuda mulohaza yuritilib, Koborovoga kelishi iltimos qilinardi. Bu xatlar shu qadar zerikarli ediki, Dizma chorak soat o'tmasdan, ularni polga uloqtirib, chiroqni o'chirdi.

U hayotida duch kelgan ayollarni eslay boshladi. Nikodim uchrashgan ayollar uncha ko'p emasdi. Biroq, tan olish kerak, ularning birontasi ham Ninachalik ko'p vaqtini olib, o'zi haqida shuncha ko'p o'ylashga majbur qilmagandi. Dizma Lutskaya ko'chasida turadigan Man'kani ham esladi. Butunlay tubanlashib, fohishalikni kasb qilib olgan bo'lsa kerak, bechora. Aslida, qizchaga achinadi odam... Sobiq ijaragirlari qanday katta odam bo'lib ketganini bilsa, nima derkin... Og'zi ochilib qolsa kerak o'ziyam... Knyaz' Rostotskiy mehmonxonasida uchratgan anovi xotinlar-chi...

"Ular ham menga ko'z suzishdi, lekin ochig'ini aytsam, bunday xotinlarni boshimga uramanmi... Darvoqe, xotinlarning hammasi bir go'r. Agar sog'lom erkak bo'lsang, nima qilishni o'zing yaxshi bilasan..."

11-bob

Kuzatuv sovetining majlisini rais Dizma ochdi, so'ngra sekretar' Kshepitskiy kun tartibini e'lon qilgach, direktor Vandrishevskiy so'z oldi.

O'n besh chog'li odam yig'ilgan bo'lib, barcha hisobot dokladini diqqat bilan eshitardi. G'alla bankasining ilk faoliyati juda yaxshi natija bergan edi; qishloq xo'jaligidagi jonlanish, sun'iy o'g'itlar, yangi mashinalar, yog' zavodlari uchun asbob-uskunalarni ommaviy ravishda sotib olinayotgani shundan dalolat berib turardi. Vaziyat analizi g'alla narxining ko'tarilishi mamlakat iqtisodiy hayotining o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatganini isbotlamoqda edi. Krizis bartaraf qilindi desa bo'lardi. Bularning bari muhtaram raisimiz Nikodim Dizmaning genial eksperimenti va uning mamlakatdagi qishloq xo'jalik siyosatiga tadbirkorlik bilan rahbarlik qilishi tufayli amalga oshgandi.

"Ofarin", degan xitoblar eshitildi, rais o'rnidan turib, kuzatuv sovetining a'zolariga birma-bir ta'zim qildi.

Kabinetga oyoq uchida yurib kirgan kur'er Kshepitskiyni chaqirib chiqib ketganida mayda hisobotlar o'qilmoqda edi.

Sekretar' bir zumda qaytib kirdi-da, raisning qulog'iga shivirladi:

- Pan rais, grafinya Konespol'skaya kelibdi.

- Konespol'skaya? Nima kerak ekan unga?

- Sizga bir narsa demoqchi. Ofatijon xotpn-da, o'ziyam. Departament boshlig'i Marchevskiydan o'rningizga raislik qilib turishni iltimos qilib, uning oldiga chiqing.

- Noqulay bo'lmasmikin?

- Noqulayligi nimasi? Baribir endi muhim gap bo'lmaydi, takliflarni munozara qilib o'tirmay qabul qilishadi.

- Yaxshi. Nimani bahona qilay?

- Chet ellik kishini qabul qilishim kerak, desangiz ham bo'ladi.

- Kimni?

- Ahamiyati yo'q, kimligini so'rashmaydi - chet ellik desangiz bo'ldi.

Nikodim ishora qilib hisobot o'qiyotgan amaldorni to'xtatdi.

- Meni kechirasizlar, chet eldan muhim ish bilan bir odam kelibdi. Pan Marchevskiy, balki mening o'rnimga raislik qilib turarsiz? - Bajonu dil!

Dizma ta'zim qildi-da, kabinetdan chiqib ketdi. Qora ko'zoynak taqqan baqaloq yonida o'tirgan odamga engashib asta dedi:

- Bu Dizmaning miyasi xo'p ishlaydi-da. Ministr bo'lsa arziydi.

- Juda serg'ayrat odam.

Qabulxona xizmatini ham o'taydigan mo'jazgina mehmonxonada Dizmani grafinya Konespol'skaya kutub turgan edi. Brezent kombinezon, peshanasida ko'zoynak yaltirab turgan charm shlemda uni sira tanib bo'lmasdi. Grafinya noz-karashma qilib, Dizma bilan salomlashdi; so'zlarni buzib talaffuz qilib, Dizmani qishloqqa olib ketgani kelganini aytdi.

Nikodim angrayib qoldi. Uning biror joyga borgisi yo'q bo'lib, boz ustiga kechqurun Vareda bilan uchrashishiga va dalashib qo'ygan edi. Ammo Dyalya gapga ko'nadigan ayollardan emas ekan. U Dizmaga kutilmagan sovg'a va da qildi; bu ham ta'sir qilmagach, ko'zini suzib ochiqdan-ochiq erining chet elga jo'naganini aytdi.

Nikodimning rozi bo'lishidan boshqa iloji qolmadi. Uyga kirib, qayta kiyinib chiqishga va Lyalyaning maslahatiga binoan, pijamani olishga to'g'ri keldi. Ignatiyga o'zining jo'nab ketayotganini Kshepitskiyga aytib qo'yishni buyurib, Dizma zinapoyadan pastga tushdi.

Konespol'skaya uni ikki o'rinli eshiksiz poyga avtomobilda kutib o'tirardi. Buni ko'rib Dizma bo'lajak sayohatining oqibatidan cho'chib qoldi.

Dyalya mashinani shitob bilan haydab, chorrahada turgan politsiyachini urib ketishiga sal qoldi. Shundan so'ng u kapalagi uchib ketgap Nikodimga jilmayib qarab qo'ydi-da, tezlikni yanada oshirdi. Bir necha minutdan so'ng ular zastavaga yetib borishdi. Shu yerdan yaqinda asfal't yotqizilgan o'qday shosse boshlanardi. Lyalya tezlikni bir yuz yigirma kilometrta yetkazdi.

- Yaxshimi?

- Yo'q, - deya rostiga ko'chdi Dizma,

- Nega?

- Juda tez ketyapmiz, nafas qaytyapti...

Dyalya tezlikni bir oz pasaytirdi.

- Sizniki tejlilni yamon ko'radi?

- Ha, yomon ko'raman.

Lyalya kulib yubordi.

- Men esa juda yaxshi ko'radi... O'tgan yili Myunxendagi avtomobil' poygada meniki tejlil uchun ikkinshi mukofot olgan, ushanda men...

Shu payt bir narsa qattiq qarsillab ketdi. Lyalya tormozni bosgan edi, mashina yo'l chetida to'xtadi.

- Nima bo'ldi?

- Ichak yorildi! - xonim kula-kula mashinadan sakrab tushdi. - Qani, yordam bering!

Nikodim zapas g'ildirakni o'rnatishga yordamlashib yubordi. Ular joylaridan qo'zg'alishgan zahoti Lyalya bijillay boshladi:

- Shin ursin! Koshim kyuzimga tushdi!

Nikodim xaxolab kulib yubordi.

- Kipringizmi? Lyalya jahl bilan dedi:

- Boringe! Baribir emasmi. Marhamat, karab, tujatib ko'ying; Meniki qo'l iflosh.

Nikodim uning ko'ziga qaradi. Chindan ham uzun kiprik tolasi qovog'ining ostiga qayrilib qolgan ekan.

U to'g'rilab qo'yish uchun qo'l cho'zgan edi, Lyalya uning bilagiga urdi:

- Nega ko'lingij bilan, sizda ham ko'l iflosh!

- Nima bilan to'g'rilay bo'lmasa? - so'radi ajablanib Nikodim.

- Ah, shunday aklli odam - shunday tentyak! Labingij bilan!

Nikodim kulib yubordi.

- Shunaqa deng, bo'пти, bosh ustiga.

U labini bir necha bor grafinyaning titrab turgan qovog'iga tegizdi.

- Qalay, yaxshi bo'ldimi?

Lyalya bosh irg'adi.

- U ko'zim yakshi bo'ldi, endi boshqasini.

- Iye! Boshqa ko'zingizga ham kiprik qadaldimi?

- Hoziycha kadalangani yo'q, lekin keyin qadalishishi mumkin. - Shunday deya Lyalya Nikodimga yuzini tutdi. Dizma unga engashdi, keyin ular o'pisha boshlashdi.

- Yoqdimi?

- Ha.

- Unday bo'lsa, ketdik!

Lyalya bir sakrab, mashinaga chiqdi.

- Qani utiring! Utiring!

Avtomobil' shitob bilan joyidan qo'zg'aldi.

"Jin ursin! - deya xayolidan o'tkazdi Dizma. - Bu xotinar kishini tiriklayin yutib yuborishdan ham toyyishmaydi".

Ular butazorni kesib o'tishgach, yo'lda ketayotgan boshqa bir mashinaga yetib olishdi. Lyalya fransuzchalab allanima deb qichqirdi. Mashinada o'tirgan ikki yosh qiz unga quvnoq javob qilishdi. Mashinalar birpas yonma-yon ketdi, qizlar bilan Dizma bir-birlarini ko'zdan kechirishdi. Chamasi, qizlarning ikkovi ham ko'hlikkina edi; unday desa, buni aniq aytib ham bo'lmasdi, chunki qizlarning yuzini shoferlar taqadigan ko'zoynak to'sib turardi.

- Ular kim? - so'radi Nikodim Lyalyadan.

- Panna Iks bilan panna Igrek, - deya javob qildi qiqirlab kulgan grafinya.

- Tushunmadim.

- Tushunishning hojati yo'q. Hamma narshani tushunish nima kerak? Hali o'zingizniki ko'radi.

- Ular ham siznikiga ketishyaptimi?

- Aha!

- Demak, u yerda ko'p odam bo'lar ekan-da?

- O, yo'q! Sizniki jyuda sinchkov ekan. Ko'rasiz. Aytdim-кувЂ” kutilmagan sovg'a deb.

Dizma zardasi qaynab, shubhalana boshladi. Shungacha Nikodim Konespol'skaya meni eri yo'qligi uchungina amlokiga olib ketyapti, deb o'ylagandi: ko'zga qadalgan kiprik voqeasi shundan dalolat berib turgandek edi. Endi ma'lum bo'lishicha, u yerda boshqa odamlar ham bo'lar ekan...

Chindan ham ular shossedan ikki chetiga ihota butalari o'tkazilib, chiroyli qilib qirqib qo'yilgan yo'lga burilishganida, Dizma uy oldida bir necha avtomobil' turganini ko'rib qoldi.

Ayvondagi to'qima kreslolarda xonimlar o'tirishardi. Avtomobil' to'xtagan zahoti ular uy bekasini olqishlab, ayvondan pastga yugurib tushishdi-da, Dizmani qiziqib ko'zdan kechira boshlashdi. Bir talay ayollar orasida yolg'iz qolgan Nikodim o'zini yo'qotib qo'ydi.

- Kuchli odam deganlari shunaqa bo'lar ekan-da! - dedi qichqirib yuz-ko'zini bo'yagan malla soch xonim.

Dizma hurpayib, indamay ta'zim qildi. Uy bekasi mehmonlardan kechirim so'radi-da, kiyimini almashtirish uchun ichkariga kirib ketdi. Xonimlar Nikodimni qurshab olishdi.

- Pan Nikodim, siz G'arb udumining muxlisimisiz? - deya so'radi jiddiy ohangda miqtidan kelgan qora soch juvon.

Dizma unga ajablannb qaradi.

- Nima demoqchiligizni tushunmadim?

- Tortinmay gapiravering, - deya uni tinchitdi ko'zlari xayolchan boqadigan nimjongina qiz, - bu yerga faqat sirdosh ayollar yig'ilgan.

"Ish rasvo, - xayolidan kechirdi Dizma, - ular meni mazax qilishyapti".

- Biz faqat sizning qaysi cherkov tarafdori ekanligingizni bilmaymiz, - deya gap qotdi qora soch juvon. - Siz qay birini ma'qul ko'rasiz - oq cherkovnimi yoki qora cherkovnimi?

- Men katolikman, - dedi Dizma bir zum ikkilanib turgach.

Ayollar kulib yuborishganini ko'rib Dizma battar kalovlanib qoldi. Dilida u Qonespol'skayaning gapiga ko'nib, bu yerga kelgani uchun o'zini rosa koyidi.

- Ah, pan rais, - deya xitob qildi sochlari bo'yalgan xonim, - siz juda g'alati odam ekansiz! Nahotki har bir kuchli odam, ayollar oliy mavzuda fikr yuritishga qodir emas, deb o'ylasa?

- Siz sir boy berishni yomon ko'rar ekansiz.

- Sira ham unday emas, men faqat sizlar nimani nazarda tutayotganingiznn tushunolmayapman.

- Xo'p, yaxshi, - dedi bir oz shashtidan tushib qora soch juvon, - bo'lmasa bizga bir narsani ayting, panna Rena, - shunday deya u rangpar qizga ishora qildi, - panna Rena samoviy flyuidlarga yaxshi o'tkazgich bo'la oladimi?

Nikodim panna Renaga bir qarab qo'ydi-da, yelkasini qisdi.

- Men qayoqdan bilay?

- Tushunaman, lekin harqalay fikringizni ayting-chi?

- Agar yo'lni yaxshi bilsa, ehtimol, bo'lishi mumkin.

Oraga sukunat tushdi. Xonimlar o'ylanib qolishdn.

- Siz ezoterik yo'lni nazarda tutyapsizmi? - so'radi qora soch juvon.

- Ha, - dedi tavakkaliga Nikodim, u uyga qaytgan zahotim lug'atga qarab, bu la'nati ezoterik yo'l qayoqqa olib borishini bilib qo'yay, deb diliga tugib qo'ydi.

Bu orada ular yo'lda quvib o'tishgan qizlarning avtomobili yetib keldi. Nikodim ulardan kattasining ismi Ivonna, kichiginiki Mariyettaligini, familiyalari esa Charskaya ekanligini bilib oldi. Qizlar kiyimlarini almashtirish uchun shu zahoti ichkariga kirib ketishdi.

- Juda yoqimtoy qizlar, - dedi sochi bo'yalgan xonim. - Menimcha, Mariyetta ajoyib medium3 bo'lishi mumkin. Uning nozik didi xotirjamligi bilan qo'shilib, g'oyat sezgir amal'gama hosil etadi. Shunday emasmi, pan rais?

- Ha, albatta.

- U bilan bir tajriba o'tkazmaysizmi, - deya xiralik qilaverdi sochi bo'yalgan xonim. - Mening sezishimcha, sizning irodangiz o'z-o'zini bilishning spiral' reaksiyasini osongina yengishi kerak. Ta'sir qilish imperativi - qanday istasangiz shunday aytaveringu - sub'ekt yoki ob'ektning o'zida hatto to'rtinchi darajada ham namoyon bo'lmagan oliy kuch qatlamlariga o'z ta'sirini bermalol ko'rsatishi mumkin. Faqat intuitsiyagina...

Xayriyat, shu payt Konespol'skaya kirib keldi-yu, Dizma peshanasidagi terni artib oldi.

- Diqqat dugonalarim! - deya xitob qildi grafinya ostonada to'xtab. - Mihmonimiz chet tilida gapirgan idamni yoqtirmaydi! Iye, sizniki shu yerdami! Salom, salom.

Bir ozdan so'ng xizmatkor paydo bo'lib, nonushta tayyor ekanligini xabar qildi.

Dizmaning baxtiga umumiy suhbat qizib ketib, u turli dudmal savollarga javob berish azobidan qutuldi... U ahyon-ahyonda ming'irlab qo'yardi. Suhbat ko'proq moda haqida, kuzni qanday o'tkazish to'g'risida borardi. Faqat chechan qora soch juvongina dam-badam Dizmaga avvaliga mistifikatsiyaday tuyulgan mavzuda gap ochardi. Oxiri u bu gaplarning bari fokuschilar stoliga aloqador bo'lsa kerak, degan xulosaga keldi.

Soat to'rtida ovqatlanib bo'lishdi. Vino bilan kon'yakdan ancha-muncha ichib qo'ygan xonimlar qizishib, sharm-hayoni ham unutishgandi, Bu yengiltak jamoat ichida Dizma hamon sir boy bermay sipo o'tirardi.

Mehmonlar yana ayvonga chiqishdi. Uy oldida turgan mashinalar ko'rinnmay qolgandi - chamasi, ularni garajga kiritib qo'ygan bo'lishsa kerak. Mehmonlar parkka tarqalib ketishdi. Uy bekasi Dizmaning qo'ltig'idan olib, ismi Stella bo'lgan haligi qora soch juvonni chaqirdi-da, ularni mehmonxonaga boshladi. Nikodim nihoyat hozir bu yerga kelishlari sababini tushunajagini angladi. Chindan ham Konespol'skaya jiddiy bir qiyofada kresloga o'tirib, oyoqlarini chalishtirdi. Stella papiros tutatdi. Shundan so'ng Lyalya ona tilini obdan buzib, xorijiy so'zlarni aralashirib, maqsadini tushuntira boshladi.

U qandaydir yangilik haqida va shu yangilikka binoan Pol'shada loja tashkil qilish to'g'risida gapirdi. Chunki ko'pgina mamlakatlarda bunday lojalar allaqachon tashkil qilingan bo'lib, bu yerda esa hanuzgacha yo'q ekan. Loja o'n ikki ayol va bir erkakka mo'ljallangan bo'lishi kerak. Ayollar Uch rangli Yulduz rohibalari, erkak esa - Buyuk O'nuchinchi deb ataladi. U uch qonun hayot, muhabbat va o'lim sultoni hisoblanadi. Bu loja qaysi teatrdan tashkil etilishini Konespol'skaya aytmedi.

So'ngra Stella so'z oldi. U shu qadar dudmal gapirdiki, Dizma deyarli hech nima tushunmadi. Unga bo'lajak tashkilot goh monastir' bo'lib ko'rinar, goh qullar bilan savdo qiluvchi shayka bo'lib tuyulardi. Chunki Stella "aldash yo'li bilan yosh qizlarni jalb etish, "spiritik zo'rlik", "qullikning azaliy qonuni" to'g'risida gapirmoqda edi.

Faqat bir narsa - grafinyaning bu ishga aloqasi kamligi, unga ko'proq Stellaning boshchilik qilayotgani aniq edi.

Yana Konespol'skaya gapira boshladi. Lyalya ular Nikodimdan Buyuk O'nuchinchi bo'lishni iltimos qilishga qaror berganlarini aytdi. Ular bukilmash iroda va teran aql sohibi Nikodimning hokim bo'lish uchun eng munosib nomzod ekanligiga ishonch hosil qilishganmish. Faqat Nikodim umumiy Baxt Ordeni sirini tashkil etuvchi uch nur - hayot, muhabbat va o'lim qonunlarini adolat bilan boshqara olarmish.

Dizma tutaqib ketgandi. U qo'llarini cho'ntagiga tiqqanicha xo'mrayib o'tirardi. U o'zicha bu ishda ishtirok etmaslikka ont ichib qo'ygan edi. Xo'sh, boshiga uradimi bu ishni u? Nima, u avaxtaga tushishi uchun shunday katta mansabni egallab, bir talay pul topayaptimi? E, yo'q! Xonimlar o'rnilaridan turib, Stella qo'rqinchli tovush bilan: "Usto, sen Buyuk O'nuchinchi hokimiyatini o'z zimmangga olishga rozimisan?" - deya so'rganida Dizma quruqqina qilib: "Yo'q. Rozi emasman", - deb javob berdi.

Xonimlarning yuzida qayg'u va hayrat ifodalari aks etdi.

- Nega endi?

- Eplolmayman.

- Ehtimol, germetik xarakterdagi biror to'siq bordir? - deya sirli ohangda so'radi qora soch juvon.

- Bunday deyishimning sababi bor.

Konespol'skaya iztirob bilan qo'llarini yozdi.

- Ustoz! Bizga ochig'ini ayt, ehtimol, bu shunchaki arzimas sababdir?

- E-e, qayoqda deysiz, - deya qo'l siltadi Nikodim, - Meni bu ishlarga aqlim yetmaydi.

Stellaning zardasi qaynab ketdi.

- Aqlim yetmaydi deng? Iltimos qilaman, ustoz, ustimdan kulmang! Lyalya fol ochdirgan ekan. Faqat siz Buyuk O'nuchinchi bo'lishingiz mumkin emish.

- Mening vaqtim yo'q! - deya o'jarlik qildi Dizma.

- Ustoz, bu ish ozgina vaqtingizni oladi. Misteriyalar bir oyda atigi bir marta bo'ladi.

- Istamayman.

Ikkala xonim nima qilishlarini bilmay, bir-birlariga qarab qo'yishdi.

Qora soch juvon qo'llarini osmonga cho'zib, mudhish bir ohangda shivirladi:

- Qudratli ordenimiz nomi bilan iltijo qilaman, yo tangrim: Uch Abadiy Nur uchun uning dilini och!

Lyalya taqvodorlik bilan qo'llarini dirkillagan ko'kragi ustida qovushtirib, boshini egdi.

Nikodim qo'rqib ketdi. U xurofotga ishonmasdi, lekin yana kim bilsin! Agar chindan ham hayotda yomon ko'z ayollar bo'lsa-chi?

Ko'z tegishdan xudo saqlasin. Harqalay yomon ko'zdan ehtiyot bo'lmoq kerak.

Miqtidan kelgan Stellaning ko'zlari Nikodimga teshib yuborgudek qadalib turardi. Dizma allanechuk bo'lib ketdi. U gardanini qashidi.

- Darhol bir narsa deyish qiyin... O'ylab ko'rish kerak...

Stella Lyalyaga kerilib qarab qo'ydi-da, dedi:

- Albatta. Buyuring, ustoz. Darvoqe, biz hammamiz sirdan voqif bo'lgan Terkovskiydan sizning qandaydir sirli kuchga ega ekanligingizni bilamiz. Shu boisdan ham...

- Terkovskiyning bunga nima aloqasi bor, - deya uning gapini bo'ldi Dizma. - Gap aslida nimadali va sizlar mendan nima istayotganingizni o'zim ham tushunmayapman.

- Hozir, ustoz! - deya qora soch juvon sumkasini titkilay boshladi. - Hozir sizga loja ustavi va Bilimning Uch Qonuni aqidini beraman.

U sumkasidan broshyura bilan mashinkada yozilgan bir necha varaq qog'ozni olib, Nikodimga uzatdi.

- Juda yaxshi! Marhamat qilib shuni o'qib chiqing, ustoz. Buning uchun ikki soat vaqt yetadi. To'g'rimi, Lyalya? Ko'rishguncha xayr! Sizni bu yerda yolg'iz qoldirib ketamiz. Soat yettida, ovqatdan oldin qat'iy qaroringizni eshitish uchun shu yerga kelamiz.

Iloyim, dilingizga Yulduz oqilligi yo'ldosh bo'lsin!

Xonimlar ta'zim qilib, chiqib ketishdi.

- Aqldan ozishibdi mochag'arlar! Kaltak yetishmay qolibdi ularga! - deya to'ng'illadi Nikodim va qo'lidagi qog'ozlarni burchakka qarab itqitdi.

U tashvishga tushib qoldi. Bu gaplarning bari uning uchun tomdan tarasha tushganday edi... Bu ishdan yo katta firibgarlik, yo narigi dunyodan arvohlarni chaqirishning isi kelib turardi.

- Eshak miya yeganmi bu la'natilar? Pullari bo'lsa, jamiyatda obro'lari bo'lsa, yana nima kerak ularga? Topgan gaplarini qarangu! Aqldan ozishibdi...

Nikodim qopqonga shunday osongina ilinganidan g'oyat darg'azab edi. Agar bu gaplar Varshavada bo'lganda-yu, indamay uyiga jo'nab qo'ya qolardi-ya...

Har qalay anovi qog'ozlarda nima yozilganini bir ko'rib qo'yish kerak.

Nikodim broshyurani ochib, so'kindi: u fransuz tilida yozilgan ekan. Uni yana burchakka qarab itqitmoqchi bo'ldi-yu, biroq birinchi betdagn rasmga qiziqib qolib, bu shashtidan qaytdi.

Rasmda hech qanday derazasi bo'lmagan bir zal tasvirlangan edi. O'rtadagi taxtda ko'zlarini yumib qop-qora soqolli ozg'in kishi o'tirardi. Uning tepasida uch qirrali yulduz yaraqlab, uch mash'ala yonib turardi. Taxtning atrofida qip-yalang'och xotinlar cho'zilib yotishardi.

Dizma ularni gugurt donasi bilan sanab chiqdi.

- O'n ikkita!.. Demak, bular rohibalar ekan-da... Anovi, nusxa esa men ekanman... He, jin ursin!

Nikodim kitobni varaqlay boshladi. Uning oxirida ham rasm bor ekan. Rasmni ko'rib Dizma bir seskanib tushdi: unda o'n ikki shoxli odambashara serka tasvirlangan edi. Endi shubhaga o'rin qolmagan edi.

- Iblis!

Nikodim dinga ishonmas va diniy marosimlarda qatnashmas edi. Lekin u harqalay cho'qinib qo'yishni lozim topdi.

- He, cho'chqalar!

So'ngra u mashinkada bosilgan qog'ozlarni varaqlab ko'rda-da, yengil tortib tin oldi: ular polyak tilida yozilgan edi.

Nikodim qog'ozdagi gaplarni sekin, ba'zi joylarni ikki-uch qaytalab o'qisa-da, ko'p narsalarni tushuna olmadi, chunki u ba'zi so'zlarning ma'nosini bilmasdi.

Bu qog'ozlardan u gap rohibalar jamiyati tuzish aqida borayotganini angladi. Bundan maqsad hayot, muhabbat va o'limdan iborat uch qonun idealiga yaqinlashish emish. Donolikka ruhan, jisman va aqlan lazzat ilish orqaligina erishilarmish. Buning uchun o'n ikki rohiba qullik rohatini his etishi va Iroda Sultoni, Yulduz Ustozi, Aql Manbai bo'lgan Buyuk O'nuchinchini qidirib topadigan bibi-himoyatgo'yni saylashlari lozim ekan.

Qog'ozda yozilishicha, tanlangan odam g'oyat zo'r iste'dod sohibi bo'lishi kerak emish. U serfazilat va dono odam bo'lmog'i va eng muhimi, bukilmaz iroda egasi va jisman barkamol bo'lishi kerak ekan.

Buyuk O'nuchinchi o'z vazifasini uch yil davomida bajarar, shundan so'ng uning o'rniga boshqa odam tanlanar ekan, Shu paragrafda Buyuk O'nuchinchi rohibalarga istagan ishini buyurishi va itoatsizlarni jazolash huquqiga ega ekanligi bayon etilgandi.

Loja sirlarini oshkor etgan odam o'lim jazosiga hukm etilar ekan.

So'ngra marosimlar tasvirlangan bo'lib, unda ruhan va jisman qo'shilish, may ichish, ibodat qilish va marhumlar bilan suhbatlashish to'g'risida gap borardi.

Oxirida mazkur ordenni jodugarlik va duoxonlik bilan chalkashtirmaslik lozimligi haqida eslatma berilgan edi.

Nikodim qog'ozlarni dastaladi-da, o'ylanib qoldi.

Buning ins-jinslar bilan bog'liq bo'lgan qandaydir uyushma ekanlig'i turgan gap edi. U Varshavadan chiqmasdan burun bu gaplarni

bilganida qani endi. He-he! U holda o'nta grafinya ham uni bu yerga olib kelolmasdi. Hozir bo'lsa...

Agar yo'q desa, kim bilsin, bu "rohibalar" uni nima qilishadi... Ular Nikodimni o'z sirlaridan voqif qilib bo'lishdi, endi ular Nikodim sirni oshkor etishidan cho'chib, biror baloga giriftor etishlari ham mumkin. Bu yerda sirni oshkor qilgan odam o'lim jazosiga hukm etilajagn ko'ning hassasiday qilib yozib qo'yilibdi.

- Qayoqdanam ilashdim bu alvastilarga!

Nikodim qo'llarini cho'ntagiga tiqib, xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Keyin u, ish men o'ylaganchalik chatoq bo'lmasa kerak, deb o'ylab qoldi. Axir lojaning boshlig'i o'zi bo'lib, barcha buyruqlarni ham o'zi beradi-da. Balki bir sinab ko'rish kerakdir? Harqalay, zaharlanib o'lish yoki ins-jinslarning qarg'ishiga uchrashdan ko'ra shu ham afzal edi.

Nikodim bu g'alati taklifni qabul qilishga moyil bo'lib qoldi. U, bir ko'ngli, u yog'i nima bo'lishiga qiziqayotgan edi. Dizma O'nuchinchilik vazifasini uddalay olmasligidan cho'chimasdi, haligi qog'ozning bir joyida ustoz faqat lojaning ma'naviy dohiysi hisoblanishi, aslida barcha ishlar va marosimlarni tashkil etishga bibi-himoyatgo'y rahbarlik qilajagi yozilgan edi.

Soat yettiga bong urib, eshik taqillaganida Dizma bir qarorga kelib qo'ygan edi.

Uning oldiga Stellaning yolg'iz o'zi kirishidan Nikodim bir oz xavotirga tushib qoldi. Chunki ko'zlari doim kulib turadigan, quvnoq va serharakat grafinyaning o'zini tutishidan bu ish juda oddiydek tuyulardi. Qora soch Stella esa nimasi bilandir juda ayyorga, buning ustiga aqlli, qattiq qo'l ayolga o'xshardi.

U ichkari kirib eshikni qulfladi. Shunda Nikodim o'zini jin ko'chada tayoq ushlab turgan qaroqchiga duch kelgan odamdek his etdi.

- Soat yetti bo'ldi, - dedi Stella tovushi do'rillab.

- Darrov-a? - Dizma jilmaydi. - Vaqtni tez o'tishini qarang-a!

- Qanday qarorga keldingiz? Xudoning amriga qarshi chiqmassiz, ishqilib?

- Yo'q, qarshi chiqmayman.

- Demak, men Buyuk O'nuchinchi oldida, o'z sultonim va hukmronim qarshisida turgan ekanman-da.

Stella shunday dedi-yu, boshi yerga tekkuday bo'lib ta'zim qildi. U shu qadar past egildiki, semiz otning sag'rasiday lorsillagan keti to'mpayib chiqdi.

So'ngra u qaddini rostladi-da, Dizmadan lotinchalab allanimani so'radi va javob kutib, unga tikilib qoldi.

Yana sarosimaga tushib qolgan Nikodim:

"Obbo, rosa tirg'ildi-yu bu alvasti!" - deya xayolidan o'tkazdi.

Panna Stella bir minutchka kutib turgach, yana lotincha savolini takrorladi. Biror narsa deb javob berishdan bo'lak chora qolmagan edi. Nikodim gimnaziya va nbodatxonada eshitgach biror lotincha iborani eslashga zo'r berib urina boshladi. So'ng birdan yengil tortib, msh oldi:

- Terra est rotunda .

Dizma bu gapning ma'iisini eslayolmasdi. Uning berilgan savolga aloqador yoki aloqador emasligini tasavvur qilish haqida gapirmasa ham bo'lardi. Nikodimning peshanasiga sovuq ter chiqdi, biroq u lotinchalab javob berganidan juda mamnun edi. Boz ustiga ancha o'rinli javob berganga o'xshaydi, chunki Stella yana ikki bukilib, ta'zim qildi-da, qo'llarini qovushtirib, do'rilladi:

- Amring vojib bo'lg'ay, ustoz.

So'ngra eshikni ochib, odatdagi tovushi bilan ovqat tayyorligini aytdi.

Dasturxonga qo'yilgan taomlar juda totli va serob edi. Dizma faqat stolga vino qo'yilmaganidan ajablandi. Grafinya Charskayalardan biri kayfiyatni yaxshilash uchun biror qultum sharob talab qilgan edi, Konespol'skaya jilmayib dedi:

- Yo'q, oltinginam, hozir emas. Bir oz sabr qilasan.

Hammasining kayfiyati jiddiy edi. Xonimlar qizarib o'tirishardi, ba'zilari hayajonining zo'ridan tuz ham totishmasdi. Ular Dizmaga bezovtalanib tikilib o'tirishardi.

Mehmonlar qahva ichish uchun buduarga o'tishgach, xizmatkorlar tarqab ketishdi. Shundan so'ng Konespol'skaya qo'shni xona eshigini ochib, gaplarini hech kim eshitmayotganligiga imoni komil bo'lgach, Stellaga qarab imo qildi. Hamma jimib qoldi. Stella o'rnidan turib, gap boshladi:

- Qadrli dugonalar, sizlarni rohiba egachilarim deb atamasimdan oldin barchangizning, jumladan sening ham, ustoz, - shunday deya u Dizmaga qarab ikki bukilib ta'zim qildi, - xona-xonalarigizga tarqalishingizni iltimos qilaman. U yerda sizlar qoq yarim tunda boshlanadigan buyuk misteriyaga jisman va ruhan tayyorlanish uchun xayolot og'ushida bo'lishingiz lozim. Sizlar yolg'iz qolib, turmush tashvishlarini miyangizdai chiqarib tashlashingiz, xonalarda hozirlab qo'yilgan oq jubbalarni kiyib olishlaringiz darkor. Tayyor bo'lganingizdan so'ng meni kutmog'ingiz kerak, men har biringizni alohida chaqirib kelaman. Tarqalinglar va hozirlik ko'ringlar.

Shunday deya u eshik tomon yo'l olib, ostonada Dizmaga ta'zim qildi-da, g'oyib bo'ldi. Boshqalar ham xuddi shunday qilishdi. Konespol'skaya Dizmani unga ajratilgan xonaga kuzatib qo'ydi va bosh iring'ab xayrlashdi.

"Yana nima balolarni boshlayapti ular! Chamasi, ins-jinslarni chaqirishsa kerak", - deya xayolidan o'tkazdi Dizma va atrofga alangladi. Nikodim, bu xonada biror g'aroyib narsaga duch kelsam kerak, deb o'ylagandi. Biroq yanglishibdi: yozuv stolidagi qora chamadonni hisobga olmaganda, hamma narsa oddiygina edi.

To'yib ovqatlaniganidan uni mudroq bosdi, Nikodim ahvolni bir o'ylab ko'rish uchun kushetkaga cho'zildi.

U bo'lajak tungi marosimdan cho'chinqirab turardi. Bu ishlarda o'zining qanday rol' o'ynashini u tasavvur ham qilolmasdi. Xo'sh, unga qanday vazifa yuklasharkin? Tug'ri, Nikodim u yerda boshliq bo'ladi, lekin bu mochag'arlar boshliqdan nimalarni talab qilishlari mumkin!.. Axir ular hamma narsani talab qilishlari mumkin: iblis chaqir, deyishsa-chi?

- Tuf-e! - deya gilamga tupurdi Nikodim.

Shu payt uning miyasiga bu mashmashalardan kasallikni bahona qilib qutulish mumkin degan fikr keldi. Masalan, bod kasalini ro'kach qilishi mumkin. Bir marta, Koborovoda, shu kasalni bahona qilib qutulgan edi.

Dizma Koborovoni eslab, ta'sirlanib ketdi. U yerda qanday osoyishtalik, ovqatini aytmaysizmi, hech qanday ish yo'q... Keyin Nina... U o'pishini qanday yaxshi ko'rardi-ya!

Nikodim, ayniqsa, Kasya jo'nab ketganidan so'ng Koborovodagi hayotim juda ajoyib bo'lib qoldi, deb o'yladi. Kunitskiy anovi proyektini unga aytib nima qilardi-ya! O'sha proyekt tufayli bankaga rais bo'lib qoldi...

"Qo'y, oshna, nolima... Aslini olganda noliydigan joyi ham yo'q", - iljayib qo'ydi o'zicha Nikodim.

Aqli borgan sari o'tmaslashib borardi. Nikodim haligi ovqatdan bo'shashib, uxlab qoldi.

U qattiq uxlab qolganidan eshikning taqillaganligi ham, Stellaning qadam tovushlarini ham, chamadon qulfining sharaqlab ochilganini ham eshitmadi. Faqat Stella uning yelkasidan ushlab silkiganidan keyingina ko'zini ochdi.

U darhol hammasini esladi. Stella unga astari qizil shoyi xalatga o'xshash bir kiyim uzatdi. Nikodim sakrab turib, ko'zlarini ishqadi.

- Vaqt bo'ldi, ustoz! - deya shivirladn Stella.

- Vaqt bo'ldimi?

- Ha. Hamma kutyapti. Tezroq jubbaning kiyib oling.

- Sizning oldingizda-ya? - ajablanib so'radi Nikodim.

- Yo'q, men chiqib turaman. Hamma kiyimingizni yeching-da, jubba bilan shippakni kiyib oling.

Juvon unga tumshug'iga oltin yulduz tikilgan mayin tuflini uzatib, xonadan sekingina chiqib ketdi.

Dizma bir so'kinib qo'ydi-yu, biroq tezgina kiyindi, ikki-uch minutdan keyin tayyor bo'ldi. Jubba bilan shippak unga bir oz kattaroq keldi. Yalang'och badanga kiyilgan sovuq shoyi uning uyqusini butunlay qochirib yubordi.

Nikodim oynaga qarab, jilmayib qo'ydi. Jubba uning tovonigacha tushar, ochiq chokli yengi va keng yoqasi juda g'alatn ko'rinaradi.

Yana Stella paydo bo'ldi. U Nikodimning qo'lidan tutdi-da, indamay qorong'i koridordan boshlab ketdi. Hamma yoq jimjit edi.

Ular koridordan ancha yurib, zinadan pastga tushishdi va yana koridordan chiqib qolishdi. Stella koridor oxiridagi eshik oldida to'xtab, uni uch marta taqillatdi. Eshik ohista ochildi. Ular qorong'i xonaga kirishdi. Eshik yopilib, qulf sharaqlagach,

Konespol'skayaning tovushi eshitildi:

- Hammasi joyida. Eshiklar qulflandi. Xizmatkorlarga ertaga tushgacha kelmaslikni buyurdim.

- Yaxshi, - dedi Stella Nikodimning qo'li qo'yib yubopmay, - kirib, joyingga o'tir.

Dizma Lyalya ham oq jubba kiyib olganini payqadi. Grafinya bir zumga qalin pardani ochib, ichkari kirib ketdi. Parda ortidan qizg'ish shu'la tushdi. Stella Nikodimga bir oz kutib turishni buyurdi-da, o'zi ham parda ortida g'oyib bo'ldi.

Qo'shni xonadan g'ovur-g'uvur ovozlari eshilib turardi. Kutaverib siqilib ketgan Nikodim pardani ochib qaramoqchi bo'lgan ham ediki, birdan uning o'zi ochilib, ostonada Stella paydo bo'ldi-da, anchagacha ta'zim qilib turdi.

Parda ortidagi zalda mebel' yo'q edi. Polga gilamlar to'shalgan bo'lib, har yer-har yerga rang-barang yostiqlar qo'yib qo'yilgandi. O'rtada qizil atlas sirilgan zarhal kreslo turardi. Kreslo ustida uch dona sham yoqib qo'yilgandi.

Shiftga osig'liq qandil xonaga qizg'ish shu'la sochib turardi.

Ikki tomonga qator kreslolar qo'yilib, ularda oq jubba kiygan ayollar o'tirishardi. Orqa tomondagi devorga uch xil nur sochayotgan yulduz tasvirlangan choyshab osilgandi. Pastdagi choyshabga esa qizil qog'ozdan qirg'ilgan harflar bilan: "Terra est Rotunda", deb yozib qo'yilgandi.

- Joyingga chnq, sultonim! - deya xitob qildi Stella va Nikodimni taxt oldiga boshlab bordi.

Dizma taxtga o'tirgan zahoti ayollar uni yarim doira shaklida qurshab olishdi. Stella bir qadam olg'a chiqib, gap boshladi:

- Sirdan voqif bo'lganlar! Siz, Uchrangli yulduz rohibalari, hozir ko'ksida bilim, hukmronlik va baxt timsoli porlashi lozim bo'lgan

sen, ustoz, men, sizning kamina bibi-himoyatgo'yingiz Uchrangli Yulduz Ordenining o'ttiz uchinchi lojasini ochiq deb e'lon

qilaman. Lojamizning yo'l ko'rsatuvchi iborasi qilib, Buyuk O'nuchinchining irodasiga ko'ra ulug' ma'noga ega bo'lmish hikmat:

"Terra est Rotunda" tanlandi. Bu hikmatda ordenimiz butun yer kurrasiga ildiz otajagiga ishonch, lojamiz ulkan zanjirning bir

halqasi bo'lib qolishiga umid va biz tirik rohibalarga bu zanjirni tutashtirish lozimligi haqidagi farmon o'z ifodasini topgan.

Eslataman, ordenimiz qonuniga binoan har birimiz agar boshqa bir a'zo chap qo'lini peshanasi, yuragi va ko'ksiga tegizib ilohiy so'zni aytsa, darhol uning buyrug'ini bajarishi lozim. Marosimni boshlashdan avval sizlarga voqif bo'lganlar aqidini yana bir bor eslatib o'tmoqchiman...

Dizma quloq solmay qo'ydi. Bu kutilmagan ahvoldan u shu qadar hayratga tushgan ediki, hatto fikrini bir joyga to'playolmay ham qolgandi. Nikodim ayollarga ko'z yugurtirib chiqdi. Ulardan ba'zilar bu g'alati kiyimda juda jozibali ko'rinaradi. Ochiq yelkalari

yaltiroq shoyi ichidan suzib chiqayotgandek tuyulardi, ko'kraklarining esa yarmi ochiq... Bu ayollar orasida o'zining yolg'iz

ekanligi haqidagi fikr Dizmaning hirsini qitiqlardi.

U endi bu haqda bosh qotirmasdi, faqat: Nahotki? Qachon? - deya o'ylardi.

Bu orada Stella gapini tugatib, qizil qutichadan ingichka tilla zanjirga osilgan kichkinagina oltin yulduzni chiqardi. Hamma yoq jimjit edi, u Nikodimning oldiga keldi-da, uning bo'yniga o'sha yulduzni osdi va uch qadam orqaga chekinib, gilamga yuz tuban

yiqli. Boshqa ayollar ham xuddi shunday qilishdi. Faqat Lyalyagina eshik oldiga borib, vklyuchatel' tugmasini bosdi.

Chiroq o'chdi. Nikodim bir seskanib tushdi. G'ira-shira xona, tepasida yonib turgan uch dona shamning zaif yog'dusi, yuz tuban

yotgan oq kiyimli ayollar - bularning bari uning yuragiga vahima solnb, hayajonlantirar edi.

Birdan Stella mudhish ovoz bilan baqira boshladi:

- Salom senga, salom, hayot, muhabbat va o'lim sultoni!

- Salom... salom! - deya titroq tovush bilan takrorlashdi boshqa ayollar.

- Salom, salom, iroda manbai!

- Salom... Salom! - takrorlashdi yana ayollar.

- Salom... senga, bilim soqchisi!

- Salom... Salom!..

- Salom senga, hayot ustoz!

- Salom... salom!

- Salom senga, lazzat ijodkori!

- Salom... salom!

Dizma bu hamdu sanoga quloq solar ekan, o'zicha: "Aqldan ozibdi bu xotinlar!" - deya o'yladi.

So'ngra Stella aljishdan to'xtab, Dizmaning oldiga yugurib keldi-da, Nikodim o'zini o'nglab olmasdanoq uning labidan o'pdi. Pani Lyalya, grafinya Charskayalarning ikkovi va boshqa xonimlar ham hayratdan serryayib o'tirgan Nikodimning labidan o'pishdi.

- Endi idishlardagi buxurni yoqinglar, - deya buyurdi Stella.

Xonaning burchaklaridan g'alati xushbo'y hid tarqatib, ko'kimtir tutun chiqa boshladi.

Ayollar yana Dizmani qurshab olishdi.

Stellaning ishorasi bilan ular bir-birlarining qo'llaridan tutishib, yarim doira tashkil etishdi. Stellaning o'zi esa qo'llarini ko'kka ko'tarib baqira boshladi.

- Kel, Hukmron!
- Kel... - deya takrorlashdi barcha ayollar.
- Ko'rsat bizga himmatingni! - xitob qildi Stella.
- Ko'rsat.
- Oramizga kelib tur!
- Kelib tur!
- O'z vakiling dilini och!
- Och...
- Ustozimiz jismiga kir!..
- Kir...
- Unga o't yoq!
- Yoq!
- Unga bitmas quvvat bag'ishla!
- Bag'ishla...
- Unga o'z nafasingdan olov ufur!..
- Ufur...

Nikodim allanechuk bo'lib ketdi.

- Kimni chaqiryapsizlar o'zi? - so'radi u qandaydir bo'g'iq tovush bilan.

Bunga javoban ayollar dahshat bilan qichqirib yuborishdi. Kimdir shu qadar qattiq chinqirdiki, Nikodimning sochlari tikka bo'lib ketdi.

- Gapirdi!.. Keldi!.. Bu o'sha!.. - deyishardi ayollar.

- Kim axir? - so'radi Dizma qo'rquvdan dag'-dag' titrab. - Kimni chaqiryapsizlar?

Shu zahoti orqa tomondan qattiq o'kirish eshitildi. Nikodim sapchib turmoqchi bo'ldi-yu, biroq majoli kelmadi. Boshni aylantiruvchi tutun orasidan rang-barang uchqunlar lipillab ko'rinardi.

- Yerga yiqiling, - deya uv tortdi kimdir. - U keldi! Sharaflar bo'lsin senga, sharaflar, muhabbat, hayot va o'lim sultoni! Sharaflar senga, zulmat hukmroni!..

Opa-singil Charskayalardan kichigi asabiy ravishda xaxolab kula boshladi, ayollardan biri o'rnidan sakrab turib, Stellaning pinjiga tiqilganicha qichqirdi:

- Uni ko'ryapman, ko'ryapman!

- Kimni? - deya baqirdi kapalagi uchib Dizma.

- O'shani, o'shani, iblisni!..

Nikodimning nazarida kimdir sovuq qo'li bilan tomog'idan bo'g'ayotgandek bo'ldi. U dahshat bilan bir chinqirdi-da, shilq etib kresloga yiqildi..

Buyuk O'nuchinchi hushidan ketgan edi.

U hushiga kelgach, avvalo og'ziga allaqanday suyuqlik quyilayotganini sezdi. Nikodim ko'zini ochdi. Uning naq tumshug'i oldida Stellaning qop-qora ko'zlari yaltirab turardi. U butunlay hushiga kelib ulgurmasidanoq Stellaning lablari uning labiga yopishdi.

Shunda Nikodim: tilida yana nordon hidli shirin suyuqlik mazasini tuydi. May! Nafasi qayta boshlagan Nikodim Stellaning itarib yubordi. Tutun ichida ayollarning egnidagi jubbasini oqarib ko'rinardi. Ular qo'shii xonadan stolchalar keltirib, ularning ustiga shisha va qadahlarni qo'ya boshlashdi. Konespol'skaya qo'lidagi shishachadan qadahlarga uch-to'rt tomchi allaqanday suyuqlik tomizardi, so'ngra ularga may quyishardi.

Har bir ayol qo'lga qadah oldi. Stella Dizmaga bokal uzatdi.

Xona ichi g'ovur-g'uvur bo'lib ketdi. Nikodim maydan bir ho'plam ichib, lablarini cho'lpillatdi.

- Shirin ekan!..

- Kelinglar, - ilohiy peyotl lazzatini suraylik! - xitob qildi zavq-shavqqa to'lib Stella.

Qadahlar bo'shatilib, yana to'ldirildi.

- Mayga nima qo'shyapsizlar?

Opa-singil Charskayalardan biri Nikodimning yonida turgan edi. U kreslo dastasiga o'tirdi-da, lablarini Dizmaning qulog'iga tekkizib, zavq bilan shiviray ketdi:

- Peyotlning ilohiy zahri, qanday ajoyib-a... Tomiringda o'ynayotganini sezyapsanmi, sultonim? Rost-a? Qanday jo'shqin, qanday serzavq!.. To'g'rimi?..

- To'g'ri, - deya iqrar bo'ldi. Nikodim va bokaldagi mayni simirib ichib yubordi.

U o'zining g'alati bo'layotganini sezib qoldi. Qalbi kutilmaganda quvonchga to'lib, atrofdagi barcha narsalar unga chiroyli ko'rinishga boshladi. Shu tobda hatto past bo'yli Stella ham ko'ziga jozibali ko'rinib ketdi.

Hammalarining dimog'i chog' edi. Ayollar kula-kula Nikodimni qurshab olishdi, qiy-chuv ko'tarilib, hayosiz qo'shiqlar eshitila boshladi. Ayollardan biri qo'lidagi qadahni devorga urib sindirdi-da, "Evoe!" - deya qichqirganicha jubbasini shartta yechib tashlab, raqsga tushdi.

- Ofarin! Ofarin! - deya qichqirishdi boshqa ayollar.

Gilam bir zumda yechib tashlangan atlas jubbalardan oqarib ketdi. Kichkina shishachadan qadahlarga sehrli sharbatning ko'kimtir tomchilari tinimsiz quyilardi.

Kimningdir qo'li tegib ketgan shamdon to'qillab polga tushdi. Xona ichi qizg'ish tusga kirdi. G'ira-shirada ehtirosli shivir-shivir va asabiy kulgi eshitilardi, xolos...

12-bob

Og'ir darparda yonidagi tirqishdan xonaga botib borayotgan quyoshning qizil shu'lasini tushdi. Nikodim og'irlashib qolgan qo'li bilan soatini paypaslab topdi.

Soat olti bo'lgan edi.

Qiziq. Uning na boshi og'rur, na og'zidan kakra mazasi kelardi. Odatda esa ichkilikbozlik qilganining ertasiga doim shunday

bo'lardi.
U faqat o'zining lattaday bo'shashib ketganini his etardi.
Biror harakat qilish u yoqda tursin, hatto ko'zini ochishga ham majoli qolmagan edi.
Lekin o'rnidan turmog'i kerak. Varshavaga jo'nashi lozim. Bankadagilar har nimani o'ylashi mumkin...
Nikodim qo'ng'iroq chaldi.
Salobatli xizmatkor kelib, vanna tayyorliginn xabar qildi.
Dizma erinibgina pijamasini kiydi-da, vannaxonaga yo'l oldi. U vannaxonadagi oynada o'z aksini ko'rib kapalagi uchib ketdi: rangi dokadek oqarib, ko'zlarining osti ko'karib ketgan edi.
- Jin ursin, rosa boplashibdi-ku...
Nikodim kiyindi-da, oyoqlarini arang surgab, pastga tushdi.
Pastda uni Lyalya Konespol'skaya.kutib turgan ekan. Grafinya uning salomiga javoban bo'shashibgina qo'l uzatdi.
- Qorningiz ochmi?
- Yo'q, rahmat, . .
U xonimga ko'z qirini tashlagan edi, ko'zi uning odatdagidek o'ynoqi ko'zlariga tushib, qulog'igacha qizarib ketdi.
"Obbo jin urgur-ey! - deya xayolidan kechirdi. Nikodim. - Sira uyalmaydiyam-a... Tundagi voqealarni unutmagandir axir?"
- Men ketishim kerak, - dedi Nikodim bir oz sukut qilib turgach.
- Marhamat, avtomobil' sizning ixtiyoringizda.
Ular oddiygina xayrlashishdi. Bundan Nikodim yanada ko'proq xijolatga tushdi. Mashina shossega chiqib olg'ach, u orqasiga o'girilib qaradi.
- Cho'chqalar! - to'ng'illadi Nikodim komil ishonch bilan.
- Eshitaman, - deya unga o'tirildi shofer.
- Haydayverng, haydayvering, sizga gapirayotganim yo'q.
- Kechirasiz.
Dizma tungi voqealar haqida o'ylay boshladi. Unga qo'rquv azob bermoqda edi. Nikodim hammasidan ham bu ishga iblisning aralashgan bo'lishi mumkinligidan cho'chirdi. Lekin u bir narsadan juda xursand edi: ma'lum bo'lishicha, u yuqori doiralarda graf yoki knyaz' kabi huquqqa ega ekan. Hatto undan ko'proq desa bo'ladi. Uning gapiga quloq solishlari kerak; Nikodim bu xonimlardan istaganiga imo qilsa bas, u xonim, oddiy fohishadek, darhol qo'yniga kiradi.
Lekin Dizma bu takabbur va olifta xonimlarni ilgari mutlaqo boshqacha tasavvur qilardi.
Nikodim mag'rurlanib kulib qo'ydi. Kshepitskiy to'g'ri aytgan ekan: xotinlarning bari bir go'r ko'rinadi.
Yomg'ir tomchilay boshladi. Avtomobil' banka oldida to'xtaganida u sharillab quymoqda edi.
Dizma trotuardan yugurib o'tib, darvozadan ichkari kirdi. Lekin zinapoyadan yuqori ko'tarilishi ancha qiyin bo'ldi: u go'yo og'ir yuk ko'targan odamdek arang qadam tashlardi.
- Rosa sillamni quritishibdi-yu, alvastilar!
Ignatiy unga kecha va bugun o'nga yaqin odam yo'qlab kelgani, bir necha marta sekretar' so'ragani, keyin pan rais qaytdimi, deya yigirma martacha qo'ng'iroq qilganini gapirdi. Lekin hammasidan ham bir surbet joniga tegibdi. U so'kinib to'polon ko'taribdi va pan raisning uyda yo'qligiga sira ishongisi kelmay, kvartiraga kirmoqchi bo'libdi. Nuqul, o'sha pan raisning mendan berkinib o'tiribdi, dermish...
- Ko'rinishi qanaqa uning?
- Past bo'yli, baqaloq bir odam...
- Familiyasini aytdimi?
- Aytdi. Bonchekmidi, shunga o'xshashidi
- He, jin ursin, - deya so'kindi rais. - U ablahning menda nima ishi bor ekan?!
- Agar yana kelsa, zinadan ketiga tepib tushirishim mumkin, - dedi Ignatiy.
- Hojati yo'q.
Shu payt telefon jiringlab qoldi. Kshepitskiy qo'ng'iroq qilayotgan ekan. U juda muhim ishlar borligini aytib, hozir oldingizga borsam maylimi, deya so'radi.
- Biror gap bo'ldimi?
- Yo'q, hech gap bo'lgani yo'q.
- Mayli, kutaman.
Nikodim Ignatiyga qora qahva hozirlashni buyurib, divanga yonboshladi.
U Kshepitskiyga grafinya Konespol'skayanikida boshidan kechirgan sarguzashtlarini aytilish yoki aytmalik haqida o'ylanib qoldi. Keyin buni sotqinlik deb hisoblashlari mumkin degan xayolga borib, o'zini xavf-xatarga qo'ymaslikka qaror qildi.
Ignatiy xatlarni keltirdi. Bular shaxsiy maktublar bo'lib, sekretar' ularni ochib o'qimasdi. Ninadan uchta xat va Kunitskiydan uzundan-uzoq telegramma kelibdi. Chol o'z telegrammasida temir yo'lga shpal yetkazib berish masalasi bilan shoshilinch ravishda, shug'ullanishni iltimos qilibdi. Chunki hozirgi kunda bu masala katta ahamiyatga molik bo'lib qolgan emish.
Dizma telegrammani o'qib tugatmasdanoq xonaga Kshepitskiy kirib keldi. U gapni grafinya Konespinskaya bilan qilingan sayohat haqidagi hazildan boshlab, bir nechta latifa aytib berdi. So'ng bankadagi ishlarning hammasi joyida ekanligini xabar qilib, gap orasida so'radi:
- Pan rais, anovi Boчек kim bo'ladi o'zi?
Nikodim xijolat tortdi.
- Boчек deysizmi?
- Ha, ha, ho'v bir marta kelgan semiz odam-da. U har kuni, go'yo siz uni qabul qilajagingizga imoni komildek, surbetlik bilan bankaga kelyapti. U sizning eski tanishingizmi?
- Shunga o'xshashroq.
- Menga u telba bo'lib ko'rindi.
- Nega?
- O'sha Boчекka sizning faqat juma kunlari qabul qilishingizni aytdimda, u to'polon ko'tardi. "Juma kuningga balo bormi, - deydi. - Pan raising juma kuni xohlagan odamini qabul qilaversin. Hali qarab turinglar, meni kiritmaganlarning uchun u sizlarning

adabingizni beradi... Kim bo'libdi o'sha pan raislaring..." - deydi nuqul.

Dizma sholg'omdek qizarib o'tirardi.

- Yana nimalar dedi?

Kshepitskiy papiros tutatib, yelkasini qisdi.

- Janjalkash, qo'pol odam ekan... U hatto, hali unga ko'rsatib qo'yaman, deb po'pisa ham qilib qo'ydi...

Nikodim qovog'ini solib to'ng'illadi:

- Hm, shunaqa odam deng... Pan Kshepitskiy, agar u yana kelsa, oldimga kiritib yuboring... Juda tentak odam o'zi... Doim shunaqa edi.

- Yaxshi, pan rais.

Kshepitskiy bu gapni odatdagi tovushi bilan aytdi, biroq Dizma uning yo biror narsani sezib qoltani, yoki ba'zi narsalarni aniqlamoqchi ekanligiga shubhalanmay qo'ygandi. Nikodim nima qilib bo'lmasin Bochekning ovozi o'chirishga ahd qildi.

Kshepitskiy Dizmanikida ovqatlangai qoldi. Suhbat Koborovo haqida borardi.

- Qishloqda yashash maza-da, hamma yoq jimjit, toza havo, - dedi xo'rsinib Dizma.

- Bu deymen, Koborovo sizda yaxshi xotira qoldiribdi-ku, - deya gap qotdi Kshepitskiy. - Ha, ajoyib joy! Nima qilasz cho'zib, Ninani eridan ajratib, unga uylanint-qo'ying.

- Agar Koborovo uniki bo'lganida-yu, jon deb uylanardim-a.

- Lekin rasman Koborovoning egasi Nina hisoblanadimi?

- Xo'sh, shunday bo'lsa nima qilibdi? Kunitskiy undan hamma mulkka vakolatnoma olgan.

- Vakolatnomani bekor qilish mumkin.

Nikodim yelkasini qisdi.

- Lekin veksellarni bekor qilib bo'lmaydi-da.

Kshepitskiy xayolga cho'mib, hushtak chala boshladi,

- Butun gap ana shunda! - gap qotdi Dizma. Kshepitskiy indamay hushtak chalaverdi.

- Ertaga qanday ishlar bor? - so'radi Nikodim.

- Ertagami!.. Hech qanday? O yo'q, Ha, darvoqe, sirkka taklifnoma bor. Hamma yoqda duv-duv gap: kurash bo'yicha jahon chempioni kelibdi - fmiliyasini unutibman..U Pol'sha chempioni Velyaga bilan kurash tushar ekan. Siz fransuz kurashiiii yaxshi ko'rasizmi?

- Bo'lmasam-chi. Demak, boramiz-a? Soat nechada ekan?

- Sakkizda.

Dizma sekretari bilan xayrlashdi-da, uxlagani jo'nadi. U pijamasini kiya turib, bo'ynidagi oltin yulduzni ko'rib qoldi. Nikodim uni darhol yechib, gugurt qutisiga soldi va yozuv stolining tortmasiga yashirib qo'ydi. So'ng chiroqni o'chirib, har ehtimolga qarshi cho'qinib oldi.

Uning xavotir olganicha bor ekay. Ertasi kuni soat birda Bochek hozir bo'ldi. Uning og'zidan aroq hidi anqib turardi.

Dizma muomalasini o'zgartirdi.

U Bochekning qo'lini qisib, stul surib berdi-da, xushmuomalalik bilan, menda nima ishingiz bor edi, deya so'radi. Shundan so'ng Bochek tortinib o'tirmadi. U haddidan oshdi, hatto takallufsizlik qilib, ransning yelkasiga qoqib qo'ydi.

G'azabi qaynab ketgan Dizma stuldan sakrab turib o'shqirdi:

- Yo'qol! Ablah! Yo'qol!

Bochek unga istehzo bilan qarab qo'ydi-da, o'rnidan turdi.

- Hali shunaqami? Endi mendan ko'rsan, bo'lmasam. Sendaqa kattakondan o'lgurdimu!

- Senga nima kerak o'zi? Pul kerakmi, yaramas? - deya o'shqirdi Dizma.

Bochek yelkasini qisib qo'ydi.

- Pul bo'lsa ham teshib chiqmaydi.

- O'-o'... Ablah!..

Nikodim cho'ntagidan yigirma zlotiy oldi-da, bir oz o'ylanib turgach, yana bitta yigirmatalik chiqardi.

- Nega achchig'lanyapsiz, pan Nikodim, - deya gap boshladi murosasozlik bilan Bochek, - axir sizga yomonlik qilayotganim yo'q-ku!

- Yomonlik qilmaganmish-a... Nega sekretarning oldida valdirading bo'lmasa?

Bochek stulga o'tirdi.

- Pan Nikodim, bir-birimizni payimizni qirqmay tinchgina yashasak bo'lmaydimi? Siz menga yordam berasiz, men esa sizga yomonlik qilmayman...

- Axir seni ishga kiritib qo'ydimu!

- Shuyam ish bo'ldi-yu, - dedi yelkasini qisib Bochek, - qandaydir to'rt yuz zlotiy deb sakkiz soat mashaqqat chekasan. Buning ustiga gumbir-gumbirini aytmayisizmi. Yo'q, bu ish menga to'g'ri kelmas ekan.

- Balki, seni ministr qilib tayinlash kerakdir, a? - deya iljaydi Dizma.

- Kulmang, pan Nikodim, sizni pravleniye raisi qilib tayinlashdimi axir?

- Chunki mening kalam bor, tushundingmi - kalam!

- Hammaniyam o'z kallasi bor. Menimcha, siz rais bo'lib turgan bir paytda, sobiq boshlig'ingiz bo'lgan menday odamning oyiga sakkiz yuz zlotiydan kam maosh olishi uyat bo'lsa kerak.

- Esingni yedingmi, Bochek? Sakkiz yuz zlotiy-a... Senga kim beradi bunday maoshni?

- Ayyorlik qilmang! Siz istasangiz bas - shunaqa odamlar topiladi.

Dizmaning ko'zlarida nafrat uchqunlandi. U bir qarorga kelib qo'ygan edi.

- Hay, mayli, pan Bochek, sizni... hm... davlat vino omborlari direktorining o'rinbosari qilib tayinlashga to'g'ri keladi...

Xohlaysizmi shu ishni?

- Mana bu boshqa gap. Ehtimol, kvartira ham berishar. Axir oilamni ko'chirib kelishim kerak.

- Kvartira ham berishadi, albatta. To'rt xonali, juda yaxshi kvartira. Oshxonasi ham bor. Isitish va elektr quvvati uchun haq to'lanmaydi.

- Maoshi-chi?

- Maoshi ming zlotiyga yaqin.

To'lqinlanib ketgan Bochek o'rnidan turib, Dizmani quchoqladi.

- Eh, pan Nikodim, siz bilan biz hamshaharmiz axir, demak, bir-birimizga yordam berishimiz lozim.

- Albatta...

- Men doim sizga do'st bo'lganman. Ba'zi birovlar, xaromi, tashlandiq bola, deb sizdan o'zini chetga olardi.

- Bas qil, jin ursin seni!

- Aytyapman-ku, ba'zi birovlar deb... E-e, nimasini aytay, butun Liskov sizni yomon ko'rardi, ammo men sizni hatto uyimda ham qabul qilardim.

- Shu ham katta ish bo'ldi-yu, - deya burnini jiyirdi Dizma.

- Bir vaqtlar katta edi, - dedi loqaydlik bilan Bochek, - bahslashishdan nima foyda?

Nikodim qovog'ini soldi. Unga hammasidan ham tashlandiq ekanligini eslatganlari alam qildi. Shunda u birdan o'zi bilan Bochek ikkoviga Varshava torlik qilib qolganini aniq his etdi... Ha, faqat Varshava ham emas.

Eh-a, agar sobiq yordamchisining dilida nimalar kechayotganini bilganida edi! U sirayam quvonmagan bo'lardi.

- Gap bunday, pan Bochek, - dedi Dizma, - bor hujjatlaringizni olib ertaga keling. Chunki sizni bu ishga joylashtirib qo'yishning o'zi bo'lmaydi. Sizni direktor o'rinbosari lavozimiga loyiq ekailigingizni isbotlamoq uchun ancha yelib-yugurishga to'g'ri keladi.

- G'oyat minnatdorman, pan Nikodim. Bu ishingizdan keyin o'zingiz ham xursand bo'lasiz.

- Xursand bo'lishimni o'zim ham yaxshi bilaman, - deya to'ng'illadi Nikodim. - Endi yana bir narsani aytib qo'yay: bu haqda hech kimga og'iz ochmang, aks holda bu ishning ishqibozlari ko'payib ketadi. Tushundingizmi?

- Tushundim, albatta.

- Bo'lmasam gap tamom. Ertaga o'n birga kelasiz. Shu payt eshik taqillab, ostonada Kshepitskiy paydo bo'ldi.

Bochek Dizmaga quvlik bilan ko'z qisib qo'ydi-da, iloji boricha beso'naqay gavdasini egib, ta'zim qildi.

- Salomat bo'ling, pan rais. Hammasini bajo qilaman.

- Xayr, ketaverishingiz mumkin.

Nikodim Kshepitskiy olib kelgan qog'ozlarni ko'zdan kechirayotgan kishi bo'lib, zimdan Bochekni kuzatayotgani ni payqab qoldi.

- Xo'sh, nima gap, pan Kshepitskiy?

- Hammasi joyida, pan rais. Mana, sirkka taklifnoma.

- Darvoqe. Demak, borar ekanmiz-da.

- Grafinya Charskaya qo'ng'iroq qilgan edi, unga sizning bandligingizni aytdim.

- Afsus.

- He-he-he... Tushunaman. Bu opa-singil Charskayalar juda ketvorgan qizlar-da... Bultur deng...

U gapini tugata olmadi, chunki shu payt kabinetga Vareda otilib kirdi.

- Salom, Nikus! Qayoqlarda g'oyib bo'lib yuribsan?

- Yaxshimisan, Vatsus'? Kshepitskiy ta'zim qilib, chiqib ketdi.

- Bilasanmi, oldingga kirishimning sababi bor - sirkka bormaysanmi? Dunyoda eng kuchli odam Trakko kelibdi, bizning chempionimiz Velyaga bilan kurash tusharmish.

- O'zim ham bormoqchi bo'lib turuvdim.

- Qoyil! - Vareda Dizmaning tizzasiga shapatiladi. - Barcha ulfatlar yig'iladigan bo'ldik: Ushitskiy, Lyanitskiy, Romanovich...

Telefon jiringlab qoldi.

- Allo!

Kshepitskiy yana grafinya Charskaya qo'ng'iroq qilayotganini aytib, ulaymi, yo'qmi, deya so'radi.

- Ulayvering... Allo!.. Ha, menman, yaxshimisiz?

Nikodim trubkani kafti bilan yopib, Varedaga shivirladi:

- Grafinya Charskaya!

- Bay-bay, bay-bay... - bosh chayqadi javoban polkovnik.

- Yo'g'-e, nimalar deyapsiz, sira xalal berganingiz yo'q. Aksincha, g'oyat xursandman.

Nikodim trubkani bo'yniga qistirib, Vareda uzatgan papirosni tutatdi.

- Kechirasiz, adabiyotdan hech baloni bilmayman... Chin so'zim... Qachon dedingiz? Xo'p, yaxshi... Opangizning sog'liqlari qalay?

.. Hm... Bilasizmi, men ham. Lekin bu haqda telefonda gaplashmaganimiz ma'qul... Teatrga, deysizmi?.. E-e-e... Men bilan sirkka bormaysizmi? Yo'q, bugun dunyoda eng kuchli odam kurash tushar ekan... Otimi?.. Vatsek, uning oti nimaydi? Italiyalik Trakko...

Yo'q, oldimda do'stim Vareda o'tiribdi.

- Nikus', unga mendan salom deb qo'y.

- Sizga salom deyapti... Boradi, albatta... Demak kelishib oldik-a... Sizni o'z mashinamda ola ketaman... Xayr.

Nikodim trubkani joyiga qo'ydi-da, jilmaydi.

- Eh, xotinlar, xotinlar...

- Borishadigan bo'lishdimi? - so'radi polkovnik.

- Albatta!

- Bo'lmasa, yur, ovqatlanib olaylik.

- Kshepitskiyni ham ola ketamiz.

- O'zing bilasan, - deya rozi bo'ldi Vareda.

Ular restoranda Ulyanitskiyni uchratib qolishdi-yu, o'yin-kulgi qizib ketdi.

- Bul'dog bilan laycha haqidagi latifani bilasizlarmi?

- Ehtiyot bo'! - deya ogohlantirdi uni Vareda. - Kimda-kim eski latifani aytib bersa, bir shisha kon'yak yutqazadi.

- O'pkangni bos, Vatsus', - dedi jiddiy ohangda Ulyanitskiy. - Bu qonunni joriy etgan odam kaminaning o'zi bo'ladi. Xo'p, eshitinglar. Marshalkovskayaning burchagida bir iskovuch it o'tirgan ekan.

- Sen bul'dog degan eding-ku...

- Boshimni qotirmasang-chi. Shunday qilib, iskovuch o'tirgan ekan. Saksonskiy bog'idan bahaybat bul'dog it yugurib chiqibdi...

Dizma o'rnidan turib, ming'irladi.

- Meni kechirasizlar...

- Nima, sen bu latifani eshitganmiding? - deya so'radi Vareda.

Nikodim latifani eshitmagan bo'lsa-da:

- Ha, eshitgandim, - deya javob qildi.

U shosha-pisha pal'tosini kiyib, shveysar ochib turgan eshikdan yugurib ko'chaga chiqdi.

Shofyor motorni o't oldirdi-da, mashina eshigini ochdi.

- Siz uyga ketavering, - dedi shofyorga Dizma.

U mashinani jo'nab ketishini kutib, bir oz turdi-da, so'ng Belyanskaya ko'chasi tomon ozgina yurib taksiga o'tirdi.

- Korol'kova bilan Vòl'skaya chorrahasiga haydang.

Bir vaqtlar "Fil" mayxonasida mandolina chalib yurgan kezlari Nikodim bu yerga oshnalari va tasodifiy tanishlari bilan tez-tez kelib turardi. Mayxona shinavandalari saxiyliklari tutib ketgach paytda butun orkestrni ham uylariga taklif qilguchi edi.

Tor va uzun Korol'kova ko'chasida bunday mayxonalardan bir nechitasi bor edi.

Avtomobil' aytilgan chorrahaga yetib bordi. Nikodim mashinadan tushib, shofyorning haqini to'ladi-da, jo'nab ketgach, Korol'kova tomon burildi.

Ko'chaniing ikki chetida bir-biriga o'xshab ketadigan fabrika korpuslari qad ko'targan edi. Ba'zi joylarga taxta devor o'rnatilgan bo'lib, yog'och uylar qaqqayib turardi. Ularning derazalaridagi sarg'ish darparda ortidan xiragina lampochkalar miltillab ko'rinardi. Bu uylar ishchilar uchun qurilgan pivoxonalar edi. Pivoxonalar bir-biriga shu qadar o'xshab ketardiki, ularni bir-biridan ajratib bo'lmasdi.

Nikodim tanish yo'ldan adashmay bordi-da, torgina eshikni oyog'i bilan turtib ochdi. Shu zahoti burniga tuzlangan karam bilan pivoning nordon hidi urildi. Xonaning yarmini old tomoniga oq parda tutilgan vitrinaga o'xshash keng peshtaxta egallagan edi. G'isht yotqizilgan polga yangigina qirindi sepilgandi. Yashil parda ortidan garmonika bilan g'ijjak sadolari eshitilib turardi.

Peshtaxta ortidan qovog'i soliq qizil yuzli erkak bilan yoshi o'tib qolgan ikki ayol turardi. Zalda faqat ikki stol band edi.

Nikodim peshtaxta oldiga bordi.

- Kattasidanmi? - so'radi xo'jayin.

- Quyavering, - deya javob qildi Dizma.

U stakandagi aroqni ichdi-da, tuzlangan baliqqa qo'l cho'zdi.

- Xo'sh, pan Malinovskiy, ishlar qalay?

- Yomon emas, asta-sekin qimirlab yotibmiz.

- Ambrozyak, garmonchi Ambrozyak hali ham sizda ishlaydimi?

- Nimaydi? - hushyor tortib so'radi xo'jayin.

- Yana bitta quying, - dedi Dizma va xo'jayin uzatgan aroqni simirib, tuzlangan qo'ziqorinni gazak qildi.

- Nahotki, meni tanimayotgan bo'lsangiz, pan Malinovskiy?

- Bu yerga juda ko'p odam kelib ketadi... - dedi loqaydlik bilan mayxona egasi.

- Mening otim Pizdray. Panskayadagi "Fil" qovoqxonasida ishlardim.

- Panskayada deysizmi?

- Ha. Mandolina chalardim. Otim Pizdray.

Xo'jayin Dizmaning iltimosini kutib o'tirmay, stakanga yana aroq quydi.

- Ha, ha tanidim... Xo'sh, ishlar qalay?

- Yomon emas...

Nikodim aroqni ichdi.

- Ambrozyak u yoqdami? - deya so'radi u boshi bilan parda tomonga ishora qilib. - U mening oshnam bo'ladi.

- O'sha yerda, - deya lo'ndagina javob qildi xo'jayin.

Nikodim tishkovlagichni og'ziga tiqdi-da, uch-to'rt qadam yurib, chit pardani ochdi.

Parda ortida odam ko'p edi, orkestr, chamasi birontaning zakazi bo'yicha bo'lsa kerak, uzoq chaldi.

Biroq garmonchi Dizmani darhol tanidi. Shu boisdan ham u tango kuyini chalib bo'lishgach, Nikodimning oldiga keldi.

- Yaxshimisiz, Pizdray!

- Salomatmisiz! - quvnoq javob qildi Dizma. - Pan Malinovskiy, bizga ikki krujka pivo bering.

- Eski oshnalar uchrashib qolgani uchun bir ryumkadan dorisi ham bo'lsin, - deya qo'shimcha qildi garmonchi.

Ichishdi.

- Biror ishingiz bormi? - so'radi Ambrozyak. Nikodim bosh irg'adi.

- Hozir qayerda ishlayapsiz?

- Qishloqda, - javob qildi Dizma bir oz o'ylanib turgach.

- Tirikchilik qilsa bo'ladimi?

- Bo'ladi.

- Xo'p, ishingiz bor ekan, bir chetga o'taylik bo'lmasa.

Ular krujkalarni qo'lga olib, deraza oldiga borishdi.

- Ambrozyak, - deya gap boshladi Dizma, - menga bir oshnachilik qilishingiz kerak.

- Oshnachilik deysizmi?

- Menga yulduzni narvonsiz uradigan yigitlardan uch-to'rttasi kerak.

- Qaltis ishmi? - tovushini pasaytirib so'radi garmonchi.

Nikodim stulda chayqalib qo'ydi.

- Bir nusxa payimni qirqyapti.

- Durustroq kishimi? - deya qiziqsindi Ambrozyak.

- Qayoqda... Arzimagan odam.

- Nima? Gumdon qilish kerakmi?

Nikodim yelkasini qashidi.

- Yo'q, nega endi, valdiray bermasligi uchun ovozini o'chirib qo'yish kerak.

Garmonchi aroqni ichib, polga tupurdi.

- Bo'пти, to'g'rilaymiz, lekin bu ishdan yuz zlotiyning hidi kelyapti, Ehtimol, yuz yigirma zlotiy ham ketar.

- Bu yog'idan ko'nglingiz to'q bo'lsin, - deya oshnasini ishontirdi Dizma.

Ambrozyak bosh irg'ab, o'rnidan turdi-da, parda orqasida g'oyib bo'ldi. Dizma kuta boshladi.

Garmonchi bir ozdan so'ng mitti ko'zlari chaqnaq turgan og'zingina malla soch bir yigitni boshlab keldi.

- Tanishinglar: mening oshnam Pizdray, Franek Lgvandovskiy.

Malla soch yigit tomirlari o'ynab chiqqan, gavdasiga nomunosib beso'naqay qo'lini uzatdi.

- Kim o'ldi? - deya so'radi u.

- Shunchaki bir ish bor... - dedi xayolga cho'mib Dizma.

- Ish bor ekan, demak tomoqni ho'llash kerak.

Nikodim xo'jayinni chaqirdi.

- Pan Malinovskiy, bir shisha tozasi bilan cho'chqa go'shtidan keltiring.

Ambrozyak mallaga engashdi.

- Pan Franek, kimlarni olmoqchisiz?

- Antek Klyavish bilai Qaynatani olsam deyman.

- Faqat uch kishi bo'lasizlarmi? - deya shubhalanib so'radi Dizma.

- Nima? Juda kuchlimi?.. Tullaklardanmi yoki xommi?

- Xom. Qishloqdan kelgan... O'lguday semiz.

- To'g'rilaymiz, - dedi bosh irg'ab Franek. - Kechirasiz, o'zlari kim bo'ladilar?

- Bu bilan nima ishing bor, Franek? - deya gapga aralashdi Ambrozyak. - Mening oshnam deyaqman-ku, shu yetmaydimi senga?

Nega hamma ishga tumshug'ingni tiqaverasan?

- Tumshug'imni tiqayotganim yo'q, shunchaki qiziqdim, xolos. Bo'пти, gapiring.

Nikodim stolga engashib, tushuntira boshladi.

Levandovskiy bilan garmonchi hafsala bilan ichishmoqda edi. Dizma ham ulardan qolishmasdi. Xo'jayin buyurishlarini kutib o'tirmasdan bo'sh shishani olib, o'rniga yana bitta yarimtalik va sovuq kotletlar bilan tuzlangan bodring keltirib qo'ydi. U birona odam Levandovskiy bilan "gaplashganida" ish aroqsiz bitmasligini yaxshi bilardi.

Ambrozyak orkestrga chaqirishganlari sababli bir necha marta o'rnidan turib, yana qaytib keldi. Xo'jayin gaz chiroqni yoqdi. Eshik tinimsiz ochilib turardi, pivoxona odamga to'layotgandi.

Ko'pchilik Levandovskiy bilan salomlashar, u esa javoban beparvogina bosh irg'ab qo'ya qolardi.

Dizma Levandovskiy to'g'risida ko'p eshitgandi. Biroq Nikodim butun Volya bilan Chistoyega vahima solgan bu mashhur kallakesarning yosh bolaga o'xshagan bir yigit ekanligini xayoliga ham keltirmagandi. Harqalay, Dizma ishni ishonchli qo'llarga topshirayotganini yaxshi bilardi.

Nikodim yeb-ichilgan narsalarning haqini to'lab, Franekka sekingina yuz zlotiy qistirganida soat sakkiz bo'lgan edi.

- Eng muhimi - cho'ntaklarini yaxshilab qaranglar, biror nishona qolmasin, - dedi Dizma Franek bilan xayrlashayotib uning tomirlari o'ynab chiqqan qo'lini qisar ekan.

Ambrozyak Nikodimni eshikka qadar kuzatib chiqib, Franekning "mixday yigit" ekanligini aytdi-da, o'n zlotiy qarz so'radi. So'ng Dizma bergan pulni cho'ntagiga sola turib, istehzo aralash dedi:

- Qishloqda rosa ishlayotganga o'xshaysiz. Pul degan narsa serob ko'rinadi!

- Ishim yomon emas.

Ko'cha bo'm-bo'sh edi. Dizma Vol'skayaga chiqib, tramvay kuta boshladi. Ko'p o'tmay to'qqizinchi ham keldi.

P'irkda odam qaynardi. G'ovur-g'uvur ichida u yoqdan-bu yoqqa yelib yurgan bolalarning ovozi eshilib turardi:

- Shokolad, limonad, pechen'e!

Nikodim opa-singil Charskayalar bilan sirkka kirib kelgan ham ediki, orkestr marsh chalib, polzonlar maydonga saf tortib chiqishdi.

Ular o'nta bo'lib, barchasi norg'ul, mushaklari bo'rtib chiqqan, bo'yni buqanikiga o'xshash yo'g'on, triko kiygan badanini jun bosgan edi. Ular safni buzmay maydonni aylanib chiqishdi.

Dizma opa-singil Charskayalar bilan o'z lojasi tomon o'tdi. Polkovnik Vareda allaqachon yetib kelgan ekan. Mariyetta kulib yubordi:

- Nima balo, so'qimga boqilganmi hammasi! Nikodim va opa-singil Charskayalar Vareda bilan salomlashishdi.

- Huv anavisining oti Mik, - deya tushuntirdi Vareda. - Gavdasi o'spirin bolanikiga o'xshaydi-yu, lekin u manovi barzangilarning ko'pchiligidan kuchliroq.

Polvonlar yana saf tortishgan edi, sud'ya ularni tomoshabinlarga tanishtira boshladi.

Har birining Angliya chempioni, Braziliya chempioni, Yevropa chempioni kabi birona unvoni bor edi.

Ikki polvonning nomi aytilganda chapakvozlilik, ayniqsa, avjiga chiqdi: tomoshabinlar Pol'sha chempioni Velyaga bilan italiyalik barzangi Trakkoni olqishlamoqda edi.

So'ng sahnada ikkita polvon: semiz, qo'llari maymunniki kabi uzun nemis bilan xushbichim mulat Mik qoldi. Mik o'z raqibi yonida karkidon oldida turgan ohuga o'xshardi.

Hushtak chalinib, polvonlar bel olishdi.

- Tayyor! - deya qichqirdi Dizma mulat nemisning og'irligidan gilamga yiqilayotganini ko'rib.

- Yo'q, oshna, - jilmaydi Vareda, - mulat tushmagur juda ephil. Uning kuragini yerga tekkizishning o'zi bo'lmaydi.

Chindan ham mulat raqibining changalidan osoigina sirg'ilib chiqdi. Shunda nemis pishillaganicha uni yana gilamga itqitish uchun dast ko'tarmoqchi bo'lgan edi, mulat kutilmaganda sakradi. Avvaliga bu nemisga qo'l keladigandek tuyuldi, biroq ahvol bir zumda o'zgardi qo'ydi: mulat chaqqonlik bilan umbaloq oshdi. Uni ko'tarib turgan nemis muvozanatini yo'qotib qo'yib, chalqanchasiga yiqildi. Mulat bir sakrab, raqibining ko'krigiga chiqib oldi.

Shu payt ularning oldiga yugurib kelgan sud'ya nemisning ikkala kuragi yerga tekkanini qayd qildi. Bu ahvol bir zumda davom etdi, xolos, mag'lub bo'lgan nemis raqibini no'noq suvorini yiqitgan ot kabi ustidan silkib tushardi-da, pishqirib o'rnidan turdi.

Biroq olishuv tugagan edi. Jyuri raisi, mulatning g'alabasini e'lon qildi. Mulat jilmayib tomoshabinlarga ta'zim qila boshladi.

Mag'lub bo'lgan nemis so'kina-so'kina sahnadan chiqib ketdi. Chor atrofda o'tirgan odamlar uni qiyqiriq va hushtaklar bilan kuzatib qolishdi.

- Bu mulat muncha chiroyli bo'lmasa! - dedi mahliyo bo'lib Mariyetta Charskaya. - Xuddi birinidan quyilganga o'xshaydi-ya! Pan

rais, ayting-chi, agar uni o'zimiz bilan restoranga olib ketsak odobsizlik bo'lmaydimi?

- Mariyetta, nimalar deyapsan o'zi! - deya uni to'xtatdi opasi.

- Noqulay bo'lsa kerak, - gap qotdi Dizma.

Ammo boshqalar bu odatdagi vaqtichog'lik bo'ladi deyishdi. Ularning aytishlaricha, alohida kabinetda o'tirishsa hech nima qilmasmish.

Bu orada sahnaga yana bir juft polvon chiqdi.

Dizma kurashni berilib tomosha qila boshladi. U kurash keskin tus olgan paytlarda mushtini qattiq qisar va jon-jahdi bilan:

- Bos uni!.. - deya baqirardi.

Pastda polvonlarning og'ir gavadasi u yoqdan-bu yoqqa dumalar, ular inqillab-sinqillab bir-birlarini yiqitishga urinishardi. Yuqorida o'tirgan tomoshabinlar esa hushtak chalishar va "ofarin" deya qichqirishardi.

Bir necha juft polvonlar kurashib bo'lishgach, nihoyat sahnada programmaning asosi bo'lgan tomosha boshlandi.

Maydonga eng kuchli polvonlar tushishdi. Chorpaxil qo'llari g'oyat uzun, burni puchuq, sochi ustara bilan olingan Pol'sha chempioni Velyaga ulkan maymunga o'xshardi. Uning qarshisida yo'g'on oyoqlarini kerib norg'ul Trakko turardi. Uning mushaklari bo'rtib chiqqan edi.

Butun sirk jimib qoldi. Shu payt sud'yaning hushtagi eshitildi.

Raqiblar go'yo bir-birlarini sinamoqchi bo'lgandek, shoshmay bel olishdi. Chamasi, ularning ikkovi ham olishuvning naqadar qiyin bo'lyshini yaxshi bilardi. Biroq ularning har biri o'z usulini qo'lladi. Polyak kurashni shiddat bilan olib bormoqchi edi. Italiyalik esa ku chini bir maromda sarflab, raqibining sillasini quritishga ahd qilgandek ko'rinardi. Shu boisdan ham u deyarli qarshilik ko'rsatmadi va bir necha siltovdan keyin gilamga tizzasi bilan yiqildi.

Velyaga uni chalqanchasiga yiqitmoqchi bo'ldi, Ammo oradan bir necha minut o'tgach, barcha harakati zoye ketayotganinn ko'rib, raqibining bo'ynini jon-jahdi bilan ishqay boshladi.

- U nima qilyapti? - deya so'radi Mariyetta. Vareda unga engashib, ko'zini polvonlardan uzmay tushuntira boshladi.

- Buning otini uqalash deyishadi. Urush mumkin emas, tushundingizmi? Uqalash esa mumkin. Shunday qilganda bo'yin mushaklari zaiflashadi.

- Joni og'risa kerak axir.

Italiyalik polvon ham xuddi shunday qarorga keldi shekilli, raqibining changalidan sirg'alib chiqib, o'rnidan turdi va Velyaganing orqa tomonidan quchoqlab oldi. Biroq semiz Velyagaga italiyalikning qo'llari yetmadi; u qornini shishirgan edi, Trakkoning qo'llari ochilib ketdi.

Tomoshabinlar qarsak chalib yuborishdi.

Darvoqe, boshidanoq ular pol'shalnk polvon tarafini olishlari aniq edi.

Biroq olishuvdan natija chiqmayotgani uchun Velyaga quturib ketdi. Tomoshabinlarning qiy-chuvi uni battar qizishtirib yubordi:

- Velyaga, bo'sh kelma!

- Bos makaronxo'rni!

- Yashavor, Velyaga!

Polvonlarning ko'zi qonga to'ldi ular o'qtin-o'qtin pishqirib qo'yishardi.

Olishuv borgan sari qizg'in tus ola boshladi. Kurashchilarning badanini ter bosdi.

Velyaga shiddat bilan hujum qilar, italiyalik jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatar, biroq o'zini yo'qotmay, qoidaga binoan kurashardi.

Bu orada Velyaga har nima qilib bo'lsa ham raqibini yengishga urindi; sud'ya hatto bir necha bor kurashni to'xtatishga majbur bo'ldi, chunki Velyaga g'irromlik qila boshlagan edi.

Birdan u Trakkoni nel'son usuli bilan bo'g'ib olishga muvaffaq bo'ldi. Uning bahaybat qo'llari italiyalikning qo'ltig'idan o'tib, ensasida birlashdi.

P'irk suv quyganday jimib qoldi.

Polvonlar turgan joylarida qotib qolishdi - biroq ularning bunday turishi g'oyat katta kuchni talab qilardi: shu tobda ularning tarang tortilgan mushaklarn hozir terisini yorib chiqadigandek tuyulardi. Velyaga yana zo'r berdi. Italiyalikning qip-qizil yuzi ko'karib ketdi. Og'riqning zo'ridan uning ko'zlari kosasidan chiqib, osilib qolgan tilidan so'lak oqa boshladi.

- Qanday jirkanch-a! - deya xitob qildi Mariyetta va ko'zlarini yumib oldi.

- Velyaga uni o'ldirib qo'yadi! - qichqirdi qo'rqib ketgan opasi. - Pan rais, bu dahshat-ku axir!

- Menga desa, bo'ynini uzib tashlasin! - deya javob qildi Dizma.

- Uyalmaisizmi, pan rais, - deya yana gapga aralashdi Mariyetta.

- U taslim bo'lishi mumkin, - dedi yelkasini qisib polkovnik.

Biroq italiyalik polvon taslim bo'lishni xayoliga ham keltirmasdi. U dahshatli og'riqqa bardosh berib, sira bo'sh kelay demasdi.

Velyaga ham buni tushundi. U vaqt tugayotganini ko'rib, nima qilib bo'lsa ham raqibini yengishga ahd qildi. .

U italiyalikni yon tomonga siltab, chalib yiqitdi-da butun og'irligi bilan bosib, kuragini yerga tekkizdi.

Hamma yoqni gulduros olqish tutib ketdi. Qiyqiruv chapakvozlik, minglab oyoqlarning tapir-tupuridan sud'yaning hushtagi va bosh arbitrning qo'ng'iroq chalishi eshitilmay qoldi.

- Qoyil, yashavor Velyaga! - deya qichqirardn peshanasi ter qoplagan Dizma.

Bu orada polvonlar o'rnilaridan turishdi.

Velyaga tomoshabinlarga ta'zim qila boshladi, Trakko esa sud'yalar kollegiyasining stoli oldiga borib, ko'karib ketgan bo'ynini ishqaganicha, nimanidir tushuntira ketdi.

Nihoyat g'ala-g'ovur tindi. Sud'ya sahna o'rtasiga chiqib, e'lon qildi:

- Pol'sha chempioni Velyaganing Italiya chempioni Trakko bilan kurashi durang natija bilan tugadi. Velyaga raqibini taqiqlangan usul bilan yiqitdi. Shu boisdan ham jyuri...

Qiy-chuv ko'tarilib, sud'yaning keyingi so'zlari eshitilmay qoldi.

- Yolg'on!

- Velyaga chalgani yo'q!

- Yo'qolsin g'irrom sud'ya!

- Velyaga yutdi!

- Yo'qolsin makaronxo'r!

Nihoyat, sud'yalar kollegiyasining raisi so'z oldi:

- Olishuv durang natija bilan tugadi, chunki Velyaga raqibini chalib yiqitdi. Ringdagi sud'ya ham, men ham buni aniq ko'rdik.
- Yolg'on, chalgani yo'q! - deya qichqirdi Dizma.
- Men emas, siz yolg'on gapiryapsiz, - dedi jahl bilan sud'ya.
- Nima? - g'azabi qaynab bo'kirdi Dizma. - Nima dedingiz? Men chalmadi deyapman. Men davlat g'alla bankasining raisi bo'laman. Hushtak tutgan anovi nusxadan ko'ra menga ko'proq ishonish mumkin.
- P'irkni gulduros qarsaklar tutib ketdi.
- Ofarin, ofarin!
- To'g'ri, aytyapti.

Shunda sud'yalar kollegiyasining raisi yana o'rnidan turib, qichqirdi:

- Kurash natijasini tomoshabinlar emas, sud'yalar kollegiyasi hal qiladi. Olishuv durang bilan tugadi.

Butunlay o'zini yo'qotib qo'ygan Nikodim butun sirkka eshittirib o'shqirdi:

- B... yebsan!
- Uning gapi tomoshabinlarga katta ta'sir qildi. Yuqori qatorlardan gulduros olqishlar eshilib, odamlar xaxolab kulishar, hozirgiia Dizma aytgan gapni baqirib takrorlashardi.
- Ketdik bu yerdan, - dedi Nikodim, - aks holda yorilib o'laman.
- Ular sirkdan kula-kula chiqishdi.
- Endi chinakamiga mashhur bo'lasan, - deya gap qotdi Vareda.
- Qo'ysang-chi...
- Meni aytdi deyaver. Ertaga butun Vārshava faqat shu haqda gapiradi. Mana ko'rasan. Odamlar o'tkir so'zni yaxshi ko'rishadi... Ertasi kuni bu voqea haqida faqat gapirishibgina qolmay, balki barcha gazetalar uning tafsilotlari bilan yozib ham chiqishdi.
- Ba'zilar esa kecha qahramonining rasmini ham bosib chiqarishdi. Nikodim o'zidan darg'azab edi.
- Men to'g'ri aytdim. Nega endi ular meni odobsiz odamga chiqarib qo'yishyapti?
- Hechqisi yo'q, arzimagan gap, - deya unga taskin berdi Kshepitskiy.
- G'azabimni qaynatib yuborishdi, ablahlar.

13-bob

Kroxmal'naya ko'chasi bu paytlarda doim bo'm-bo'sh bo'ladi. Buning ajablanadigan joyi yo'q: vaqt yarim tundan og'ib qolgan bo'lib, bu yerning aholisi esa ishga jo'nash uchun ertalab soat oltida o'rnidan turadi.

Darvozoxonalarning birida uch erkak allakimni kutishganicha devorga suyanib o'tirishardi. Sirtidan qaraganda ular uxlab qolgandek ko'rinishadi, ammo papiroslarining ahyon-ahyonda miltirashiga ko'ra ular uyg'oq edi.

Jelez'naya ko'chasi tomonidan kimningdir og'ir qadam tashlab kelayotgani eshitildi. Erkaklardan biri emaklab borib, burchakdan mo'raladi-da, so'ng orqasiga qaytib shivirladi:

- O'sha.
- Qadam tovushi borgan sayin yaqinlashib kelardi, bir minutdan so'ng darvozaxonadagi kishilar qora kuzgi pal'to kiygan past bo'yli baqaloqni ko'rib qolishdi,
- Orqasidan kimningdir kelayotganini sezgan yo'lovchi o'girilib qaradi.
- Gugurtingiz yo'qmi mabodo? - deya so'radi undan ozg'ingina malla soch yigit.
- Bor, - dedi javoban baqaloq va cho'ntagini kovlay boshladi.
- Familiyangiz Bochekmi? - so'radi kutilmaganda malla soch yigit.
- Baqaloq unga ajablanib qaradi.
- Buni qayoqdan bilasiz?
- Qayoqdan deysizmi? Sen tilingni tiymagan tomondan, ablah.
- Nima gap o'zi?

Baqaloq gapini tugata olmadi. Og'ir musht uning burni bilan yuqori labini yorib yubordi; shu zahoti kimdir uning miyasiga urdi, kimdir bor kuchi bilan qorniga tepdi.

- Yo tangrim! - deya qichqirdi baqaloq va zovurga qulab tushdi. Uning miyasi g'uvillab, og'zidan qonning sho'rtang mazasi paydo bo'ldi.

Haligi odamlar bu bilan cheklanishmadi. Ulardan biri baqaloqning ustiga engashib, qorni va ko'kragi aralash uraverdi, boshqasi trotuardan sakrab o'tib, poshnasi bilan basharasiga tepdi.

Dahshatli og'riq Bochekning kuchiga kuch qo'shdi. U semizligiga qaramay, sapchib o'rnidan turdi-da:

- Qorovul! Qorovul! - deb dodlay boshladi.
- Ovozini o'chir uni! - deya hansirab shivirladi malla soch yigit.
- Sherigi Bochekning trotuarda yotgan shlyapasini olib, uning dabdalasi chiqqan basharasiga bosdi.
- Voy-dod... Yordam beringlar! - deya bo'g'ilib qichqirdi baqaloq.
- Uzoqdagi chorrahada kimningdir qorasi ko'rindi.

- Jim! Franek, kimdir kelyapti.

- Voy-dod! O'ldirishyapti!

- Nimayam qilardik, pichoq bilan tinchitishga to'g'ri keladi.

Buklama pichoqning prujinasi shiqillab ochildi-da, uzun tig' naq sopiga qadar baqaloqning tanasiga sanchildi. Franek uning yana uch-to'rt joyiga pichoq urdi.

- Tayyor bo'ldi.

Yigit pichog'ini Bochekning pal'tosiga artib oldi. Ikki sherigi uning cho'ntaklarini tintib, soati, pasporti va karmonini olishdi...

Bir zumdan so'ng Kroxmal'naya ko'chasi yana huvillab qoldi.

Velosiped mingan ikki politsiyachi - tungi patrol' bu ko'chaga burilganda tong ota boshlagan edi.

- Uni qara, - deya xitob qildi politsiyachilardan biri, - kimdir yotibdi!

- Mast bo'lsa kerak.

Ular velosipedlaridan tushib, halqob bo'lib qolgan qonni ko'rishdi-yu, darhol gap nimadaligini tushunishdi.

- Cho'chqaday chavaqlab ketishibdi-yu!

- Tomirini ushlab ko'r-chi.

- Sovib bo'libdi.

- Obbo itvachchalar-ey! Komissariatga borish kerak.

Shu haftada uchinchi odamni so'yib ketishlari.

Sovuq kuz yomg'iri shivalay boshladi.

"Bugun tunda VIII komissariat patruli Kroxmal'naya ko'chasida elliklarga kirgan bir erkak murdasini topdi.

Tez yordam vrachi erkakning yurak xaltasi o'tkir qurol bilan yorilgani, ko'p qon ketgani va miya suyagining singani sababli o'lganini qayd etdi. Basharasi qattiq majaqlangani boisidan uning kimligini aniqlab bo'lmadi. Uning yonidan hech qanday hujjat topilmadi. Murda yorish uchun o'likxonaga jo'natildi. U ichki partiya nizolarining qurboni bo'lgan, deb taxmin qilinyapti".

Dizma gazetani buklab, stolni cherta boshladi.

- Xo'sh, men nimayam qila olardim? - dedi o'ziga o'zi Nikodim yelkasini qisib.

Avvaliga Bochekning o'limi uning yuragiga g'ulg'ula soldi. U, politsiya meni albatta qidirib topadi, deb o'yladi. Keyin marhum kechalari tushimga kirib chiqsa-ya, - deya qo'rqa boshladi.

Lekin, boshqa tomonini olganda, o'zi uchun xavfli bo'lgan bu odamning endi yo'q bo'lgani, uning o'limi bilan hamma xavf-xatar bataraf etilgani haqidagi fikr asta-sekin qo'rquvni yengib, oxiri Nikodimning dilidan o'ni butunlay quvib chiqardi.

Undan, banka pravleniyasining raisidan kim ham shubhalanardi, deysiz!

Bochekning o'limiga, u, ya'ni Dizma aybdormi? Hamma balo Bochekning o'zidan chiqdi.

"Hammasiga o'zi aybdor. Ahmoq... Mana oqibati..."

Kabinetga Kshepitskiy kirib, eshikni yopdi-da, sirli jilmayib dedi:

- Pan rans, bir mijozni qabul qilmaysizmi? Juda qiziq odam.

- Kim ekan u?

- Sizning yaxshi tanishingiz.

Dizmaning rangi dokaday oqarib ketdi; u sakrab o'rnidan turdi-da, butun gavdasi qaltirab, titroq tovush bilan so'radi:

- Kim?!

Uni qattiq vahima bosdi. Shu payt unga eshik ortida basharasi majaqlanib, qonga belangan Bochek kutib turgandek ko'rindi.

- Sizga nima bo'ldi, pan rais? - deya so'radi tashvishlanib Kshepitskiy.

Dizma yozuv stoliga tayandi.

- Mazangiz qochdimi?

- Kunitskiy.

- E-ha, Kunitskiy... Yaxshi...

- Uni qabul qilasizmi?

- Mayli, kirsin,

Kabinetga o'sha-o'sha pitrak va qizil yuz Kunitskiy yugurib kirdi. Dizma bilan ostonadayoq salomlashib, allanimalarni bidirley ketdi.

Nikodim gap nimada ekanligini tushuna olmay, cholga bir minutcha merovsirab qarab turdi.

- Ha, azizim pan Nikodim, yoshimga yosh qo'shilyapti-yu, lekin men qariyotganim yo'q. Mana sizning ham ko'rinishingiz juda yaxshi. Xo'sh, siyosat bobida qanday yangiliklar bor? Ishlaringiz qalay? Hamma turg'unlik uchun soliqlardan shikoyat qilyapti, azizim: dastmoya solig'i odamni pichoqsiz so'yayapti axir. Ijtimoiy zarurat uchun olinayotgan soliqlarni aytmaysizmi!

Kabinetingiz ajoyib ekan, juda did bilan jihozlanibdi... Azizim pan Nikodim, marhamatingizni ayamangizu men bilan ponushta qilsangiz, qalay bo'larkin? Ertalabdan beri tuz totganim yo'q. Ajoyib kabinet! Men bilan Koborovoga jo'namaysizmi, a? To'g'ri, havo aynigan, lekin hamma yoq osoyishta. Asablar dam oladi, keyin boyoqish Ninaning ham boshi osmonga yetardi - juda yolg'iz bechora. Ikki-uch kunga borib kelsangizchi, a?

- Keyingi haftada borarman. .

- Rahmat, azizim, rahmat. Qani, yuring, nonushta qilaylik, bo'lmasam. Balki, "Baxus"ga borarmiz, a?

- Rahmat, borolmayman. Bugun knyaz' Rostotskiynikida nonushta qilishim kerak.

Bu yolg'on kutilganidan ham ziyoda ta'sir ko'rsatdi. Kunitskiy og'zining tanobi qochib, tanish-bilishlari tufayli unga qanday imkoniyatlar yaratilayotgani to'g'risida gapira ketdi.

So'ngra cholning bu yerga kelishidan maqsadi ham ma'lum bo'ldi: u temir yo'l shpallari haqida gap ochdi. Kunitskiy yaltoqlanib, bu ishdan ko'radigan foydasi haqida gapira va anovi sud protsessi tufayli u, ya'ni Leon Kunitskiyga buyurtma berishni istamasalar, u holda ishni Nina Kunitskayaning' nomiga rasmiylashtirishi mumkinligini uqtirardi.

- Juda mushkul ish, - dedi javoban Dizma.

- Xe-xe-xe, qadrlri pan Nikodim, bir imo qilsalar bas... Azizim, keling, o'sha temir yo'l ministri bila bir gaplashib ko'ring.

Chol Nikodimning jon-holiga qo'ymay axiyri roz bo'lishga majbur qildi.

- Faqat shartnoma bir yoqli bo'lguniga qadar, bu yerdan ketmay turasiz; yodingizda bo'lsin, men bu ishda hech balo tushunmayman.

Kunitskiy boshi osmonga yetib, garchi Dizma kabi geniy uchun hech qanday yordamning kerak emasligiga ishonchi komil bo'lsa-da, zarur bo'lib qolsa, kerakli ma'lumotlarni berish uchun Varshavada qolajagiga pan raisni ishontirdi.

Kabinetga Kshepitskiy kirib, gapning beliga tepdi. Kunitskiy ertaga kelishini va'da qilib, Dizma bila xayrlashdi.

- Yulduzni benarvon uradigan chol-da, o'ziyam? - dedi uning ortidan Kshepitskiy.

- Nimasini aytasiz! - deya tasdiqladi Nikodim. - Uni chuv tushirish juda qiyin.

Kshepitskiyning uzun yuzi nafratomuz tabassumda burishib ketdi.

- Menimcha, pan rais, bunaqa olg'irni o'zidan epchilrog'i chiqib aldab ketadi.

Dizma kulib yubordi. U o'zini xuddi shunday epchillardan deb hisoblardi. Nazarida, hatto Kshepitskiy ha xuddi shunday o'ylayotgandek edi. Harqalay sekretarining iljayib turishi shundan dalolat berardi.

- Nimani o'ylayapsiz? - deya qiziqib so'radi Dizma.

- Hozirgi kunda qulay fursatni qo'ldan boy bermaydigan kishilarninggina oshig'i olchi ekanligini o'ylayapman, - dedi javoban Kshepitskiy.

- Qanaqa qulay fursatni aytyapsiz? Kshepitskiy boshini yuqori ko'tarib, ingichka kekirdagini qashidi-da, go'yo shunchaki aytganday qilib dedi:

- Koborovo havas qilsa arziydigan joy-da.

- Nimasini aytasiz!..

- Hammagayam nasib bo'lavermaydi u.

Dizma bosh irg'adi.

- Lekin Kunitskiyga nasib qilibdi.

- Balki... u sizga ham nasib qilar?

Pikodim sekretariga gumonsirab qaradi.

- Menga-ya?

- Hozirgi zamonda u yoq-bu yog'ini o'ylab o'tirmaydigan odamlarning kuni tuqqan.

- Siz vijdonlilik xalal beradi, demoqchimisiz? Kshepitskiy darhol javob bermadi, u Dizmani diqqat bilan kuzatib turardi.

- Pan rais, - dedi u nihoyat har bir so'zini tarozuga solib, - sizga nisbatan oddiy xayrixoh emasligimni o'zingiz ham bilsangiz kerak?

- Ha, bilaman.

- Bo'lsaman, sizga ochig'ini aytoy... Sizning foydangizni ko'zlayapman. Yashirmayman, o'zimniyam unutayotganim yo'q, albatta. Bizning zamonamizda tentak odamlargina yutqizadi.

Shunday deya Kshepitskiy xayolga cho'mdi. Dizma toqatsizlaiib, uni qistadi:

- Gapira, qolsangiz-chi, jin ursin sizni!

- Ochig'ini aytsam, jahlingiz chiqmaydimi, pan rais?

- Nima, meni ahmoq deb o'ylayapsizmi?

- Xudo saqlasin. Shuning uchun ham aytyapman-da...

Kshepitskiy stulni Dizmaga yaqinroq surib o'tirdi.

Uning basharasidan jiddiy o'ygani sezilib turardi.

- Pan rais, Kunitskiyning xotini sizni hali ham sevadimi?

- Sevqanda qandoq! Har kuni mana bunday xatlar yozadi.

Kshepitskiy Nikodimga engashib, qulog'iga bir nimani shivirladi...

Ular bankadan chiqib, avtomobilga o'tirishganida soat to'rt bo'lay deb qolgan edi.

- "VoHa"ga hayda! - deya qichqirdi Dizma shofyorga va sekretarining tizzasiga shapatiladi. - Kallangiz yaxshi ishlar ekan. Ishqilib, uddalasad bas.

- Nega, uddalasad ekanmiz, albatta, uddalaymiz! Demak, gap bitta, a? - dedi Kshepitskiy Dizmaga qo'lini cho'zib.

- Bo'lmasam-chi! - shunday deya Dizma sekretarining qo'lini mahkam qisib qo'ydi.

O'sha kuni kechqurun Nikodim Dizma temir yo'l ministri injener Roman Pil'xenning uyiga bordi.

Ministr tabiatan vazmin, doim jilmayib turadigan, ozg'ingina, qora soch bir odam edi. U so'zlarga kichraytirish qo'shimchasini qo'shib gapirishni yaxshi ko'rardi. Ministr va uning yahudiysimon malla soch xotini Dizmani samimiyat bilan kutib olishdi..

- Raisjon, azizim! - deya xitob qildi Nikodimni ko'rgan zahoti Pil'xen. - Sirkda xo'p ajoyib so'z aytibsiz-da! Iloyim chivincha chaqsiz sizni! Kulgidan ichagim uzilay dedi! Iboracha deb mana buni aytadilar!

- Ehtimol, juda odobdan bo'lmasam ham, - so'zlarni cho'zib tasdiqladi xotini, - lekin erkakcha gap bo'libdi.

- Rost aytasan. Mamlakatimizda lalaygan odamlar ko'payib ketdi. Hamma gapga shakarcha sepib, chuchmal qilishni yaxshi ko'ramiz. Biror o'tkir so'z bizga muzdakkina suv sepganday ta'sir qiladi.

Nikodim kulib yubordi va o'shanda g'oyat g'azabi qaynab ketganini tushuntira boshladi.

Ovqatdan so'ng ish haqida gaplasha boshlashdi.

Nikodim ishning shunday silliq ko'chishini kutmagan edi. Rost, Pil'xen o'z ministrligidagi kerakli departament bilan kelishib olmaguncha biror qarorga kela olmasligini aytdi. Biroq aslida u qadrlir raisjon uchun hamma ishga tayyor emish. Har nima bo'lganda ham shpallar ortiqchalik qilmasmish.

- Sizga so'z berishim mumkin, bu ishni tezda bir yoqli qilamiz. Qanday bo'lmasin, eng muhimi, ishni paysalga solmaslik kerak. Odatim o'zi shunaqa.

Dizma ensasini qashidi.

- Ochig'ina aytganda, men bu ishni bir oz orqaga surishni iltimos qilmoqchiman.

- Orqaga surishni deysizmi, birodar? - deya ajablanib so'radi ministr.

- Hozir u menga zarur emas.

Pil'xen kulib yubordi va, unday bo'lsa sizni juda g'alati mijoz, deb aytsam ham bo'ladi, dedi.

Nikodim ertaga ministrlikka borish uchun ijozat so'radi-da, xayrlasha boshladi.

- Asl odam-da, - dedi ministr Dizmaning ortidan eshik yopilgach. - Menga ishonaver, do'ndiqcham, unga qilingan har bir yaxshilik kelajakda yaxshi foyda keltiradi.

- E, men qayoqdan bilay, - dedi javoban pani Pil'xen, - bu siyosiy kombinatsiyalaringizni tushunmayman. Menga faqat bir narsa ayon, Dizma juda yaxshi odam ko'rinadi. Inglizcha tarbiya deb shuni aytishadi-da!

Nikodim uyga qaytdi-da, darhol Kshepitskiyga qo'ng'iroq qilib, ish ko'ngildagiday ketayotganini xabar qildi.

So'ngra Ninaning xatlarini ochib o'qiy boshladi. U juvonning sevgisiga yana bir bor ishonch hosil qilmoqchi edi.

Xatlarda yozilgan gaplardan hech qanday shubhaga o'rin qolmasdi. Ularning turgan-bitgani muhabbat to'g'risida mulohazalar, birga o'tkazgan damlarni qo'msash, hijron azobi va kelajakdagi ikkovlon o'tkazadigan baxtli kunlarni orziqib kutish haqidagi gaplardan iborat edi.

Xatlardan birida Nina o'zi tug'ilib o'sgan va unga bolaligini eslatadigan Koborovodan ayrilish naqadar og'ir ekanligi haqida gapirgandi.

Dizma iljayib, stol tortmasini ochdi-da, qog'ozlar orasidan Nina Kunitskaya nomi bilan ish olib borish uchun berilgan vakolatnomani oldi. Bu vakolatnomani Nikodim Koborovoga borganidai so'ng bir oz vaqt o'tgach, Leon Kunitskiy bergan edi.

Dizma vaqolatnomani hafsala bilan buklab karmoniga solib qo'ydi.

So'ng quvnoq hushtak chalgancha o'zini to'shakka tashladi. Hozir uning butun fikri yodi o'zi boshlagan katta ishda edi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Nikodim mag'ozlarda to'g'ri lampalarni qo'yib, xonada zim-ziyo qorong'ilik bosganida birdan uning butun vujudini dahshat bosdi.

"Bochekni o'ldirishdi!"

Dizma dovdirab qoldi.

"Mening buyrug'im bilan o'ldirishdi... Mening pulimga... Bochekni men o'ldirdim... E, jin ursin!"

Bu xira fikr uning miyasini chulg'ab olgandi. Narigi dunyo chindan ham bo'lsa-chi? Arvohlar haqidagi gap rost bo'lsa-ya?..

Qorong'ida qarshidagi devor oldida nimadir qimirlab, kimningdir sharpasi ko'ringanday bo'ldi.

Sochlari tikka bo'lib ketgan Nikodim qaltiroq qo'lini vklyuchatel' tomon cho'zgan edi, pijamasining yengi abajurga tegdi-yu, lampa sharaqlab, polga tushdi.

Nikodim tirrakdek qotib qoldi. Sharpa esa yaqinlashib kelmoqda edi. Nafasi tomog'iga tiqila boshlagan Dizma dodlab yubordi.

Har daqiqa bir soatday tuyulardi.

Birdan uning qulog'iga shippakning shapillagani eshitildi. Eshik tirqishidan xonaga shu'la tushib, ostonada qo'lida to'pponcha bilan Ignatiy paydo bo'ldi.

- Nima gap?

- Chiroqni yoq tezroq.

Ignatiyning devorni paypaslagani eshitildi. Nihoyat, vklyuchatel' chiqillab, xona ichi ko'zni qamashtiruvchi, ajoyib, najotbaxsh yog'duga ko'mildi.

- Nima gap o'zi, pan rais? Dizma o'rnidan turib o'tirdi.

- Hech gap yuq. Tushimda... anovi... o'g'rini ko'ribman...

- Xudoga shukur-e. Odamni qo'rqitib yubordingiz-ku.

- Asabimning mazasi qochibdi. Bilasanmi, Ignatiy, ko'rpangni olib kelgin-da, manovi divanda yot.

- Ta'bingiz, pan rais.

- Ha! Keyin bufetga borib menga aroq olib kel. Ozgina ichsam, asabim joyiga tushadi.

Qadahdagi aroqni simirib, ustidan bir tishlam somsa yegach, Nikodim yengil tortganday bo'ldi. Ignatiy divanga cho'zildi.

"Tufe! O'zim ham xotindan battar ekanman!" - dedi o'ziga o'zi Dizma va devor tomon o'girilib, qattiq uyquga ketdi.

AvvalgiIII- qismB Keyingi